


VOLUME #2
ISSUE#11,
NOYABR 2024



**«YANGI O‘ZBEKISTONDA
TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR» RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIIY
KONFERENSIYASI**



**Research Science and
Innovation House**

 <https://universalpublishings.com>
editor@universalpublishings.com

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER



**«YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR» RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI.**

30.11.2024-yil.

Ushbu to'plamda « **YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR**» ilmiy konferensiyasi 2024-yil 2-soni 11-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.


Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga **DOI** unikal raqami biriktirilib, **Zenodo, Open Aire, Google
Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Konferensiya materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Konferensiya materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.



**“RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION
HOUSE” MCHJ**

TAHRIRIYAT

Bosh muharrir: Eshqarayev Sadridin Chorievich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot va tabiiy fanlar kafedrasini mudiri, kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O'zbekiston.

Mas'ul kotib: Boboyorov Sardor Uchqun o'g'li Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali magistranti

Nashrga tayyorlovchi: Eshqarayev Samariddin Sadridin o'g'li Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti magistranti

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

Texnika fanlari muharriri, Eshqarayev Ulug'bek Chorievich – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasini dotsenti, texnika fanlari nomzodi, Denov, O'zbekiston.

Texnika fanlari muharriri Babamuratov Bekzod Ergashevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, falsafa fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Kimyo fanlari muharriri Mirabbos Xojamberdiev Ikromovich- Berlin Technische Universität dotsenti, kimyo fanlari doktori, Berlin, Germaniya

Kimyo fanlari muharriri, Eshqurbonov Furqat Bozorovich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, kimyo fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Iqtisodiyot fanlari muharriri Otamurodov Shavkat Tillayevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti prorektori, iqtisod fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Ijtimoiy va gumanitar fanlar muharriri, Xudoyberdiyev Xursand Xudoyberdiyevich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, ijtimoiy-gumanitar fanlar doktori, Termiz, O'zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Otamurodov Furqat Abduraimovich, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali direktori, Termiz, O'zbekiston tibbiyot fanlari falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston.

Biologiya fanlari muharriri Nurova Zamira Annakulovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali. Termiz, O'zbekiston, biologiya fanlari doktori, dots., Termiz, O'zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Turabayeva Zarina Kenjabekovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, tibbiyot falsafa fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Sotsiologiya fani muharriri Eryigitova Lobar Qodirovna Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa sotsiologiya fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Jo'rayeva Ramziya Abdurahimovna Qo'qon davlat pedagogika instituti. Qo'qon, O'zbekiston filologiya fanlari fanlari doktori (PhD), katta o'qituvchi.

Fizika-matematika-fanlari muharriri Bobamuratov Ulug'bek Erkinovich Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa fanlari doktori, fizika-matematika-fanlari, Termiz, O'zbekiston.

**"YANGI O‘ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**
Volume 2, Issue 11, May 2024

Tibbiyot fanlari muharriri Axmedov Kamoliddin Xakimovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son davolash fakulteti dekani, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tibbiyot fanlari muharriri Vohidov Alisher Shavkatovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi va bolalar urologiyasi kafedrası mudiri Tibbiyot fanlari doktori, professor

Gumanitar fanlar muharriri Rahmonov Abduqahhor Abdusattorovich Ma’naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari, falsafa fanlari doktori (PhD)

**ЖАМИЯТ АЪЗОЛАРИ ОНГИДА ЭКОЛОГИК ТАФАККУРНИ
ШАКЛЛАНТИРИШ**

Мингбаев Рахим Хужаевич

Жиззах давлат

педогогика университети тадқиқотчиси

Аннотация: Ушбу мақолада жамият аъзолари онгида экологик тафаккурни шакллантириш, уларни экологик муносабатларнинг фаол иштирокчиси сифатидаги роли, экологик муносабатларда толерантлик тамойилининг аҳамияти ёритиб берилган. Ўзбекистонда халқаро экологик ижтимоий-сиёсий муносабатларни толерантлаштиришнинг ички ва ташқи омиллари хусусида баён қилинган.

Калит сўз: экология, экологик муносабат, экологик тафаккур, толерантлик, экологик вазиятни прогнозлаштириш, глобал муаммо.

Аннотация: В данной статье описывается формирование экологического мышления в сознании членов общества, их роль как активных участников экологических отношений, значение принципа толерантности в экологических отношениях. Описаны внутренние и внешние факторы толерантности международных экологических социально-политических отношений в Узбекистане.

Ключевые слова: экология, экологическое отношение, экологическое мышление, толерантность, прогнозирование экологической ситуации, глобальная проблема.

Abstract: This article describes the formation of environmental thinking in the consciousness of members of society, their role as active participants in environmental relations, the importance of the principle of tolerance in environmental relations. Internal and external factors of tolerance of international environmental socio-political relations in Uzbekistan are described.

Key words: ecology, environmental attitude, environmental thinking, tolerance, forecasting the environmental situation, global problem.

Жамият экологик муносабатларида, муайян ижтимоий онг шакли доминантлик ролига, функционал аҳамиятига қараб, инсон онгида толерантлик феноменини тарбиялашнинг педагогик-дидактик йўналишлари шаклланган ва функционал конкретлашмоқда. Бу жараёнда “экологик толерантликнинг самарадорлиги – жамиятда ҳукмрон: мифологик, диний, ахлоқий, эстетик ва илмий-оммавий онг

даражаларининг бир-бирига мос келишига боғлиқ”¹ бўлиб, толерантлик феноменининг интегратив-универал характерини намоён қилади.

“Табиат-жамият-инсон” тизимида инсонларнинг табиий атроф-муҳит муҳофазасига, ресурсларидан рационал фойдаланишга йўналтирилган ижтимоий фаолиятида, умумий маънода **табиатга экологик муносабат толерантлигини**, хусусий маънода – **табиатга экологик маданий муносабатини** тарбиялаш технологияси ва жараёнини комплекс-системали ўрганиш – глобал муаммолар ечимини топишда муҳим назарий-методологик ва амалий-праксиологик аҳамиятга эга.

Шахс онгида экологик толерантлик фазилатини шакллантириш ва уни “моддийлаштириш”: **бир томондан**, умуминсоний характерга эга универсал ижтимоий муаммо ҳисобланади. Лекин, **иккинчи томондан**, муайян индивид, шахс, ижтимоий бирлик ва миллатларнинг экологик эҳтиёжлари, мақсадлари, манфаатлари, маънавий-маданий ривожланиш даражалари индивидуаллиги, уларга дифференциаллашган ёндашувни тақозо қилади.

Бошқача қилиб айтганда, экологик фаолият субъектларининг эҳтиёжлари, манфаатлари, мақсадлари муқобиллиги ва индивидуаллиги, толерантлик тамойилга муносабатларида умумийликни истисно қилмайди, аксинча, уларни конкретлаштиради. Энг муҳими, экологик муаммоларнинг глобал кескинлашувининг олдини олиш ва оқибатларини бартараф қилишда толерантликнинг роли ҳақидаги илмий таълимотлар муқобиллиги ҳам, сиёсий ҳаракатлар стратегиясидаги фарқлар ҳам, мутлақо шартли ва нисбий характер касб этади².

Шу қонуниятга кўра, Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси илмий-тадқиқот институтлари, олий таълим тизими фаолиятида экологик толерантликни шакллантириш ва ривожлантиришда, уларнинг функциялари дифференциаллашуви кузатилади, яъни:

¹Айматов А.Қ. Шахснинг табиатга экоэстетик муносабатини шакллантириш масалалари. –Т.: “Фан ва технология”, 2017, 77-78 бетлар.

²Қаранг: Қўлдошев А. “Марказий Осиё давлатларида экологик муносабатларини бошқаришнинг демократик ва гуманистик тамойиллари” монография. Т.: “Фан” нашриёти. – 2014., 24-Б

табиатунослик фанлари: мамлакатда алоҳида муҳофаза этиладиган табиий ҳудудларнинг давлат кадастрини тузиш; йўқолиб кетиш эҳтимоли бўлган ўсимлик ва ҳайвон турларини аниқлаб, “Қизил китоб”ларини яратиш ва уларни муҳофаза қилишнинг илмий асосларини ишлаб чиқиш; табиатни ифлослантирувчи моддалар таркибини ва уларнинг тарқалиш ареалини аниқлаш;

техника ва технологияга оид фанлар: саноат ва маиший чиқиндиларни қайта ишлаш, утилизация қилиш корхоналари тармоғини ривожлантириш; ишлаб чиқариш соҳаларини жойлаштиришнинг оптимал экологик техник-технологик мезонларини белгилаш; яқин ва келажакда экологик вазиятнинг антропоген таъсир натижасида динамик ўзгаришларини прогнозлаштириш;

ҳуқуқунослик фанлари: экологик толерантликни шакллантириш учун зарур ҳуқуқий маконни яратиш, омманинг экологик ҳуқуқий онгини, маданиятини шакллантириш;

иқтисодий фанлар: экологик ва иқтисодий рентабелликни оширишнинг илмий асосларини яратиш; фуқароларга табиатни асраб-авайлаш, ресурсларидан омилкорлик билан фойдаланишга оид иқтисодий билимларни тарғиб-ташвиқ қилиш;

оммавий ахборот воситалари: экологияга оид журналлар, газеталар, илмий ишлар тўпламлари, ахборот бюллетенлари нашр этиш; ахборот трансформациясида Интернет тармоғини ривожлантириш; экологияга оид телекўрсатувларни ташкил этиш; рекламаларни жорий этиш; экологик билимларни, илмий тадқиқот натижаларини оммалаштиришни асосий мақсадга айлантириши керак.

Экологик толерантликни шакллантиришда **ижтимоий-гуманитар фанлар** тизими, таълим-тарбиянинг нисбатан мустақил институти ҳисобланиб: **биринчидан**, педагогик-дидактик усул-воситалар, замонавий технологиялар индивидларнинг **экологик ижтимоийлашувини**, уларнинг зарур “экологик сифатларини” ривожлантиришни таъминлайди; **иккинчидан**, таълим-тарбия, тарғибот-ташвиқот институтларининг интеграциялашган тизими – баркамол экологик шахс, комил инсон ривожланишига, уларнинг интеллектуал ўзлигини намоён қилишига хизмат қилади; **учинчидан**, ёшлар онгида экологик тарихий тақдир умумийлиги ҳиссини, ягона табиатга, глобал экологик жамиятга дахлдорлик ҳиссини, ватанпарварлик туйғусини шакллантиради; **тўртинчидан**, шахс интеллектуал салоҳиятини, маданий савиясини юксалтириб, жамиятда унинг ижтимоий-экологик мақомини мустаҳкамлайди;

бешинчидан, ёшларнинг илмий дунёқарашини, фуқаролик экологик позициясини қарор топтиришда муҳим аҳамиятга эга.

Бу ҳақда Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев 2016 йил 18 октябрь куни Ислом ҳамкорлик Ташкилотига аъзо давлатлар Ташқи ишлар вазирлари кенгашининг 43-сессиясида сўзлаган нутқида: «Дунё шиддат билан ўзгариб, барқарорлик ва халқларнинг мустақкам ривожланишига раҳна соладиган турли янги таҳдид ва хавфлар пайдо бўлаётган бугунги кунда: маънавият ва маърифатга, ахлоқий тарбия, ёшларнинг билим олиш, камолга етишга интилишига эътибор қаратиш ҳар қачонгидан ҳам муҳимдир»³, деб жамият тараққиётида маънавий-маърифий омиллар аҳамиятини алоҳида таъкидлади.

Шу кўрсатмага асосан, мамлакатни ривожлантиришнинг 2017-2021 йилларга мўлжалланган “Ҳаракатлар стратегияси”да белгиланган вазифалар – таълим-тарбия институтлари фаолиятини, экологик толерантликни таъминлаш нуқтаи назаридан ислоҳ қилишни чуқурлаштириб, уларнинг фаолиятини янада такомиллаштиришни тақозо қилмоқда. Хусусан, олий таълим тизими бакалаврлари, магистрантлари ва докторантлари учун экологиядан дарсликлар ва ўқув-услубий қўлланмаларнинг янги авлодини яратиш, ахборот-ресурс марказлари фаолиятини такомиллаштириш зарур.

Бу жараёнда энг асосий вазифалардан бири – фан соҳалари, таълим йўналишлари ва ишлаб чиқариш тармоқларини интеграциялаштиришдан иборат. Зеро, илмий-текшириш институтлари фан тараққиётининг асосий йўналишларини, хусусан, табиатшунослик, техника ва аниқ фанларнинг: ишлаб чиқаришни автоматлаштириш ва компьютерлаштириш, замонавий ахборот коммуникацияси, био ва нанотехнологиялардан фойдаланишга доир методологик тавсиялар, амалий таклифлар беради.

³Мирзиёев Ш.М. Тинчлик, маърифат ва бунёдкорлик йўлида ҳамкорлик. //Халқ Сўзи. 2016, 19 октябрь.

**CHET TILI O'QITUVCHILARINING EMOTSIONAL SOTSIAL
KOMPETENTLIGI OLIY TA'LIM MUHITI ZARURIY OMILI SIFATIDA**

Ataxo'jayeva Shaxlo Anvarovna

University of Business and Science

Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

+998947472424 shaxloataxujayeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola chet tili o'qituvchilarining emotsional-sotsial kompetentligini rivojlantirishning zaruriyligi va uning oliy ta'limdagi o'rini tahlil qiladi. Emotsional va sotsial kompetentlik chet tili o'qituvchilari uchun muhim hisoblanib, ta'lim jarayonida ijobiy muhit yaratishda va talabalarga sifatli bilim berishda asosiy omil sanaladi. Tadqiqot davomida chet tili o'qituvchilarining emotsional-sotsial kompetentligini rivojlantirish uchun oliy ta'lim muhitida qanday sharoitlar kerakligi aniqlanadi va bu sharoitlarning ta'lim samaradorligiga ta'siri o'rganiladi.

Kalit so'zlar: chet tili o'qituvchilari, emotsional kompetentlik, sotsial kompetentlik, oliy ta'lim, psixologik tahlil, ta'lim muhiti, pedagogik sharoitlar. Kirish. Bugungi kunda ta'lim jarayonida nafaqat bilim berish, balki o'qituvchilarning emotsional va sotsial kompetentliklarini ham rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chet tili o'qituvchilari uchun ushbu ko'nikmalar, talabalarga samarali dars berish va ularning ehtiyojlarini tushunish uchun zarurdir. Ushbu maqola chet tili o'qituvchilarining emotsional va sotsial kompetentligini oliy ta'lim muhitining zaruriy omili sifatida ko'rib chiqadi.

Adabiyotlar sharhi. Emotsional va sotsial kompetentlik bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar ko'plab xorijiy va milliy olimlarning diqqat markazida bo'lgan. D. Goleman va P. Salovey singari tadqiqotchilar emotsional intellektning ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan. O'zbekistonlik olimlar M. Mirzayev va Sh. To'laganova esa emotsional-sotsial kompetentlikning oliy ta'lim tizimida o'qituvchi va talaba munosabatlarini yaxshilashdagi ahamiyatini ko'rsatib o'tishgan. Tadqiqotda korrelyatsion tahlil usuli qo'llanilib, chet tili o'qituvchilarining emotsional-sotsial kompetentligi va ularning ta'lim

jarayonidagi samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi. O'qituvchilarning emotsional va sotsial kompetentliklari turli mezonlar bo'yicha baholanib, natijalar jadval ko'rinishida ifodalandi.

Muhokama va tahlillar. Quyida chet tili o'qituvchilarining emotsional-sotsial kompetentligining turli ko'nikmalarga ta'siri korrelyatsion tahlil yordamida ifodalangan.

Jadval 1. Chet tili o'qituvchilarining emotsional-sotsial kompetentligida turli ko'nikmalarning korrelyatsiyasi

Ko'nikma	O'zini anglash	Emotsional barqarorlik	Muloqot ko'nikmalari	Stressni boshqarish	Jamoada ishlash	Umumiy kompetentlik
Empatiya	$r = 0.45$	$r = 0.52$	$r = 0.55$	$r = 0.48$	$r = 0.50$	$r = 0.50$
O'zini boshqarish	$r = 0.50$	$r = 0.56$	$r = 0.53$	$r = 0.51$	$r = 0.49$	$r = 0.52$
Ijtimoiy mas'uliyat	$r = 0.42$	$r = 0.48$	$r = 0.51$	$r = 0.46$	$r = 0.47$	$r = 0.49$
O'quv motivatsiyasi	$r = 0.39$	$r = 0.44$	$r = 0.46$	$r = 0.41$	$r = 0.45$	$r = 0.44$

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'qituvchilarning emotsional-sotsial kompetentligi turli ko'nikmalar bilan yuqori bog'liqlikni ko'rsatadi. Ayniqsa, emotsional barqarorlik va muloqot ko'nikmalari o'qituvchilarning umumiy kompetentligiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu o'qituvchining emotsional holati va muloqot qobiliyati o'quv jarayoniga sezilarli ta'sir qilayotganini ko'rsatadi.

Stressni boshqarish ko'nikmasining o'zini anglash va o'zini boshqarish bilan yuqori korrelyatsiyada bo'lishi, o'qituvchilarning dars vaqtida stressni boshqarishlari ularning pedagogik mahoratiga bevosita ta'sir etishini tasdiqlaydi. Shuningdek, empatiyaning

o'qituvchilarning jamoada ishlash qobiliyatiga ta'sir ko'rsatishi ularning ijtimoiy munosabatlarda qanchalik muhimligini bildiradi.

Tadqiqot chet tili o'qituvchilarining o'zini anglash, o'zini boshqarish, emotsional barqarorlik, muloqot ko'nikmalari kabi mezonlar bo'yicha kompetentligini baholash maqsadida o'tkazildi. 50 nafar chet tili o'qituvchilaridan tashkil topgan guruhda mazkur kompetentliklar bo'yicha o'rtacha ballar olindi va yuqoridagi jadvalda keltirilgan korrelyatsiya natijalari asosida tahlil qilindi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, chet tili o'qituvchilarining emotsional va sotsial kompetentligini rivojlantirish ta'lim samaradorligini oshiradi. Oliy ta'lim muhitida o'qituvchilarning emotsional holati va ijtimoiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus treninglar va metodlar joriy etilishi lozim. Bu o'qituvchilarni motivatsiyalashga, talabalarga yaqinroq bo'lishga, shuningdek, ta'lim jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Goleman, D. *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. Bantam Books, 1995.
2. Salovey, P., & Mayer, J. D. *Emotional Intelligence. Imagination, Cognition, and Personality*, 1990.
3. Mirzayev, M., & To'laganova, Sh. *Pedagogik psixologiya asoslari*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi nashriyoti, 2018.
4. Rahmonov, A. *Ta'limda sotsial-emotsional ko'nikmalar va ularning ahamiyati*. Ta'lim va Innovatsiya, 2021.
5. Umirovich, A. O., & Anvarovna, A. S. (2023). Views of thinkers on issues of family and family relations. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 508-511.
6. Anvarovna, A. S. (2023). Constructions (models) of social intelligence in future English language teachers. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(4), 169-172.
7. Anvarovna, A. S. ., & Kahharova. (2024). SOCIAL-PSYCHOLOGICAL ADJUSTMENT OF FIRST YEAR UNIVERSITY STUDENTS. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 230–234

**OILADA MEHNAT MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI
TARBIYALASH METODIKASI**

Jamaldinov Sarvar Azimjanovich

University of Business and Science

Pedagogika va psixologiya kafedrası 2-bosqich magistranti

Annotatsiya Ushbu maqola oilada bolalarning mehnat motivatsiyasini rivojlantirish orqali tarbiyalashning metodikasini o'rganadi. Bolalarga mehnatning ahamiyatini anglatish va unga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish orqali ular mas'uliyat, intizom va irodani shakllantiradi. Tadqiqot davomida bolalarning mehnat motivatsiyasini oshirishning turli pedagogik usullari ko'rib chiqiladi va bu usullarning samaradorligi baholanadi.

Kalit so'zlar: mehnat motivatsiyasi, oilaviy tarbiya, bolalar, pedagogik metodika, mas'uliyat, intizom, psixologik tahlil, korrelyatsion jadval.

Kirish. Oila bolalarni tarbiyalashda eng muhim va birlamchi institut hisoblanadi. Ota-onalar tomonidan to'g'ri yo'naltirilgan tarbiya bolalarning kelajakdagi hayotida ularning mehnatsevar, mas'uliyatli va intizomli shaxslar bo'lib yetishishiga katta ta'sir qiladi. Mehnatga nisbatan to'g'ri munosabatni shakllantirish orqali bolalar o'zlariga nisbatan talabchanlik, maqsad sari intilish va mashaqqatlarni yengish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Ushbu maqolada oilada bolalarda mehnat motivatsiyasini rivojlantirish orqali ularni tarbiyalashning asosiy metodlari va shart-sharoitlari ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlar sharhi. Oilada mehnat motivatsiyasini rivojlantirish va bolalarga mehnatsevarlikni singdirish masalasi ko'plab xorijiy va milliy tadqiqotlarda o'z aksini topgan. Masalan, E. Erikson oilaning bolaning shaxsiy rivojlanishidagi rolini ta'kidlaydi va mehnatga qiziqishni shakllantirishni bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishning muhim qismi deb hisoblaydi. Shuningdek, J. Piaget bolalarning psixologik rivojlanish bosqichlarida mehnatning ahamiyatini anglash jarayoni qanday amalga oshishini o'rgangan. Milliy olimlar M. Qodirova va Sh. Alimovlar esa oilada mehnatsevarlikni tarbiyalashning pedagogik yondashuvlariga e'tibor qaratgan.

Muhokama va Tahlillar Tadqiqotda ota-onalar va bolalar orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari asosida korrelyatsion tahlil olib borildi. Tadqiqot ishtirokchilari turli yoshdagi bolalardan iborat bo'lib, ota-onalarning mehnatni qadrlashga qaratilgan pedagogik usullari va bolalarning bu boradagi javob reaksiyalari kuzatildi. Oilada bolalarning mehnat

motivatsiyasini oshirishning turli metodlari va ularning bolalar rivojlanishiga ta'siri quyidagi jadvalda ifodalangan.

Jadval 1. Oilada mehnat motivatsiyasini rivojlantirish metodlari ta'sirining korrelyatsion tahlili

Metod	Mas'uliyatlik	Intizomlilik	Ijodkorlik	Qiziqish darajasi	O'ziga ishonch	Umumiy natija
Kundalik vazifalarni taqsimlash	$r = 0.56$	$r = 0.52$	$r = 0.44$	$r = 0.48$	$r = 0.50$	$r = 0.50$
Uy yumushlariga jalb etish	$r = 0.60$	$r = 0.55$	$r = 0.47$	$r = 0.50$	$r = 0.52$	$r = 0.53$
Mehnatning ijobiy natijalarini ko'rsatish	$r = 0.58$	$r = 0.54$	$r = 0.49$	$r = 0.51$	$r = 0.56$	$r = 0.54$
Mukofotlash va rag'batlantirish	$r = 0.53$	$r = 0.50$	$r = 0.46$	$r = 0.47$	$r = 0.54$	$r = 0.50$

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, bolalarni kundalik yumushlarga jalb etish ularning mas'uliyatlik va intizomlilik ko'nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega ekan. Mehnat natijalarini ko'rsatish orqali bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchi oshiriladi, bu esa ularning o'z oldiga maqsad qo'yishga bo'lgan intilishini kuchaytiradi. Mukofotlash va rag'batlantirish usuli esa bolalarning mehnatga nisbatan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi, ammo bu usul ortiqcha qo'llanilsa, mehnatning asl qadrini tushunmaslik xavfini tug'diradi.

Tadqiqotda o'tkazilgan tajriba davomida ota-onalarga bolalarida mehnat motivatsiyasini oshirish uchun turli metodlardan foydalanish tavsiya etildi va bolalarning javob reaksiyalari kuzatildi. Natijalar asosida ota-onalarning pedagogik yondashuvlarining bolalarning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'siri kuzatildi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oilada bolalarning mehnat motivatsiyasini rivojlantirish ularni intizomli, mas'uliyatli va o'ziga ishonchi yuqori shaxs sifatida shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Kundalik uy vazifalari va uy yumushlariga jalb etish, mehnat natijalarini ko'rsatish va rag'batlantirish bolalarning mehnatsevarlik sifatlarini shakllantirishga yordam beradi. Shunday qilib, oilada mehnat motivatsiyasini rivojlantirish orqali bolalarning kelajakda ijtimoiy jihatdan yetuk, mas'uliyatli shaxs bo'lib shakllanishiga katta hissa qo'shiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jamaldinov , S. A. (2024). THE ROLE OF THE FAMILY IN FORMING ENTREPRENEURIAL MOTIVATION. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(4 SPECIAL), 404–409.
2. Azimjanovich, J. S. (2024). MAKTAB VA OILADA MEHNAT TA'LIMINI RIVOJLANTIRISH ORQALI TADBIRKORLIK MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISH. *IJTIMOYIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(1), 105-110.
3. 5.Umirovich, A. O., & Anvarovna, A. S. (2023). Views of thinkers on issues of family and family relations. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 508-511.
4. 6. Anvarovna, A. S. (2023). Constructions (models) of social intelligence in future English language teachers. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(4), 169-172.
5. Anvarovna, A. S. ., & Kahharova. (2024). SOCIAL-PSYCHOLOGICAL ADJUSTMENT OF FIRST YEAR UNIVERSITY STUDENTS. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 230–234

**Narkotik moddalar bo'yicha Birlashgan Millatlar tashkilotining 1961, 1971 va
1988-yilgi konvensiyalari: xalqaro huquqiy asos sifatida**

Abdusattorov Shahzod Abdumumin o'g'li

Annotatsiya

BMTning narkotik moddalar bo'yicha 1961, 1971 va 1988-yilgi konvensiyalarining xalqaro huquqiy asos sifatidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda konvensiyalarning paydo bo'lish tarixi, rivojlanish bosqichlari, asosiy tamoyillari va mexanizmlari o'rganilgan. Konvensiyalarning xalqaro huquq tizimidagi o'rni, ularning milliy qonunchilikka ta'siri va amaliy tatbiqi masalalari yoritilgan. Shuningdek, konvensiyalar doirasida xalqaro hamkorlikning huquqiy jihatlari, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish borasidagi xalqaro tajriba tahlil etilgan. Konvensiyalarning samaradorligini oshirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: BMT konvensiyalari, narkotik moddalar, xalqaro huquq, narkotrafik, xalqaro hamkorlik, huquqiy nazorat, psixotrop moddalar, xalqaro jinoyatchilik.

Narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi va iste'moli bugungi kunda global muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha 275 million kishi narkotik moddalar iste'mol qiladi, bu esa global aholining 5.5 foizini tashkil etadi. Narkotik moddalar bilan bog'liq jinoyatlar transmilliy uyushgan jinoyatchilikning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan. Mazkur global muammoga qarshi kurashishda xalqaro hamjamiyat tomonidan bir qator huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning eng muhimlari BMTning narkotik moddalar bo'yicha konvensiyalari hisoblanadi. 1961, 1971 va 1988-yilgi konvensiyalar xalqaro narkotik siyosatning huquqiy poydevorini tashkil etadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda yangi psixoaktiv moddalarning paydo bo'lishi, narkotiklarning internet orqali tarqatilishi, narkotik moddalar bilan bog'liq jinoyatlarning yangi shakllari paydo bo'lishi kabi muammolar konvensiyalar mexanizmlarini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shu bois, konvensiyalarning huquqiy tabiati, mexanizmlari va samaradorligini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

BMTning narkotik moddalar bo'yicha konvensiyalari xalqaro huquqning muhim manbalari sifatida e'tirof etiladi. 1961 yilgi Narkotik moddalar to'g'risidagi Yagona konvensiya narkotik moddalarning xalqaro nazoratini o'rnatishda fundamental ahamiyatga ega bo'ldi. Konvensiya narkotik moddalarning ro'yxatini shakllantirdi va ularni nazorat qilish

mexanizmlarini belgiladi. 1961-yilgi konvensiyaning asosiy yutuqlaridan biri narkotik moddalarni tibbiy va ilmiy maqsadlarda ishlab chiqarish, eksport-import qilish va taqsimlash tizimini yaratgani bo'ldi. Bu tizim doirasida davlatlar o'rtasida ma'lumot almashish, nazorat qilish va monitoring olib borish mexanizmlari joriy etildi. 1971-yilgi Psixotrop moddalar to'g'risidagi konvensiya psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish va ulardan foydalanishni nazorat qilishning huquqiy asoslarini yaratdi. Mazkur konvensiya doirasida psixotrop moddalarning ro'yxati shakllantirildi va ularni nazorat qilish mexanizmlari belgilandi. 1988-yilgi Narkotik moddalar va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya avvalgi ikki konvensiyani to'ldirib, narkotrafik va noqonuniy aylanishga qarshi kurashishning yanada samarali mexanizmlarini joriy etdi. Konvensiya jinoiy hamkorlik, huquqiy yordam ko'rsatish va jinoyat yo'li bilan topilgan mablag'larni musodara qilish kabi masalalarni tartibga soldi.

Konvensiyalarning xalqaro huquq tizimidagi o'rni quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi, konvensiyalar narkotik moddalar ustidan xalqaro nazoratning yaxlit tizimini shakllantirdi. Bu tizim doirasida xalqaro hamkorlikning turli jihatlari, jumladan ma'muriy, huquqiy, tibbiy va ijtimoiy sohalar qamrab olingan, konvensiyalar asosida tashkil etilgan Narkotik moddalar bo'yicha xalqaro nazorat kengashi (INCB) va BMT Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC) kabi xalqaro tuzilmalar samarali faoliyat yuritmoqda, konvensiyalar narkotik moddalar bilan bog'liq yangi tahdid va muammolarga qarshi kurashish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Yangi psixoaktiv moddalarning paydo bo'lishi, narkotiklarning internet orqali tarqatilishi va boshqa zamonaviy muammolar konvensiyalar doirasida hal etilmoqda.

Konvensiyalarning milliy qonunchilikka ta'siri ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'plab davlatlar o'z milliy qonunchiligini konvensiyalar talablariga moslashtirib, narkotik moddalar bilan bog'liq jinoyatlarni jinoiy qonunchilikda belgilab qo'ygan.

Konvensiyalar doirasidagi xalqaro hamkorlik masalalari alohida e'tiborga loyiq. Xalqaro hamkorlik quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda:

- Ma'lumot va tajriba almashish;
- Huquqni muhofaza qilish organlari o'rtasidagi hamkorlik;
- Huquqiy yordam ko'rsatish;
- Jinoyatchilarni topshirish;
- Jinoyat yo'li bilan topilgan mablag'larni musodara qilish.

Konvensiyalar mexanizmlarining samaradorligi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mavjud muammolar quyidagilardan iborat:

- Ba'zi davlatlarning konvensiyalar talablarini to'liq bajarmasligi;
- Milliy qonunchilikni konvensiyalar talablariga moslashtirish jarayonining sekinligi;
- Xalqaro hamkorlik mexanizmlarining samaradorligi yetarli darajada emasligi;
- Yangi psixoaktiv moddalarga qarshi kurashish mexanizmlarining yetarli emasligi.

BMTning narkotik moddalar bo'yicha 1961, 1971 va 1988-yilgi konvensiyalari xalqaro huquqiy tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida narkotik moddalar muomalasini nazorat qilish, noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish va ularning qonuniy tibbiy hamda ilmiy maqsadlarda foydalanishni tartibga solishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu konvensiyalar narkotik moddalar bilan bog'liq muammolarni hal etishda xalqaro hamjamiyatning birlashgan sa'y-harakatlarini mujassamlashtirgan holda, global miqyosda narkotiklar nazoratining huquqiy asoslarini yaratdi. 1961-yilgi Narkotik moddalar to'g'risidagi Yagona konvensiya narkotik moddalarning xalqaro nazoratini o'rnatishda fundamental ahamiyatga ega bo'lib, uning qoidalari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Konvensiya tomonidan o'rnatilgan narkotik moddalarni tibbiy va ilmiy maqsadlarda ishlab chiqarish, eksport-import qilish va taqsimlash tizimi samarali ishlashi uchun xalqaro hamkorlikning zarurligini ko'rsatdi. 1971-yilgi Psixotrop moddalar to'g'risidagi konvensiya psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish va ulardan foydalanishni nazorat qilishning huquqiy asoslarini yaratdi. Mazkur konvensiya doirasida psixotrop moddalarning ro'yxati shakllantirildi va ularni nazorat qilish mexanizmlari belgilandi, bu esa xalqaro miqyosda psixotrop moddalar ustidan nazoratni kuchaytirishga xizmat qildi. 1988-yilgi Narkotik moddalar va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya avvalgi ikki konvensiyani to'ldirib, narkotrafik va noqonuniy aylanishga qarshi kurashishning yanada samarali mexanizmlarini joriy etdi. Konvensiya jinoiy hamkorlik, huquqiy yordam ko'rsatish va jinoyat yo'li bilan topilgan mablag'larni musodara qilish kabi masalalarni tartibga soldi. Uch konvensiyaning birgalikdagi ahamiyati shundaki, ular narkotik moddalar ustidan xalqaro nazoratning yaxlit tizimini shakllantirdi. Bu tizim doirasida xalqaro hamkorlikning turli jihatlari, jumladan ma'muriy, huquqiy, tibbiy va ijtimoiy sohalar qamrab olingan.

Konvensiyalar asosida tashkil etilgan Narkotik moddalar bo'yicha xalqaro nazorat kengashi (INCB) va BMT Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC) kabi xalqaro tuzilmalar samarali faoliyat yuritmoqda. Konvensiyalarning zamonaviy ahamiyati shundaki, ular narkotik moddalar bilan bog'liq yangi tahdid va muammolarga qarshi kurashish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Yangi psixoaktiv moddalarning paydo bo'lishi, narkotiklarning internet orqali tarqatilishi va boshqa zamonaviy muammolar konvensiyalar doirasida hal etilmoqda. Shu bilan birga, konvensiyalarning ayrim qoidalari bugungi kun talablariga to'liq javob bermasligi ham kuzatilmoqda. Konvensiyalarning amaliy tatbiqi borasida bir qator muammolar mavjud. Jumladan, ba'zi davlatlarning konvensiyalar talablarini to'liq bajarmasligi, milliy qonunchilikni konvensiyalar talablariga moslashtirish jarayonining sekinligi, xalqaro hamkorlik mexanizmlarining samaradorligi yetarli darajada emasligi kabi muammolar kuzatilmoqda.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, BMTning narkotik moddalar bo'yicha konvensiyalari xalqaro huquqning muhim manbalari sifatida narkotik moddalar muomalasini tartibga solish va noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishda asosiy huquqiy baza bo'lib xizmat qilmoqda. Konvensiyalarning samaradorligini oshirish uchun milliy qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zarur. Konvensiyalarning kelajakdagi rivojlanishi uchun quyidagi yo'nalishlarni taklif etish mumkin, konvensiyalar qoidalarini zamonaviy talablarga moslashtirish, yangi psixoaktiv moddalar ustidan nazoratni kuchaytirish mexanizmlarini takomillashtirish, xalqaro hamkorlik mexanizmlarini yanada rivojlantirish, narkotik moddalar bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olish va profilaktika qilish choralarini kuchaytirish. Narkotik moddalar muammosi global xavfsizlikka tahdid soluvchi asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda. Shu bois, BMTning narkotik moddalar bo'yicha konvensiyalari doirasidagi xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish, konvensiyalar mexanizmlarining samaradorligini oshirish va zamonaviy talablarga moslashtirish borasidagi ishlarni davom ettirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boister, N. (2016). *An Introduction to Transnational Criminal Law*. Oxford University Press.
2. Bewley-Taylor, D., & Jelsma, M. (2012). *The UN drug control conventions: The limits of latitude*. Transnational Institute Series on Legislative Reform of Drug Policies.
3. Krajewski, K. (2019). *International Drug Control Law*. In *Research Handbook on International Drug Policy*. Edward Elgar Publishing.
4. Room, R., & Reuter, P. (2012). How well do international drug conventions protect public health? *The Lancet*, 379(9810), 84-91.
5. United Nations Office on Drugs and Crime. (2020). *World Drug Report 2020*. United Nations publication.
6. Jelsma, M. (2019). UN Common Position on drug policy: Consolidating system-wide coherence. *International Journal of Drug Policy*, 74, 29-39.
7. McAllister, W. B. (2000). *Drug Diplomacy in the Twentieth Century: An International History*. Routledge.
8. Sinha, J. (2001). *The history and development of the leading international drug control conventions*. Canadian Parliament Research Branch.
9. Collins, J. (2020). A Brief History of Cannabis and the Drug Conventions. *American Journal of International Law*, 114(2), 279-284.
10. Babor, T. F., Caulkins, J. P., & Edwards, G. (2018). *Drug Policy and the Public Good*. Oxford University Press.

PSYCHOLOGICAL IMPACTS IN INCLUSIVE EDUCATION

Nodira Normamatovna Himmatova,

**English language teacher at the Department of Uzbek and Foreign Languages,
Termiz Branch of Tashkent Medical Academy nodira.yoqut@gmail.com**

Abstract: Inclusive education, which integrates students with disabilities into mainstream classrooms, has profound psychological effects on all participants—students with disabilities, their peers, and educators. This article explores these impacts in depth, focusing on areas such as self-esteem, social acceptance, anxiety, stress, and emotional resilience. Utilizing a mixed-methods approach, this research analyzes quantitative data gathered from surveys and qualitative insights from focus groups, revealing both positive outcomes and challenges. Findings suggest that while inclusive education enhances empathy and social skills, it can also increase anxiety if adequate support systems are lacking. Recommendations are offered to address these challenges and optimize the psychological benefits of inclusion.

Keywords: Inclusive education, psychological impacts, self-esteem, anxiety, social inclusion, resilience, peer relationships.

Introduction: Inclusive education seeks to provide equal learning opportunities by incorporating students with disabilities into mainstream educational settings. The shift towards inclusion has grown globally due to changes in educational policies and societal attitudes. Understanding the psychological impacts of inclusive education is crucial, as it directly affects students' learning experiences, emotional well-being, and social relationships. This study investigates the psychological implications of inclusive education, aiming to identify both the positive and negative effects on students, their peers, and educators.

Methods: This study utilized a mixed-methods approach to obtain a comprehensive view of the psychological impacts in inclusive settings. Quantitative data were collected via surveys from 300 students, 150 parents, and 100 teachers across multiple inclusive schools. These surveys measured self-esteem, anxiety, social integration, and emotional well-being. Additionally, 15 focus group discussions were conducted with students, teachers, and parents to gather qualitative insights. Quantitative data were analyzed using statistical software, while thematic analysis was applied to qualitative data to identify key patterns and themes.

Results:

1. Impact on Self-Esteem

Inclusive education positively influences the self-esteem of student's with disabilities, who report feeling more accepted and valued. Among surveyed students with disabilities, 78% experienced a boost in self-confidence after joining inclusive classrooms. However, some students initially struggled with self-comparison, feeling inadequate compared to their peers, which suggests a need for supportive interventions.

2. Social Acceptance and Peer Relationships

The study found that inclusive education improves social acceptance, helping students without disabilities develop empathy and respect for diversity. However, 35% of students without disabilities reported feeling uncertain about interacting with their peers with disabilities, indicating a need for peer education programs. Social bonds between all students increased over time, but the quality of these relationships varied depending on teacher involvement and classroom culture.

3. Anxiety and Stress

While inclusive settings provide social integration, they can also increase anxiety for both students with and without disabilities. This is often due to performance pressure and fear of social rejection. Students with disabilities, in particular, expressed concerns about keeping up with academic expectations, with 46% indicating higher anxiety levels in comparison to traditional, segregated settings. Teachers also reported stress due to the additional responsibilities involved in managing a diverse classroom.

4. Emotional Resilience and Adaptation

Over time, students in inclusive settings demonstrated improved emotional resilience, as they adapted to diverse social interactions. Students learned to handle conflict, develop empathy, and support each other, fostering an emotionally resilient environment. Teachers observed that students with disabilities became more adaptive and resourceful, though this growth required continuous emotional support.

5. Teachers' Perspectives and Preparedness

A significant finding was that many teachers felt inadequately prepared to address the complex emotional needs of inclusive classrooms. Only 40% of teachers received training in inclusive education practices, which limited their effectiveness in managing psychological issues. Teachers noted that professional development in psychology and special education is crucial for sustaining positive outcomes in inclusive environments.

Discussion: The findings indicate that inclusive education benefits students' social skills and self-esteem, while also presenting challenges like increased anxiety and stress. Effective inclusion requires a supportive framework involving trained educators, peer education, and mental health resources. The mixed experiences highlight the importance of professional development for teachers and structured interventions to support students. Inclusive education can be beneficial for all participants if carefully managed, emphasizing the need for policies that prioritize mental health in educational reforms.

Conclusion: Inclusive education has a profound psychological impact on students, fostering social acceptance and resilience while also posing challenges such as anxiety and stress. To maximize the benefits, schools must ensure a supportive environment that includes training for educators, accessible mental health resources, and programs to promote peer acceptance. Inclusive education is a valuable goal that, with proper implementation, can contribute to the emotional and social development of all students involved.

References:

1. Armstrong, D., Armstrong, A. C., & Spandagou, I. (2010). *Inclusive Education: International Policy and Practice*. SAGE Publications.
2. Avramidis, E., & Norwich, B. (2002). Teachers' Attitudes Towards Integration/Inclusion: A Review of the Literature. *European Journal of Special Needs Education*, 17(2), 129-147.
3. Florian, L. (2008). Inclusion: Special or Inclusive Education: Future Trends. *British Journal of Special Education*, 35(4), 202-208.
4. Frederickson, N., & Cline, T. (2015). *Special Educational Needs, Inclusion and Diversity* (3rd ed.). McGraw-Hill Education.
5. Lindsay, G. (2007). Educational Psychology and the Effectiveness of Inclusive Education/Mainstreaming. *British Journal of Educational Psychology*, 77(1), 1-24.
6. Mittler, P. (2000). *Working Towards Inclusive Education: Social Contexts*. Routledge.
7. Oliver, M. (1990). *The Politics of Disablement*. Macmillan Education.
8. Slee, R. (2011). *The Irregular School: Exclusion, Schooling and Inclusive Education*. Routledge.
9. UNESCO. (2009). *Inclusive Education: The Way of the Future*. Paris: UNESCO.
10. United Nations. (2006). *Convention on the Rights of Persons with Disabilities*.

IMPLEMENTING PRAGMATIC TRANSLATION TECHNIQUES TO ENHANCE PROFESSIONAL COMPETENCE IN ENGLISH-UZBEK TRANSLATION STUDENTS

Karina Khusainova – researcher

E-mail: Husainovakarina67@gmail.com

Contact number: 998932476565

Annotation. This article explores the implementation of pragmatic translation techniques to enhance professional competence among English-Uzbek translation students. Pragmatic translation goes beyond literal meaning, requiring students to understand cultural nuances, contextual implications, and idiomatic expressions to achieve accurate and contextually appropriate translations. Given the cultural and linguistic differences between English and Uzbek, students need to acquire skills that allow them to adapt meaning effectively across contexts. The article discusses various techniques, such as analyzing speech acts, handling implicit meanings, and adapting idiomatic language, to improve students' professional competence. By integrating practical exercises, case studies, and peer-reviewed translations, the study demonstrates how these techniques can be embedded into translation curricula. The findings suggest that a focus on pragmatic translation not only increases students' awareness of cross-cultural nuances but also enhances their ability to produce culturally relevant translations. This approach contributes to a deeper understanding of pragmatic translation, making students better equipped for professional roles in the translation field.

Keywords: Pragmatic translation, professional competence, translation education, cultural adaptation, idiomatic expressions, cross-cultural nuances, contextual implications.

Introduction. In the field of translation studies, pragmatic competence has become increasingly recognized as a key component of professional competence, especially for students translating between culturally and linguistically distinct languages such as English and Uzbek. Pragmatic competence extends beyond linguistic accuracy, encompassing an understanding of how language operates within specific cultural contexts. It involves interpreting not only words but also the social, cultural, and contextual cues that influence meaning, such as idiomatic expressions, tone, implicit meanings, and the intended impact on the audience. This competence is especially challenging for translation students working with

the English-Uzbek language pair due to the differences in linguistic structure, cultural references, and idiomatic language between the two languages.

While English is often associated with global communication and carries influences from diverse cultures, Uzbek is deeply rooted in the cultural and historical context of Central Asia, with expressions and references unique to the region¹. To develop pragmatic competence in translation students, educators must go beyond traditional approaches that emphasize lexical and grammatical accuracy. Instead, they need to incorporate techniques that foster an understanding of cross-cultural nuances and the ability to adapt meaning effectively across contexts. Pragmatic translation techniques, such as analyzing speech acts, managing implicit information, and adapting idiomatic language, can play a critical role in equipping students with the skills they need to bridge cultural gaps in translation. These techniques require students to think critically about language use, question literal interpretations, and make decisions that honour the intent of the source text while resonating with the target culture.

The implementation of these techniques in translation curricula is essential for fostering professional competence among students². By focusing on pragmatic translation, educators can prepare students for real-world translation tasks that demand a high level of cultural sensitivity and contextual awareness. Integrating practical exercises, case studies, and peer-reviewed translation activities into the curriculum enables students to apply pragmatic techniques in simulated professional settings, enhancing their confidence and adaptability. This article explores the challenges and strategies associated with implementing pragmatic translation techniques in the education of English-Uzbek translation students. Through case studies and practical examples, it highlights how these techniques contribute to the development of professional competence by enhancing students' awareness of cross-cultural nuances and improving their ability to produce accurate and culturally relevant translations.

Ultimately, this approach not only benefits students but also advances the field of translation studies by promoting a deeper, more nuanced understanding of the pragmatic

¹ Baker M. (2018). In *Other Words: A Coursebook on Translation* (3rd ed.). Routledge. See Chapter 7, "Pragmatic Equivalence," pp. 227–270.

² Bell R. T. (1991). *Translation and Translating: Theory and Practice*. Longman. Chapter 5, "Text and Pragmatics," pp. 97–120.

aspects of language. Implementing pragmatic translation techniques is essential for developing professional competence among English-Uzbek translation students, as it prepares them to navigate the complex linguistic and cultural challenges involved in translating between these two distinct languages³. This section explores the main challenges faced by students, discusses the key pragmatic techniques that can address these challenges, and presents case studies illustrating the practical application of these techniques. For English-Uzbek translation students, the path to acquiring pragmatic competence is often fraught with challenges rooted in cultural and linguistic differences. English and Uzbek differ not only in terms of vocabulary and syntax but also in the ways they convey tone, implicature, and cultural references. English, as an international language, is rich in idiomatic expressions and diverse dialects, which may carry meanings that are either untranslatable or difficult to convey accurately in Uzbek.

Conversely, Uzbek has culturally specific expressions and a formal, context-driven use of language that can be challenging for students to capture in English. For instance, Uzbek idiomatic expressions or formal salutations that carry social meaning often lack direct English equivalents, requiring students to interpret and adapt these elements to maintain the original message's intent⁴. Additionally, students often struggle with the implicit meanings present in many English phrases, such as those that imply humor, irony, or politeness. English may use indirect language to soften requests or express opinions, while Uzbek is often more direct, relying on respectful tone and formal address to convey politeness. Without a strong grounding in pragmatic translation, students may overlook these subtleties, resulting in translations that seem awkward or culturally inappropriate. Therefore, it is essential that translation students develop a skill set that allows them to identify these elements and adapt them effectively for the target language and culture. Several pragmatic translation techniques can be employed to help students address these challenges and build their professional

³ Hatim B., & Mason I. (1997). *The Translator as Communicator*. Routledge. Chapter 3, "Pragmatics and the Translator," pp. 58–77.

⁴ House J. (2015). *Translation Quality Assessment: Past and Present*. Routledge. Chapter 4, "Pragmatic Aspects of Translation Quality," pp. 89–112.

competence⁵. Key techniques include the use of speech act analysis, handling implicatures, managing politeness and formality levels, and adapting idiomatic expressions.

1. Speech act analysis: Speech act analysis helps students identify the function of a statement beyond its literal meaning. For example, a sentence like "Could you pass the salt?" is not merely a question but a polite request. Understanding the intended function allows students to adapt the sentence in a way that makes sense in the target language. In English-Uzbek translation, this might mean choosing an equivalent that conveys the appropriate level of politeness or formality, depending on the context. By analyzing speech acts, students gain insight into how different types of communication work within each culture, allowing for more nuanced translations.

2. Handling implicatures: Implicatures involve meanings that are implied rather than directly stated. English frequently uses implicature to convey subtlety, humor, or criticism. For example, the phrase "It's getting late" can imply a suggestion to leave. Translating such implicatures requires students to be sensitive to context and intent, as a literal translation could lead to misunderstandings. Instructors can use exercises where students identify and interpret implicatures in English texts, then choose appropriate phrases in Uzbek that convey the intended message. This process trains students to think critically about context and encourages them to go beyond word-for-word translation.

3. Managing politeness and formality: Cultural differences in expressions of politeness and formality can significantly impact translation. English often uses polite forms indirectly, whereas Uzbek incorporates more explicit markers of respect. For instance, English requests are commonly softened by conditional language or vague expressions, such as "I was wondering if you could..." In Uzbek, politeness is achieved through formal language and culturally respectful greetings. Teaching students to manage these distinctions is essential, as it ensures translations that feel natural and culturally appropriate. Role-playing exercises, where students practice translating dialogues with varying levels of formality, can help them understand how to maintain politeness across languages.

4. Adapting idiomatic language: Idiomatic expressions pose a unique challenge in translation. Common English idioms, such as "hit the nail on the head" or "spill the beans," often have no direct Uzbek equivalent, and vice versa. To translate idioms effectively, students must understand their meaning in the source language and then find a comparable

⁵ Kecskes I. (2014). *Intercultural Pragmatics*. Oxford University Press. Chapter 6, "Pragmatic Competence," pp. 145–170.

expression in the target language, even if it involves rephrasing. Comparative analysis exercises are useful in helping students explore idiomatic expressions across languages, equipping them with strategies to adapt language in ways that preserve meaning and cultural relevance.

Implementing these techniques in real-world scenarios helps students apply their skills in professional contexts, enhancing their pragmatic competence. Below are two case studies illustrating the application of pragmatic techniques in English-Uzbek translation. In translating English media articles about cultural events or holidays, students encounter references and expressions that may be unfamiliar to Uzbek readers. For example, an article discussing Thanksgiving in the United States might include expressions like "gathering around the table" or "giving thanks," which carry specific cultural connotations⁶. Students need to adapt these references in a way that resonates with Uzbek audiences while preserving the essence of the original message. Instructors can guide students to replace unfamiliar expressions with culturally relevant ones, such as referencing family gatherings or expressions of gratitude that are common in Uzbek culture. This approach helps students develop cultural sensitivity and the ability to contextualize translations. In translating speeches or government statements, students must maintain the tone and formality appropriate for official communication. For instance, when translating an English diplomatic statement into Uzbek, the translator must ensure that the language conveys the same level of respect and decorum. This requires choosing formal terms, avoiding colloquialisms, and occasionally restructuring sentences for clarity.

Exercises involving translations of diplomatic speeches can reinforce students' skills in managing formality and tone, helping them produce professional, culturally attuned translations. Assessing students' progress in pragmatic competence involves evaluating their ability to adapt translations based on context, tone, and cultural nuances. Assessment methods such as error analysis, where students review translations for pragmatic accuracy, and peer feedback sessions can be highly effective. By discussing each other's translations, students gain insights into alternative approaches and recognize areas for improvement⁷. Instructors

⁶ Newmark P. (1988). *A Textbook of Translation*. Prentice Hall. Chapter 10, "The Translation of Pragmatic Texts," pp. 39–44.

⁷ Nord C. (2005). *Text Analysis in Translation: Theory, Methodology, and Didactic Application of a Model for Translation-Oriented Text Analysis*. Rodopi. Chapter 5, "Pragmatic Analysis," pp. 135–160.

can also provide targeted feedback on students' handling of politeness, formality, and idiomatic language to help them refine their skills further.

The implementation of pragmatic translation techniques is vital for developing professional competence in English-Uzbek translation students. By focusing on speech acts, implicatures, politeness, and idiomatic expressions, educators can equip students with the tools they need to bridge cultural gaps and convey messages accurately across contexts. Through real-world case studies and practical exercises, students gain confidence in adapting language to meet the demands of both the source and target cultures. This focus on pragmatic competence not only enhances students' readiness for professional roles but also promotes a more nuanced approach to translation, contributing to culturally aware and contextually appropriate translation practices.

Conclusion. The development of pragmatic competence is essential for preparing English-Uzbek translation students to handle the complexities of real-world translation tasks. Pragmatic competence enables students to go beyond literal word-for-word translation, allowing them to interpret and convey cultural nuances, idiomatic expressions, politeness levels, and contextual meanings that are crucial in professional settings. By mastering pragmatic translation techniques such as speech act analysis, handling implicatures, managing politeness, and adapting idiomatic language, students can bridge linguistic and cultural gaps, ensuring their translations are accurate and culturally sensitive.

Practical exercises and case studies focused on real-world translation scenarios are invaluable tools in this educational approach. They provide students with hands-on experience in applying pragmatic techniques, helping them understand the importance of cultural and contextual adaptation. Assessment methods, such as error analysis and peer feedback, further reinforce learning, enabling students to refine their skills and become more adaptable translators. By focusing on pragmatic competence, translation programs can produce professionals who are not only skilled in language but also sensitive to cultural differences and audience expectations. This approach not only enhances students' employability but also enriches the field of translation, promoting the production of translations that respect and accurately represent the nuances of both source and target languages. In an increasingly interconnected world, pragmatic competence remains a vital asset for translators working across diverse languages and cultures.

REFERENCES:

1. Baker M. (2018). In Other Words: A Coursebook on Translation (3rd ed.). Routledge. See Chapter 7, "Pragmatic Equivalence," pp. 227–270.
2. Bell R. T. (1991). Translation and Translating: Theory and Practice. Longman. Chapter 5, "Text and Pragmatics," pp. 97–120.
3. Hatim B., & Mason I. (1997). The Translator as Communicator. Routledge. Chapter 3, "Pragmatics and the Translator," pp. 58–77.
4. House J. (2015). Translation Quality Assessment: Past and Present. Routledge. Chapter 4, "Pragmatic Aspects of Translation Quality," pp. 89–112.
5. Kecskes I. (2014). Intercultural Pragmatics. Oxford University Press. Chapter 6, "Pragmatic Competence," pp. 145–170.
6. Newmark P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall. Chapter 10, "The Translation of Pragmatic Texts," pp. 39–44.
7. Nord C. (2005). Text Analysis in Translation: Theory, Methodology, and Didactic Application of a Model for Translation-Oriented Text Analysis. Rodopi. Chapter 5, "Pragmatic Analysis," pp. 135–160.

TIJORAT BANKLARI XAVFSIZLIGIGA TAHDIDLARNING IQTISODIY MAZMUNI-MOHIYATI

Akbarov Behzodhon Ulug`bek o`g`li

i.f.f.d. (PhD), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

Jahonda o'zining hajmi, ko'lami va ta'siri jihatidan 2007–2009-yillardagi Buyuk moliyaviy inqiroz bilan taqqoslash mumkin bo'lgan Covid-19 pandemiyasi global iqtisodiyot va uning barcha quyi tizimlari, shu jumladan, bank tizimi uchun yangi muammo sifatida namoyon bo'ldi. Natijada, uzoq muddatli reyting prognozlarini ko'plab, ayniqsa past rentabellikka ega bo'lgan banklar uchun salbiy bahoga qayta ko'rib chiqildi. Buning asorati 2023-yilda ham kuzatilmoqda, xususan "AQShdagi tijorat banklarida bank kreditidagi qimmatli qog'ozlar 2023-yil sentyabrda 8,2 birlikka, boshqa qimmatli qog'ozlar ham shu davrda 44,1 foizga kamayganligi" tijorat banklari moliyaviy xavfsizligi bo'yicha muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa tijorat banklari moliyaviy xavfsizligini ta'minlash amaliyotini takomillashtirish masalalarining dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Jahonda tijorat banklarida moliyaviy jinoyatlar, kiberjinoyatlar, darknet orqali amalga oshirilgan jinoyat yoki firibgarlikni aniqlash uslubiyotini takomillashtirish asosida moliyaviy xavfsizligini ta'minlash yo'nalishlarida qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tijorat banklari moliyaviy xavfsizligiga ta'sir etuvchi yangi shakl va mazmundagi tahdidlarni aniqlash, tijorat banklari moliyaviy xavfsizligini baholash uslubiyotini takomillashtirish, bu borada ta'sir etuvchi omillar tavsifini to'liq namoyon etuvchi ekonometrik modellarni ishlab chiqish, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda sud ekspertizasidan foydalanish, naqd pul oqimiga oid jinoyatlarni oldini olishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Ma'lumki bugungi kunda u yoki bu shaklda o'zining xavfsizlik kontseptsiyasiga ega bo'lmagan bank deyarli uchramaydi. Biroq, ushbu hujjatlarni o'rganish natijalari ularni ishlab chiqish sifati turlicha ekanligini ko'rsatmoqda. Ularning ayrimlarida metodologik nuqtai nazaridan jiddiy xatoliklar mavjud.

Amaldagi qonunchilikdan va boshqa normativ huquqiy hujjatlardan, kriminalistika sohasidagi ilmiy ishlardan hamda tijorat banklari xavfsizligini ta'minlash bo'yicha amaliy faoliyat natijalaridan kelib chiqadigan masalalarni o'rganish yakuni yuzasidan mualliflar

shunday xulosaga keldiki, kontsepsiyani ishlab chiquvchilar, eng avvalo, bank xavfsizligi mazmun-mohiyati va tuzilmasi to'g'risida aniq tushunchaga ega bo'lishi kerak. Kontseptual darajada hal etilishi lozim bo'lgan ikkinchi yo'nalish bu – bank sohasida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha maqsadlarni, ushbu maqsadlardan kelib chiqadigan amaliy vazifalarni tizimlashtirish, bank xatarlari va ularning manbalarini aniq belgilab olish. Kontsepsiyaning uchinchi asosiy bo'limi turli yo'nalish, shakl va darajadagi bank xatarlariga nisbatan munosib qarshi kurash choralari tizimini ishlab chiqishga bag'ishlangan bo'lishi kerak.

Taniqli xorijiy olimlar E.J.Dolan, R.L.Myutler, P.S.Rouz, J.F.Sink, J.K.Van Xorn va Y bank xavfsizligiga katta e'tibor qaratganlar. MDH olimlari tadqiqotlar tomonidan moliyaviy xavfsizlik masalalari A.N.Moroz, M.I.Savluk, O.D.Zaruba, Бадаева О.Н., Цупко Е.В. [3], Бугель Ю. [4], Khmeliuk A.A. [5] kabi ko'zga ko'ringan olimlar tomonidan ko'rib chiqildi – moliyaviy menejment muammolari va bank operatsiyalarini tahlil qilishda, boshqa bir guruh olimlar K.Raevskiy, R.I.Shiller, V. P.Panteleev, S.P.Halava moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashga rentabellik, likvidlik, to'lov qobiliyati va faoliyat natijalarini tahlil qilish, moliyaviy hisobotlar, bankning moliyaviy holatini baholash yondashuvlarni ilgari surishgan.

Bank xavfsizligi kontsepsiyalarini o'rganib chiqish davomida quyidagi ikkita asosiy kamchilikka e'tibor qaratish lozim: Birinchisi – ro'yxatning to'liq emasligi. Ikkinchisi – xavfni tur va shakl belgilari bo'yicha tasniflashdagi noaniqliklar.

Bank duch kelishi mumkin bo'lgan xavflarni tavsiflash har bir xavfning individual o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish hamda xavf-xatar va bank tuzilmasining himoya qilinishi lozim bo'lgan elementlari o'rtasidagi aloqa va munosabatlarni to'liq ta'riflash imkonini beradi.

Kontseptual jihatdan bank xavf-xatarlarni tadqiq qilish bankka bo'ladigan tajovuzlarning manbalari va ularni amalga oshirish mexanizmlari to'g'risida kengroq tasavvurga ega bo'lish, shuningdek, bank himoyasini tashkil qilishda olingan axborotlardan yanada samaraliroq foydalanish maqsadida o'tkaziladi.

“Inson faoliyati” va “xavfsizlik” tushunchalari o'rtasidagi bog'liqlik haqidagi tasavvur ilgari shakllangan ilmiy qarashlar va kundalik bilimlarga zid emas. Inson faoliyati tizimidagi xavfsizlikning o'rni “faoliyat” tushunchasini tizimlashtirish jarayonida aniq namoyon bo'ladi. Ikkinchisi, ma'lumki, insonning (jamoaning, tashkilotning) faol xatti-harakatlarining o'ziga xos shakli bo'lib, maqsad, vosita, natija va jarayonning o'zini o'z ichiga oladi. Shu

bilan birga, faoliyatni baholash uning axloqiy yo'nalishi va qonun normalariga muvofiqligini hisobga olgan holda beriladi.[1]

Iqtisodiyot fani va bank amaliyotida bank va uning aniq bir operatsiyalarini potentsial xavf manbalaridan himoya qilish darajasini tavsiflash uchun "xavf" tushunchasining ajralmas elementi (davomi) bo'lgan "tavakkalchilik" atamasi qo'llaniladi. Tavakkalchilik yoki tavakkalchilik darajasi xavfli hodisaning yuzaga kelish ehtimoli va uning oqibatlarining jiddiyligini o'zida aks ettiradi.

Bank xavfsizligiga jinoiy tajovuzlarning mazmuni va turlarini o'rganish himoya choralari ishlab chiqishning ajralmas qismi hisoblanadi. "Bank xavfsizligi" tushunchasidan va jinoiy tajovuzlar ob'ekti sifatida bankning kriminalistik modelini o'rganish natijasida olingan ma'lumotlar umuman bank va uning individual operatsiyalari uchun xavf tug'diradigan tahdidlarning tizimli tavsifini ishlab chiqishning mantiqiy zarurligini ko'rsatmoqda.

"Xavf", "bank xavfsizligi", "Bankning jinoiy tajovuzlar ob'ekti sifatidagi kriminalistik modeli" tushunchalari bilan bank duch keladigan jinoiy tajovuz turlari o'rtasidagi genetik bog'liqlik yaqqol ko'zga tashlanadi. Buni "inson faoliyati" va "bank faoliyati" tayanch elementi yordamida tasdiqlovchi mantiqiy tuzilmalar oldingi bandlarda keltirilgan. Kriminalistika nuqtai nazaridan, bank xavfsizligiga jinoiy tajovuzlarning tizimli tavsifi xavfsizlik tahdidlarining turlarini, ularning tuzilishini, shuningdek, jinoiy tajovuzlarning ob'ektlari, tahdidlar va tuzilmaning boshqa elementlari o'rtasidagi aloqalar va munosabatlarni tasniflash imkonini beradigan o'ziga xos kriminalistik modeldir. Ushbu tajovuzlarning xususiyati va turlari to'g'risida aniq tasavvurning mavjudligi ularni kriminalistik aniqlash, oldini olish va tekshirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar tizimini yaratishga imkon beradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tahdidlarning o'ziga xos xususiyatlarini umumiy shaklda qayd etish uchun to'rtta boshlang'ich guruh yetarli bo'ladi. Kelajakda ushbu guruhlar har biri va ularning alohida kichik turlarini amaliy ehtiyojlarga muvofiq ketma-ket bo'lish imkoniyati mavjud. Mazkur tizimlashtirish tahdidlarni ularning faoliyat ob'ekti (tahdid ob'ekti); tahdidlar usuli (amalga oshirish mexanizmi); tahdidlarni amalga oshirishda ishtirok etgan shaxslar; shaxslarning tahdidlarni amalga oshirishga munosabati; tahdidlarni amalga oshirish oqibatlari bo'yicha birlashtirishga asoslanadi.

Yuqorida keltirilgan qarashlarga muvofiq, "tahdid" tushunchasi xavf tushunchasining ajralmas elementi (davomi) hisoblanadi. Shakllanib qolgan tasavvurlarga ko'ra, "xavf"

odatda muqarrar zarar manbai sifatida tushuniladi. Bizning holatimizda esa xavf manbai shaxslarning bank manfaatlariga zarar yetkazuvchi harakatlari (harakat tahdidi) sanaladi. "Tahdid", o'z navbatida, zararining boshlanishiga olib keladigan xavfli hodisaning ehtimollik darajasi va zararining o'zining ehtimollik darajasining hosilasidir.

Bank tahdidlarining tizimli xarakteristikasini ishlab chiqishning asosiy natijasi haqiqiy vaziyatda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan tahdidlarga xos bo'lgan munosabatlarning o'ziga xos holatlarini aks ettiruvchi umumlashtirilgan modelni tuzishdir.[2]

Yuqorida sanab o'tilgan bank tahdidlarining tizimli xususiyatlarining elementlari boshlang'ich bo'lib, ular qo'llanishiga qarab, bank duch keladigan potentsial tahdidlar va real vaziyatlar o'rtasidagi deyarli barcha turdagi aloqalar va munosabatlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Bankning faoliyat turlariga nisbatan tahdidlarning tasnifi.

"Bank faoliyatiga tahdidlar" tushunchasi deganda, birinchi navbatda, bank faoliyatini yaxlit, shu jumladan, uning alohida sohalarini tashkil etish nazarda tutiladi. Bankni jinoiy tajovuzlar ko'rinishidagi tahdidlardan kriminalistik himoya qilishni tashkil etish nuqta nazaridan uning faoliyatini bank operatsiyalarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi "operatsion" hamda bank operatsiyalari bilan bevosita bog'liq bo'lmagan "operatsiyadan tashqari" faoliyatga ajratish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, aksariyat hollarda ushbu operatsiyalarni amalga oshirish tartibini buzishning asosiy maqsadi ushbu bank operatsiyalarida ishlatiladigan pul mablag'larini jinoiy ravishda o'zlashtirishdir. Pul mablag'lariga nisbatan jinoiy tajovuzlarning xususiyati (sodir etish usullari) va tarqalishi ular qo'llanadigan bank faoliyati turiga (va ular bank aktivlari tarkibining qaysi elementlarida ajratilganligiga) bog'liq bo'ladi. Tarqatish darajasi bo'yicha bankning operatsion faoliyatiga tahdidlarni yanada tizimlashtirish muayyan kichik turlarga birlashtirilgan bank xavfsizligiga tajovuz guruhlarini aniqlash imkonini beradi, masalan: "bankning kredit faoliyati sohasidagi tahdidlar", "hisob-kitob va kassa xizmatlari sohasidagi tahdidlar" va boshqalar.

Bank operatsion faoliyatining kichik turlari nafaqat bank operatsiyalarining o'zi, balki ularni to'g'ridan to'g'ri ta'minlash (axborot, huquqiy, texnik, texnologik va boshqalar) faoliyatini ham o'z ichiga olishi kerak. Bank operatsiyalarini ta'minlash jarayoniga qilinadigan tahdidlar bank ishi to'g'risidagi mahalliy va xorijiy ilm-fan vakillari tomonidan mustaqil tahdid turlari sifatida tan olinadi va alohida nomlanadi.

Ular qatoriga “aniq bitimlarni huquqiy ta'minlash sohasidagi jinoiy tajovuzlar tahdidi”, “bitimlarni axborot bilan ta'minlash sohasidagi jinoiy tajovuzlar tahdidi” hamda bank operatsiyalarini texnologik ta'minlash sohasiga jinoiy tajovuzlar tahdidi" va boshqalar kiradi. Ularning har biri zarur hollarda joylashtirilishi mumkin bo'lgan o'zining ichki tuzilishiga ega.

Tahdidlarni jinoiy-huquqiy va kriminalistika tavsif darajalariga qadar yanada strukturalash tufayli ularni tasniflash uchun yangi o'ziga xos asoslar paydo bo'ladi. Jinoiy-huquqiy darajada bank faoliyatiga tahdidlar jinoiy tajovuz turlari sifatida namoyon bo'ladi.

Адабиётлар:

1. Новая философская энциклопедия. М.: Мысль, 2001. С.633-634
2. Теоретические основы построения системной характеристики банковских угроз изложены в работе: В.А. Гамза. Методологические основы системной классификации банковских рисков // Банковское дело, 2001, № 6, 7.
3. Бадаева О.Н., Цупко Е.В. Оценка финансовой безопасности малых и средних предприятий/Российское предпринимательство. - 2018. - №4. - 236 с.
4. Бугель Ю. Напрями удосконалення сучасних методів управління банком / Ю. Бугель // Галицький еко-номічний вісник. - 2016. - №2 (27). - с. 157-163.
5. Khmeliuk A.A. Finansovyi monitonyh - Elektonnyi nesuns. - Rezhym Costupu: [http:// nCi-fp.nusta.com.ua](http://nCi-fp.nusta.com.ua).
6. В Акбаров. Tijorat banklari moliyaviy xavfsizligini ta'minlash amaliyotini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. 2024 y.

Особенности ресоциализации несовершеннолетних

Дилрабо Абдусамиева,

Преподаватель Ташкентского государственного
юридического университета

E-mail: dilraboabdusamiyeva@gmail.com

После выхода из тюрьмы период реинтеграции в общество для бывших осужденных дается непросто. Они, как правило, озабочены поиском работы и жилья, восстановлением нарушенных отношений с обществом (членами семьи, друзьями), столкновением с социальной стигмой и одиночеством, а в некоторых случаях необходимостью соблюдения условий административного контроля и стресса. Известно, что недели непосредственно до и после освобождения заключенных имеют решающее значение в определении того, насколько успешной будет их реинтеграция в общество [1, с. 58]. В исследовании, проведенном в Австралии (Квинсленд), был проведен опрос заключенных, и около половины заключенных, участвовавших в опросе, сообщили, что испытывали как минимум умеренную депрессию за несколько недель до освобождения. Многие сообщили, что их психическое здоровье было нарушено до освобождения [2, с. 16]. Особенно важны недели до и после освобождения заключенных из тюрьмы. То, что происходит в течение этих нескольких недель, часто определяет, будет ли их ресоциализация успешной или нет [3, с. 62]. Но, к сожалению, планирование социализации заключенных является важным аспектом процесса ресоциализации, которому не всегда уделяется достаточно внимания.

В нашей стране высок уровень преступности, совершаемой молодежью и несовершеннолетними. Мы можем видеть это из следующей статистики. Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев, выступая на расширенном заседании коллегии МВД, прошедшем в Фергане, заявил следующее: каждый третий преступник – это молодые люди, 32 процента совершенных ими преступлений – это кражи. и мошенничество, наибольшее количество преступлений данной категории зафиксировано в городе Ташкенте и Ферганской области, каждое седьмое молодежное преступление совершается в составе группы, 1 тысяча 100 молодых людей совершают повторные преступления, молодежная преступность. Он отметил, что большая часть

случаев произошедших по вине несовершеннолетних, находящихся без присмотра, и что среди несовершеннолетних были и те, кто совершил тяжкие преступления, и что самая тяжелая ситуация в регионе и республике сложилась в городе Кокан [4]. Конечно, тот факт, что несовершеннолетние совершают тяжкие преступления и совершают повторные преступления, призывает все общество устранить факторы, побуждающие несовершеннолетних к совершению преступлений. Среди этих факторов, которые необходимо устранить, стоит вопрос поддержки несовершеннолетних, освобожденных из исправительных учреждений, помощи им в удовлетворении своих потребностей, формирования уважения к законам общества, тем самым их успешной ресоциализации.

Руководящие принципы Организации Объединенных Наций по предупреждению преступности среди несовершеннолетних (Эр-Риядские руководящие принципы) подчеркивают важность мер по содействию социализации всех детей и молодых людей [5, с. 10].

Сегодня одним из главных вопросов в уголовно-исполнительной системе является развитие системы образования, профессиональной подготовки и трудоустройства осужденных, прежде всего, несовершеннолетних и молодежи. В социальной адаптации несовершеннолетних заключенных, отбывших наказание, особое внимание уделяется их образованию и профессиональной подготовке. Потому что одним из важных средств нравственного исправления осужденных, особенно несовершеннолетних, является воспитание. Многие исследования и практика свидетельствуют о том, что повышение уровня общего и профессионального образования имеет тесную связь с поведением заключенного. Повышение общего уровня образования особенно важно для лиц, отбывающих наказание в виде лишения свободы. Общее и профессиональное образование учитывается при оценке личности заключенного, оно положительно влияет на заключенного, его правовой статус, помогает ему морально восстановиться и сформировать культуру обращения с обществом. Кроме того, воспитание – это активная деятельность, служащая развитию мировоззрения заключенного, формированию его как личности, развитию культуры поведения, повышению чувства уважения к законам.

Также важен надзор за несовершеннолетними в постпенитенциарный период. Важное значение в постпенитенциарной ресоциализации несовершеннолетних

осужденных имеет и постановление Кабинета Министров «О практических мерах по дальнейшему совершенствованию системы социально-бытового обеспечения и трудоустройства лиц, освобожденных из мест лишения свободы». В частности, данным решением определена задача привлечения Союза молодежи Узбекистана (ныне Агентства по делам молодежи) к работе по моральному исправлению несовершеннолетних заключенных.

Согласно вышеуказанного нормативно-правового акта:

– привлекать представителей Союза молодежи Узбекистана и родителей осужденных к просветительской деятельности между Союзом молодежи Узбекистана и исправительной колонией (Зангиатинский район), направленной на искреннее раскаяние несовершеннолетних правонарушителей в совершенных ими преступлениях, для разработки механизма воспитания, разработать комплексную программу по воспитанию социально активной позиции и чувства патриотизма у несовершеннолетних, оказать поддержку, направленную на приобретение необходимых социально-бытовых, психологических, консультативных и специализированных услуг, составить меморандум о взаимном сотрудничестве с учетом;

– поручено разработать мероприятия по развитию у обучающихся чувства нетерпимости к насилию, деструктивным идеям и другим негативным социальным явлениям [6].

Известно, что Агентство по делам молодежи является государственным органом, который работает с молодежью, особенно несовершеннолетними, и представляет ее интересы более широко и непосредственно, чем другие структуры. Исходя из этого, ведомство должно не только работать с несовершеннолетними, лишеными свободы, но и принимать активное участие в ресоциализации после их освобождения, а также в профилактической работе по предупреждению преступности и оказывать помощь данной категории несовершеннолетних.

Список использованной литературы:

1. Introductory Handbook on the Prevention of Recidivism and the Social Reintegration of Offenders. United Nations office on drugs and crime. United Nations, Vienna, 2018
2. S.A.Kinner, The Post-Release Experience of Prisoners in Queensland (Brisbane, University of Queensland, Queensland Alcohol and Drug Research and Education Centre, March 2006).
3. D. Plecas and others, Getting Serious about Crime Reduction: Report of the Blue Ribbon Panel on Crime Reduction (British Columbia, Canada, Ministry of Justice, 2014), e-book.
4. Из выступления Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на расширенном заседании коллегии МВД, состоявшемся в Фергане. 28.07.2023. t.me/Press_Secretary_Uz
5. Guidelines for the Prevention of Crime (Economic and Social Council resolution 2002/13, annex) para. 6 (d); and United Nations Guidelines for the Prevention of Juvenile Delinquency (the Riyadh Guidelines) (General Assembly resolution 45/112, annex), para. 10.
6. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «О практических мерах по дальнейшему совершенствованию системы социально-бытового обеспечения и трудоустройства лиц, освобожденных из мест лишения свободы» 17.10.2018. № 543.

Yoshlar huquqiy madaniyatining ilmiy- nazariy va metodologik asoslari

Shodiyev Ma'rufjon Mirsalimovich

Navoiy davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi.

Tel: 99-755-88-66

E-mail: m.shodiyev@mail.ru

O'zbekiston, Navoiy vil. Navoiy shahri

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarda huquqiy madaniyatning ilmiy va nazariy metodologik asoslari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Yoshlar, huquqiy madaniyat, imkoniyat, samaradorlik, ta'li,. Manfaat, o'qitish.

Shodiyev Marufjon Mirsalimovich

Researcher of the Navoi State Pedagogical Institute.

Phone: 99-755-88-66

E-mail: m.shodiyev@mail.ru

Uzbekistan, Navoi village. Navoi city

Scientific-theoretical and methodological foundations of legal culture of young people

Abstract. This article talks about the scientific and theoretical methodological foundations of legal culture in young people.

Key words. Youth, legal culture, opportunity, efficiency, education. Interest, teaching.

Шодиев Маруфжон Мирсалимович

научный сотрудник Навоийского государственного педагогического института.

Телефон: 99-755-88-66

Электронная почта: m.shodiev@mail.ru

Узбекистан, село Навои. город Навои

Научно-теоретические и методические основы правовой культуры молодежи

Аннотация. В данной статье говорится о научно-теоретических методических основах правовой культуры молодежи.

Ключевые слова. Молодежь, правовая культура, возможности, эффективность, образование. Интерес, обучение.

Kirish (Introduction). O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasidagi milliy dasturlar doirasida amalga oshirilayotgan ishlar va erishilgan qator ijobiy o'zgarishlarga qaramasdan, ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish, bunda yaratilgan shart-sharoitlar va imkoniyatlardan foydalanish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Yoshlarning bilim olish motivatsiyalarini shakllantiruvchi mexanizmlarni va o'qitishning yangi shakl, noan'anaviy uslublari orqali ularning bilish hamda ta'lim-tarbiya jarayoni tizimini takomillashtirish va sifatini boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqib, ularni amalga oshirish zarurati mavjud. Aynan mana shular uzluksiz ta'lim tizimini mazmunan takomillashtirishni, ta'lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko'tarishga xizmat qiladigan ta'sirchan choralarni ko'rishni taqazo qiladi. Ta'limning ustuvor vazifalaridan biri – yoshlar ongu shuurida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish, jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun amaliy - hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish hamda yoshlarning ijtimoiy huquqiy munosabatlarda faol ishtirok etishiga zamin hozirlashdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Bugungi kunda O'zbekistonda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Xususan, bugungacha parlarnent tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan. O'zbekistan Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Yoshlarimiz o'rtasida xuquqiy madaniyat, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan ishlarni samarasini oshirishni bugungi davrni o'zi talab qilmoqda" deya bildirgan mulohazalari alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, yoshlar tushunchasi va masalasida ko'plab tadqiqotchilar o'zlarining fikr va mulohazalarini bildirib o'tganlar. Bu borada mahalliy tadqiqotchilardan G.Tulenova, M.Mirahmedova, R.Ubaydullaeva, M.Hasanova, M.Yuldasheva, B.Mirzaolimov, Ya.Kadirova, J.S. Umarov xorijiy olimlardan esa I.Kon, V.T.Lisovskiy, S. Ikonnikova, V. Pavlovskiy, Yu.Vishnevskiy, V.Shapko, A.Vishnyak, A.Roslavskiy, Maks Rubner, D.Bouglarning mulohazalari alohida ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Mamlakatimizda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirish, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonlik darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yoshlarning huquqiy oni va madaniyati tushunchalarining mazmun-mohiyatini anglab yetgandagina o'zlarining huquq va majburiyatlarini tushunib boradi. Huquqiy ong-bu ijtimoiy ongning shakllaridan biri bo'lib, kishilarning huquqqa va qonunchilikka, huquq tartibotiga va boshqa huquqiy hodisalarga bo'lgan g'oyalar, his tuyg'ular, tasavvurlar yig'indisi. Shuningdek jamiyatda huquqiy strukturasi huquqiy madaniyat hodisasi, huquqiy hayotning darajasi alohida o'rin tutadi.

Huquqiy ta'lim shaxsning huquqiy ong darajasini inson, jamiyat, davlat manfaatlariga javob beradigan eng umumiy yuridik prinsiplar va normalarni anglab yetishga yo'naltiradi. Huquqiy ongni shakllantirish ko'p jihatdan huquqiy ta'limga bog'liq. Ma'lumki, jamiyatning huquqiy ongini oshirmasdan, har bir fuqaroda qonun talablariga hurmatni tarbiyalamasdan, me'yoriy hujjatlar talablarini kundalik hayotga bevosita tatbiq etish tarbiyasini shakllantirmay turib iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy masalalarni yechib bo'lmaydi. Shu sababli, huquqiy madaniyatni huquqiy davlat qurish, huquqiy islohotlarni amalga oshirishda dastlabki asosiy masalalardan biri sifatida ko'rish mumkin. Huquqiy madaniyatning holati har qanday davlat huquqiy tizimi to'liq shakllanganligining asosiy sifat ko'rsatkichi hisoblanadi. Shuning uchun mamlakatimizda asosiy e'tibor avvalo huquqiy madaniyatini yuksaltirishning me'yoriyhuquqiy asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Huquqiy madaniyat-bu kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquqni hurmat qilish va unga rioya qilishdir. Huquqiy madaniyat jamiyat umumiy madaniyatining uzviy tarkibiy qismi hisoblanadi. Huquqiy madaniyat jamiyatning huquqiy hayoti, uning huquqiy voqeligi, normativ-huquqiy hujjatlar, huquqiy ong rivojida erishilganlik darajasini ifodalovchi ma'naviy-axloqiy va huquqiy qadriyatlar tizimi hamda unga muvofiq tarzda qaror topadigan qonunga itoatgo'ylik va mamlakatda huquqiy-tartibot muhitini o'rnatish uchun ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning amalga oshirilishi tushuniladi.² Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini ifoda etishi jamiyatda huquqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy huquqlari konstitutsiyamizda belgilab berilgan.

Shaxs, davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarida aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishda quyidagi yo'nalishlar muhim hisoblandi.

1. Oilada huquqiy tarbiyani shakllantirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish;
2. Aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishda mahalla institutining rolini kuchaytirish;
3. Ta'lim muassasalarida huquqiy savodxonlikni oshirish;
4. Davlat organlari va tashkilotlar xodimlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish;
5. Aholi barcha qatlamlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish

Yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ta'lim muassasalari yetakchi o'rinda turadi. Bunday islohotlarni yanada rivojlantirish maqsadida quyidagilarni taklif sifatida kiritmoqchiman:

1. Bolalar va o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan konstitutsiyani va inson huquqlarini o'rganish bo'yicha videoroliklar tayyorlash va ularni maxsus telekanallarda berib borish;

2. Ta'lim muassasalari o'quvchilari orasida huquq fanidan respublika miqyosida quyidagi tanlovlarni tashkil qilish va o'tkazish:

-umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida "Mening huquqlarim — mening kelajagim kafoloti" mavzusida insholar tanlovini tashkil qilish;

-umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida "Mening huquq va majburiyatlarim" shiori ostida rasmlar tanlovini tashkil etish;

Oliy o'quv yurtining, ayniqsa, huquqiy yo'nalishdagi o'quv yurtining talabalari esa huquqiy fikrlashnigina emas, keng doiradagi huquqiy muammolarni aniqlash, tahlil qilish, huquqiy islohatlar rivojlanish tendensiyalariga baho berish, bu o'zgarishlar kelajakda qanday natijaga olib kelishi mumkinligini his qila bilishi, ko'z o'ngiga keltira bilishni o'rganishi zarur. Buning uchun esa huquq fanlarni chuqur bilish talab qilinadi. Huquq fanlarni o'rganish uchun to'g'ri metod tanlash muhim ahamiyatga ega. Dars o'tishda to'g'ri metod tanlanmasa, nazariy jihatdan o'qituvchining bilimi yuqori bo'lishidan qat'inazar, kutilgan natijani bermaydi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Qurilayotgan jamiyat egalari sifatida yoshlar namoyon bo'lar ekan, demak ularni demokratik tamoyillarga asoslangan

qonun-qoidalar asosidagi huquqiy bilimlar bilan qurollantirgan holda ijtimoiylashtirish masalasi bugungi kunning dolzarb masalalari qatorida yuqori o'rin egallaydi. Shu nuqta nazardan, yoshlarning barcha jabhalardagi islohotlarda keng va faol ishtirokini ta'minlash, jamiyatda kechayotgan o'zgarishlarga daxldorlik hissi bilan yondashish tuyg'usini shakllantirish, kuchli, adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish hamda rivojlantirish, ma'naviy jipslashgan jamiyatni shakllantirish jarayonlarida ishtirokini amalga oshirish ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasida barcha kuchlarni safarbar etish talab etadi.

Xulosa o'rnida shuni takidlash kerakki, yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirishda tizimli, mexanizmlashgan uzluksiz islohotlarni olib borish kelajakda mamlakatimizda fuqarolik jamiyatiga o'tishga munosib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618-son Farmoni.

2. Жиянмуратова Г.Ш. Ўзбекистон ёшларининг электорал маданиятини шакллантиришда ижтимоий-сиёсий насларнинг ўрни // Kutubxona.uz, 2020, 47 (3). – Б. 27-34.

3. Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. Darslik - T.: IIV Akademiyasi, 1998.- 57 b.

4. Ҳасанов Н. Н. Истиқлол даврида ёшлар ҳуқуқий маданиятини шакллантириш жараёнларининг социологик таҳлили. Соц фан. номз. дисс... Т.2007. 138 бет.

5. Amirov Z. "Huquqiy xabardorlikni oshirish huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish vositasi sifatida" // Jamiyat va boshqaruv –2015. №3

ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI

Toshkent kimyo xalqaro universiteti

“Moliya” kafedrası o‘qituvchisi

Abdukarimov Abduljalil Dilshod o‘g‘li

abdujalilabdukarimov@gmail.com

Bugungi kunda jadal iqtisodiy o‘zgarishlar va moliyaviy innovatsiyalar bilan ajralib turadigan islomiy moliya fenomeni axloqiy mustahkamlik hamda global ahamiyatga ega bo‘lgan tizim sifatida yuksaldi. Shariat qonunlari tamoyillariga asoslangan islom moliyasi moliyaviy faoliyatni axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy adolat va barqarorlik bilan bog‘laydigan muqobil asosni taqdim etadi. Musulmonlar ko‘p bo‘lgan davlatlar bilan chegaralangan hududlarda oddiy moliyaviy tashabbus sifatida boshlangan bu jarayon madaniy, diniy va geografik chegaralarni kesib o‘tuvchi dinamik va ko‘p qirrali global sanoatga aylandi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu tezisda biz islomiy moliyani zamonaviy moliyaning birinchi qatoriga olib chiqqan murakkab va ko‘p qirrali rivojlanish tendensiyalarini har tomonlama tadqiq qilishga harakat qilamiz va bu yo‘lda an‘anaviy bank, investitsiya va iqtisodiy tizim tushunchalarini qayta ko‘rib chiqamiz. O‘z mohiyatiga ko‘ra, islom moliyasi shunchaki moliyaviy tizim bo‘lib qolmay, balki ko‘p asrlik islom ta‘limotlaridan kelib chiqqan axloqiy e‘tiqod va ijtimoiy tamoyillarni o‘zida namoyon etuvchi tushunchadir. Islom moliyasining asosini uning shariat qonunlariga asoslanishi, axloqiy xulq-atvor, adolat va ijtimoiy mas‘uliyatga rioya qilish kabi harakatlar tashkil etadi. Ushbu axloqiy qadriyatlar foiz (ribo), noaniqlik (g‘arar) va qimor (maysir) kabi ekspluatatsion amaliyotlardan voz kechishga yo‘naltiradi. Bunda bitimlar o‘zida moddiy aktivlar bilan ta‘minlanishi va shaffoflik, tenglik va adolat tamoyillari bilan bog‘lanishi kerak bo‘lgan moliyaviy manzarani taqazo etadi. Islom moliyasi tamoyillari nafaqat uni an‘anaviy moliyadan ajratibgina qolmay, balki uning iqtisodiy muvozanatni ta‘minlash va shaxslar va jamoalar farovonligini oshirishga qaratilgan umumiy maqsadlarini ham nazarda tutadi.

Jahon ilm-fan sohasida islom moliyasi nisbatan yangi yo‘nalish ekanligi ta‘kidlansada ko‘plab tadqiqotlar qilingan. Islom moliyasining eng muhim jihati hisoblangan inqirozlarga bardoshlilikini birinchilardan bo‘lib Muhammad Umar Chapra (2009) o‘z tadqiqotida to‘xtalib o‘tgan. Ammo moliya tizimda bozor intizomining yetarli emasligi, haddan tashqari kreditlash, yuqori leveraj oxir-oqibat inqirozga olib kelishi ta‘kidlanadi. Shuningdek, tavakkalchilikni taqsimlash, birinchi navbatda real tovar va xizmatlarni sotib olish uchun

kreditlash hamda qarzni sotishni cheklash, keyin qisqa muddatli savdolar, haddan tashqari noaniqlik (g'arar) va qimor (maysir) intizomni kuchaytirishga yordam berishi mumkinligi ta'kidlangan. Shu bilan moliyaviy beqarorlikni sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

Ilmiy ishlar asossan islomiy qimmatli qog'oz – sukuk tadqiqiga bag'ishlangan. Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani tayyorlash jarayonida turli ma'lumotlar va sharhlardan foydalanilgan. Ushbuma'lumotlar islom moliyasi, moliyaviy tendensiyalar, axloqiy moliya, texnologik yutuqlar va boshqa shu kabi yo'nalishlarga asoslanadi. Maqolada olingan ma'lumotlar asosida jahonda islom moliyasirivojlanishini ekstropolyatsiya qiladi. Statistik ma'lumotlar aniq bo'lishi uchun ishonchli manbalardan olingan.

Pandemiyaning dastlabki yillarida global islomiy moliya sektorining jami aktivlari hajmi 14 foiz o'sishga erishib, barqarorlikni namoyish etdi. Biroq, keyingi yil 17 foizga o'sish orqali pandemiya yillaridagi ko'rsatkichlardan ham yuqorilab, o'zida aktivlarni 4 trillion dollarlik darajaga yetib borganligini namoyish etdi. Keng tarqalgan emlashlar tufayli virus havfi pasayganligi sababli, iqtisodiyotlar asta-sekin qayta o'sa boshladi va bu o'z navbatida, islom moliya sanoati farovonligining yaxshilanishiga olib keldi. Umumiy aktivlarining 70 foiziga ega bo'lgan islom moliya sanoatining eng yirik sektori hisoblangan Islom banki kredit yo'qotishlar bo'yicha zaxiralar yumshatilgani sababli ancha imkoniyat va yengilliklarni qo'lga kiritdi. Albatta, bu ularning sof daromadining sezilarli darajada oshishiga olib keldi.

Ushbu o'sishga quyidagi uchta asosiy omil yordam berdi:

1. Ba'zi banklar pandemiyadan zarar ko'rgan sektorlar uchun kengaytirilgan davlat yordamini oldi.

2. Ba'zilar shahobchasi mavjud bo'lmagan banklar va FinTechs bilan hamkorlik kabi chora-tadbirlar orqali operatsion samaradorlikka erishdi;

3. Islom bank xizmatlariga doimiy yuqori talab saqlanib qolganligi. Shunisi e'tiborga loyiqki, eng muhim rivojlanish islom moliyasi uncha rivojlanmagan mintaqalarida ro'y berdi. Bu esa yangi tashkil etilgan hududlarning taraqqiy etganligi bilan birga yangi bozorlarning paydo bo'lishini taqazo etdi. Dunyo iqtisodiyotida islom bankchiligining o'sishi bo'yicha Tojikiston (84%), Burkina-Faso (27%) va Efiopiya (26%) boshqa davlatlardan ajralib turdi. Xulosa qilib aytganda, global islom bank sektori 17 foizga o'sib, 2,8 trillion dollarni tashkil etdi.

Aktivlari bo'yicha ikkinchi o'rinda turadigan sukuk sektori 2021-yilda 14 foizga o'sib 713 milliard dollarga yetgan bo'lsa, yangi emissiyalar 9 foizga oshib, rekord darajadagi 202,1

milliard dollarni tashkil etdi. Ta'kidlash joizki, islom jamg'armalarining asosiy egasi bo'lgan Malayziyaning xodimlarni ta'minlash jamg'armasi (Employee Provident Fund (EPF)) 2030-yilgacha ESGga to'liq mos keladigan portfelga ega barqaror investorga o'tish va 2050-yilgacha iqlimga mos keladigan portfelga erishish niyatini e'lon qildi. Moliyaviy texnologiya firmalari, investitsiya kompaniyalari, moliyalash tashkilotlari, lizing va mikromoliya tashkilotlari, shuningdek, brokerlar va treyderlarni o'z ichiga olgan boshqa islom moliya institutlari (Other Islamic financial institutions (OIFI)) 5 foizga o'sdi va 169 milliard dollarlik aktivlarni jamladi. Aktivlar o'sishining sezilarli darjasi Qozog'iston (44%), Misr (38%) va Maldiv orollari (31%) kabi mamlakatlarda kuzatildi. Islomiy moliya tizimi eng kichik segmenti bo'lgan takaful (islom sug'urtasi) 17%ga o'sdi va buning natijasi o'laroq 2021-yilda 73 milliard dollar mablag'ga ega bo'ldi. Bundan tashqari, Janubi-Sharqiy Osiyodagi muhim me'yoriy o'zgarishlar Indoneziya va Malayziyada boshqaruvni kuchaytirishini taqazo etar, bu orqali esa Filippindagi yangi bozor ishtirokchilari uchun eshiklar ochilishi mumkin edi. Ushbu vaziyat esa uning aktivlarini 2021-yilda qariyb, 4 trillion AQSh dollariga yetkazdi va bu ko'rsatkich 2020-yilda kuzatilgan 14 foizlik o'sishga nisbatan 17 foizga ko'p degani edi. Shu o'rinda, Islom moliya institutlari tomonidan global miqyosda qayd etilgan sof daromad ham uch baravarga oshib, 2020-yildagi 10,5 milliard AQSh dollaridan 2021-yilda 32 milliard AQSh dollarigacha ko'tarildi, bu ayniqsa islom banklari faoliyatining yaxshilanganligini aks ettiradi.

O'zbekistonda ipoteka sug'urtasining samarali tizimini yaratish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlarga e'tibor qaratish zarur:

- Innovatsion sug'urta xizmatlarini joriy qilish: Masalan, onlayn sug'urtalash, tezkor xizmatlar va avtomatlashtirilgan tizimlar.

- Sug'urta kompaniyalari va banklar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish: Banklar va sug'urtalovchi kompaniyalar o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish orqali kredit olish jarayonida sug'urtalashni osonlashtirish.

- Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini kengaytirish: Xususiy sektor va davlat hamkorligi orqali ipoteka sug'urtasi tizimini barqarorlashtirish.

Xulosa

O'zbekistonda ipoteka qaltisliklarini sug'urtalash tizimini rivojlantirish ko'chmas mulk bozorining barqarorligi, aholining moliyaviy xavfsizligini ta'minlash, hamda uy-joy olish imkoniyatlarini oshirish uchun muhimdir. Ipoteka bilan bog'liq moliyaviy, bozor va hodisa xavflarini sug'urtalash orqali kredit oluvchilar va moliyaviy institutlarning manfaatlarini himoya qilish mumkin.

O'zbekiston uchun ipoteka sug'urtasi sohasida huquqiy bazani mustahkamlash, sug'urta xizmatlarini kengaytirish, davlat qo'llab-quvvatlashi va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish kabi chora-tadbirlar istiqbolli yo'nalishlar sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, chet el tajribasini o'rganish va moslashtirish O'zbekistonda samarali ipoteka sug'urtasi tizimini yaratishga yordam beradi.

Ushbu takliflar amalga oshirilsa, ipoteka bozorining barqarorligini oshirish va aholining uy-joy olish imkoniyatlarini kengaytirish orqali moliyaviy tizimning mustahkamligi ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Murodov, N. (2020). Ipoteka krediti va uning rivojlanish mexanizmlari. Toshkent: Iqtisodiyot va xalq xo'jaligi nashriyoti.
2. Abdullayeva, S. (2019). O'zbekistonda ipoteka kreditlash tizimining holati va rivojlanish istiqbollari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
3. Tashkent State University of Economics. (2021). Banklar va sug'urtalash: iqtisodiy o'rganish. Toshkent: Iqtisodiyot ilmiy-nashriyoti.
4. Xushvaktov, F. (2022). Ipoteka sug'urtasi: Xalqaro tajriba va O'zbekiston uchun istiqbollar. Tashkent: Yuridik nashriyoti.
5. Smith, J. (2018). Mortgage Insurance in the Global Economy. London: Financial Press.
6. European Bank for Reconstruction and Development. (2020). Housing Finance and Mortgage Markets in Transition Economies. EBRD Report.
7. World Bank. (2021). Uzbekistan: Housing Sector Review and Reform. World Bank Group.
8. Karimov, O. (2017). Moliyaviy xavf va uning sug'urtalash tizimidagi roli. Toshkent: Universitet nashriyoti.
9. Rahimov, B. (2023). Ipoteka kreditlashda sug'urtalash tizimining rivojlanishi. Toshkent: Iqtisodiy ta'lim nashriyoti.
10. International Finance Corporation (IFC). (2021). Developing Mortgage Markets: A Practical Guide for Policymakers. Washington, D.C.

ХОМИЛАДОР АЁЛЛАРДА ГЕСТАЦИОН ҚАНДЛИ ДИАБЕТ АСОРАТЛАРИ

Комилова И.А, Шаймуродова М.У.

Тошкент тиббиёт академияси, Тошкент, Ўзбекистон

Долзарблиги. Гестацион қандли диабет (ГҚД) — ҳомиладор аёлларда энг куп учрайдиган метаболик касаллик булиб, қандли диабетнинг 2 типини ўсиши билан характерланади ва эндокринолог ва акушер-гинекологлар учун перинатал асоратларнинг кўплиги билан муаммоли касалликлардан бири хисобланади. Гестацион қандли диабет 1% дан 14% гача, ўртача 7% да учрайди. Бу касаллик билан огриган хомиладор аёлларда муддатдан олдинги туғруқ хавфи 30-50% , Кўп сувлилик 20-60%, хомиладорликда гипертензив ҳолатлар 25-65% , туғруқ травмаси ва кесар кесиш вақт утиши билан 2 тоифа диабетига утиш хавфи юкори. учрайди. Гестацион қандли диабет билан касалланган аёлларда макросомия, хоиила елкаси дистоцияси 2,8-5,6%, умуртқа бўйни травмаси 42%, нафас олиш муаммолари 1,4-5,3% , , перинатал ўлимкўрсаткичи 5 марта ошади. Туғруқни кесарча кесиш орқали яқунлаш 28,8-46,6% ҳолларда кузатилади. Диабетик фетопатия (ДФ) учраши 30-60% ҳолларда кузатилади .

Ишнинг мақсади: Гестацион қандли диабет бўлган ҳомиладорлар аёлларда глюкоза даражаси ва хомиладорлик асоратлари уртасидаги боғлиқликни курсатиш ҳамда профилактикани кўллаш.

Текшириш материали ва усуллари: Урганилаётган аёллар хомиладорлик ва туғиш даврида Тошкент тиббтёт академиясининг 2 клиникасининг акушерлик ва гинекология мажмуасида ҳамда ТТА 2 клиникаси аёллар саломатлик марказида назоратда булган шунингдек бу аёллар ушбу клиниканинг 1 ва 2 акушерлик булимларида туғруқ олиб борилган. 2023-2024-йилларда гестацион қандли диабет билан касалланган 30 нафар аёлларда хомиладорлик, туғруқ ва туғруқдан кейинги давр ўрганилди. Уларга умумклиник текширувлар, қонда қанд миқдори, УТТ текшируви, терапевт ва эндокринолог кўриклари ўтказилди.

Натижалар: Ҳомиладор аёлларнинг ёши 28 дан 37 ёшгача бўлиб, ўртача 32 ёшни ташкил қилди. Бу беморларда наслий фактор 21 нафар (70%) ни ташкил қилди. Наслий факторда она томонидан касалликнинг учраши ота томонга қараганда 3 баробар кўп кузатилди. Беморларда тана вазни индекси аниқланганда, семизлик I

даража- 6 нафар (20%), II даража- 13 нафар (43,3%), III даража- 11 нафар (36,7%) ни ташкил этди. Оч қоринга қондаги глюкоза ўртача 7,6 (6,6-9,8) ммол/л ни ташкил қилди.

Ҳомиладор аёлларнинг паритетига кўра I хомиладорлик - 8 нафар (26,7%), II- 10 нафар (33,3%), III- 7 нафар (23,3%), IV хомиладорлик -5 нафар (16,7%) аёлда аниқланди. Беморларнинг анамнезидан артериал гипертензия- 6 нафар (20%), тухумдонлар поликистоз синдроми- 7 нафар (23,3%), макросомия- 14 нафар (46,6%), муддатига етмаган хомиладорлик- 17 нафар (56,6%), перинатал ўлим-8 нафар (26,6%), кўп сувлилик- 6 нафар (20%), кам сувлилик- 5 нафар (16,7%) ни ташкил қилди. Даволашга кўра беморлар 2 гуруҳга бўлинди. 1- гуруҳ (асосий) 15 нафар гестацион қандли диабет аниқланган хомиладор аёлларга диетотерапия ва 2- гуруҳ (солиштирма) 15 нафар аёлларга диетотерапия ва инсулинотерапия қўлланилди. Ҳомиладорлик давомида энг кам гипергликемия ҳолати асосий гуруҳда кузатилиб, бу аёлларда семизлик 1-даража, артериал гипертензия кузатилмаган эди. Асосий гуруҳда хомиладорлик асоратлари таққослаш гуруҳига нисбатан камроқ кузатилган. Асосий гуруҳда кузатилган муддатдан олдинги туғруқ хомиладорликнинг 35,3 хафтасида, солиштирма гуруҳда эса туғруқ хомиладорликнинг 32-34 хафтасида содир бўлган.

Хулоса: Шундай қилиб, хомиладорлик даврида қандли диабет кўп асоратли кечиши билан фарқ қилади. Биринчи аниқланганда қондаги глюкоза 7,5 ммол/л бўлганда инсулинотерапия бошлаш керак. Бу хавф гуруҳига қирадиган аёллар хомиладорликдан олдин тана вазнини камайтириб, кейин хомиладор бўлса, хомиладорлик даври ва перинатал асоратлар кам кузатилади. Бу аёллар 1 ойда 2 марта шифокорга мурожаат қилиб, қондаги қанд миқдори ва умумий сийдик тахлили топшириши керак. Гликемияни бир меъёردа ушлаб туриш ҳомила макросомиясини олдини олади. Гестацион қандли диабет кузатилган хомиладор аёлларда туғруқнинг оптимал муддати 37-38 хафтасида ҳал этиш лозим. Эрта муддатда олиб борилган даво ва профилактика перинатал асоратларни камайтиради.

INTERNAL IDENTITY ISSUES AFFECTING PAKISTAN'S FOREIGN POLICY.

Sirojiddin Mamatkulov

PhD student

Tashkent State University of Oriental Studies.

E-mail: sirojiddinmamatqulov0@gmail.com

Abstract: The article describes the influence of the internal problems of Pakistan's national identity on the state's foreign policy. Also, the importance of economic and terrorism-related problems in the country is revealed.

Keywords: Pakistan, Kashmir, identity, domestic policy, foreign policy, Islam, economic crisis, education, terrorism.

During the bipolar world era, i.e. "The Cold War" (1947-1991), international politics was mainly based on the rivalry between the United States and the Soviet Union. During this period, Pakistan's foreign policy was focused on close cooperation with the United States, one of the two power centers. In the multipolar world, countries face new realities and difficulties in developing their foreign policies. Since many countries and organizations have become different power centers in world politics, foreign policy needs to be more pragmatic and diversified. At the same time, there are a number of problems and difficulties in developing a new foreign policy identity for Pakistan in the context of a multipolar world. These problems depend on various geopolitical, economic, security and internal factors. The main challenges are maintaining a balance between major powers such as the USA, China, and Russia, ensuring regional security, and fighting terrorism.

After the Second World War, the countries of the world were divided into two groups - supporters of the market economy led by the USA and supporters of the idea of communism led by the USSR. During this period, every country tried to conduct its internal and, at the same time, foreign policy relying on these two polar states. Although organizations such as the Non-Aligned Movement were formed to challenge the policies of the two major ideologies, this did not make the politics of small and medium powers fully independent. The members of this organization and even the founders of such organizations as India and Yugoslavia relied on one or another power center to determine their external political agents.

In the second half of the 20th century, Pakistan also sought to establish close relations with Western countries led by the United States in its foreign policy. First of all, the basis of the national identity of the communist idea was against Islam. The second reason was the warm relations between the USSR and Pakistan's main rival and enemy country, India. By the last decade of the 20th century, in the struggle between two ideas, the bipolar system formed in the world as a result of the defeat of communism and the fall of the USSR collapsed and a unipolar world order emerged. From the 90s of the 20th century and the first decade of the 21st century, the world was under the influence of the US hegemony. However, a multipolar world order is being formed today. Multipolarity refers to a shift in the distribution of power between several major powers in the international system. Now there are large and regional power centers in the world, and these power centers have a great role in determining the regional policy.

Pakistan needs to pay attention to several factors in developing a new foreign policy identity in the multipolar world.

First, the elimination of economic difficulties. Pakistan's economic instability, high debt and lack of foreign currency reserves are an obstacle to independent foreign policy. The country is economically very dependent on aid from China and Saudi Arabia. This economic weakness limits Pakistan's opportunities in international negotiations and makes it dependent on major powers. Also, economic stability is necessary not only for domestic prosperity, but also for increasing the country's international status. Leveraging key relationships with international stakeholders, particularly the United States and China, is critical to securing the necessary support for economic recovery.

Pakistan's economy is currently facing one of the worst crises in its history. Incorrect economic policies and a series of shocks - the COVID-19 pandemic, the devastating floods of 2022 and unfavorable global conditions - have led to a slowdown in economic growth in the country, an increase in poverty and brought the country to the brink of debt default. Jahon Banki Pokistondagi mazkur iqtisodiy inqiroz sharoitida amalga oshirishi zarur bo'lgan bir qancha tavsiyalarni ishlab chiqqan ¹:

1. Pakistan needs to address its human capital crisis. Seven percent of children in the country die before the age of 5, which is several times higher than in comparable

¹ N. Benhassine, M Raiser. "Could 2024 mark Pakistan's economic turnaround moment?" – Washington, 2024. World Bank – Report.

countries. 40 percent of children under 5 suffer from stunting, and this is more than 50 percent in poor districts.

2. Pakistan needs to create more fiscal space to finance improvements in service delivery and human capital development. Tax collection has been 10 percent of GDP for decades. Eliminating expensive tax breaks and reducing compliance costs could quickly generate about 3 percent of GDP in added revenue.

More funding could be drawn at the provincial and local levels from non-taxable sectors such as real estate, agriculture and retail — adding another 3 percent to GDP. Cost savings can be achieved through more efficient management of public resources. Most of the loss-making state-owned enterprises should be privatized. Subsidies in agriculture and energy should be cut, while protecting the poorest. The overlap between federal and provincial spending should also be reduced. These measures will save another 3 percent of GDP per year.

3. Pakistan should strive for a more dynamic and open economy. Current policies distort markets for the benefit of the few while inhibiting productivity growth. Frequent overvaluation of the currency and high tariffs lead firms to focus on domestic markets while encouraging exports.

A difficult business environment deters investment, as does a strong state presence in contested markets. Tax breaks also discourage productive investment and support non-tradable industries such as real estate. Accelerating the sale of productive assets or selectively attracting foreign investment deals may generate much-needed foreign exchange reserves in the short term, but the lasting impact requires an immediate response to the underlying problems behind low investment and declining productivity growth. Yin rules equalize and promote competition, reduce red tape, etc. The agricultural sector needs to be transformed to ensure food security in the face of climate change and increasing water scarcity. Current subsidies, public procurement and price restrictions force farmers to plant low-value, non-diversified farming systems and water-intensive crops.

Disruptions in the power sector need to be addressed quickly and consistently, as they have been draining public resources for a long time. Recent tariff hikes have helped limit losses while protecting poor consumers, but large distribution and transmission losses coupled with high generation costs need to be reduced to stabilize the grid. Fortunately, Pakistan has the cheapest hydropower and solar resources. Their use requires investment,

which can only be solved by long-standing problems in electricity distribution and transmission systems, particularly through a greater private sector.

Moreover, while a more dynamic economy will create opportunities for the majority of Pakistanis, the fight against poverty will need to be coordinated through federal and provincial approaches to ensure that no one is left behind by social safety nets.

Second, Internal political instability. In general, the foreign policy of the states is inextricably linked with the internal policy of the country. At the same time, political instability in Pakistan has had a negative impact on the country's foreign policy. A large number of cases of military coups in the state - the overthrow of democratic governments, as a result of which there are regular changes in the state administration and legislation, have had a negative impact on the state's reputation and the country has lost its attractiveness for investors.

Even today, Pakistan's internal political instability has a major impact on its foreign policy. The issue of political dominance in the country is volatile and the role of the military in the governance of the government remains significant. The ban on former prime minister Imran Khan's participation ahead of the 2024 elections is creating political instability, which will make it difficult to deal with the challenges of the economic crisis and growing terrorism. Political instability also limits access to international credit and complicates negotiations with foreign political partners, which directly affects Pakistan's foreign policy strategy.

Third, the fight against regional and global terrorism. The fight against terrorism has a great impact on the image of Pakistan in the international arena. The United States and the international community expect Pakistan to take firm measures against terrorism, especially in the case of the Taliban and other radical groups. Pakistan is also facing instability in Afghanistan and regional security problems. In the new foreign policy, it is necessary to develop effective strategies for the fight against terrorism and strengthen cooperation with the international community.

The fight against terrorism occupies an important place in Pakistan's foreign policy. The country is struggling not only with terrorists within itself, but also with regional threats, particularly Afghanistan. After the Taliban took power in 2021, support for the Tehreek-Taliban Pakistan (TTP) group complicated Pakistan's fight against the group and increased instability in the region. The TTP intensified its operations and increased its attacks against Pakistan from Afghanistan, which negatively affected Pakistan's relations with the Taliban.

Today, Pakistan, like Afghanistan, has the headquarters of terrorist groups and thus has a negative image on the battlefield. At the same time, there are cases where the location of terrorist groups in Pakistan worsens relations with its allied countries. These are countries such as Afghanistan (the reason is given above) and Iran, China, Central Asian countries, and the United States, which sees itself in the position of the international anti-terrorist police.

Terrorist attacks by Baloch separatists in Pakistan are also a problem for Iran, home to a large Baloch ethnic group. Because the rise of the Baloch separatist movement fighting for an independent Balochistan is sure to inspire the Baloch living in Iran. Also, the fact that representatives of the Khorasan group of ISIS have recently carried out several attacks in Iran will not change the attitude towards the countries of the region where this group is believed to be located, Afghanistan and partially Pakistan. For example, in January 2024, ISIS-Khorasan carried out twin bombings in Iran, killing scores of people and injuring hundreds at a memorial service for former Iranian top general Qassem Soleimani, who was targeted by US drones four years earlier people were injured ².

The presence of the ISIS-Khorasan terrorist group in Afghanistan and Pakistan has been a cause of concern for Central Asian countries. The group's goal is to establish an Islamic state governed by strict sharia rules in the old Khorasan territories - present-day Afghanistan, Iran, and a large area of Central Asia. This is causing the Central Asian republics to worry. Although the countries of the region have a great experience in the fight against terrorism since the 1990s when they gained independence, the terrorist attack by ISIS-Khorasan in March 2024 in the capital of Russia, Moscow, which caused the death of more than 130 people, caused the tension in the Central Asian republics to increase even more. it has been.

The fact that Pakistan is one of the hotbeds of terrorism does not affect relations with China. Because China, like the United States, tried to rely on the help and experience of Pakistan, which has a lot of experience in these operations, in the fight against terrorism. As part of this support, in October 2003, as a result of a military operation carried out by the Pakistani army against a camp suspected of belonging to al-Qaeda on the Pakistan-Afghanistan border, the East Turkestan Islamic Movement (an armed group that aims to turn the Xinjiang-Uighur region of China into an independent region) by China. Hasan Makhsum,

² "ISIS Affiliate Linked to Moscow Attack Has Global Ambitions." The New York Times. (05.08.2024)
<https://www.nytimes.com/2024/03/25/us/politics/moscow-attack-isis.html>

who is known as the leader of the terrorist group known as “Terrorist Group”, was killed and other captured members of the group were extradited to China ³.

However, terrorist groups such as Tehriki Taliban, Baloch insurgents and Lal Masjid Brigade have started targeting Chinese citizens in Pakistan in response to the escalation of anti-terrorist operations led by the Chinese government against their Uyghur brothers. Several people were killed and some were injured in such attacks. One of these was the Lal Masjid brigade's invasion of a Chinese massage parlor and the abduction of workers, which would lead to a diplomatic disaster between China and Pakistan ⁴.

The fight against terrorism is also important in Pakistan's relations with the United States. This is why the US has been funding Pakistan's defense sector. Between 2002 and 2007 alone, the first five years of the US global war on terror, the US spent nearly \$6 billion on Pakistan's military and defense capabilities ⁵. These numbers alone show the importance of Pakistan in the fight against global terrorism for the United States.

³ S. Mamatqulov. “Xitoy bilan strategik hamkorlik Pokiston mustaqillik omili sifatida.” // “Xorijiy Sharq mamlakatlaridagi tarixiy jarayonlar va ularni o’rganishning dolzarb masalalari.” Tashkent, 2024. Vol.11. – P. 356.

⁴ Syed Irfan Raza. “Chinese hostages freed.” (27.08.2024) <https://www.dawn.com/news/253217/chinese-hostages-freed>

⁵ “U.S. Aid to Pakistan by the Numbers.” – American Progress. (27.08.2024) <https://www.americanprogress.org/article/u-s-aid-to-pakistan-by-the-numbers/>

**TIJORAT BANKLARI BARQARORLIGINI SAMARALI BOSHQARISH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

Axmedov Samandar Sayfullo o`g`li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Jahonda tijorat banklari barqarorligini samarali boshqarish mexanizmini takomillashtirishga oid muammolarni ilmiy asosda hal etish yuzasidan ilmiy izlanishlar davom ettirilmoqda, jumladan, banklarning kapitallashuv va likvidlilik darajasini oshirish, kreditlash mexanizmini takomillashtirish, har toifadagi risk darajasini pasaytirish masalalariga e'tibor kuchaytirilmoqda. Bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, xalqaro tajribani hisobga olgan holda, bank tavakkalchiligini baholashni takomillashtirish, tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishning zamonaviy tamoyillari hamda mexanizmlarini joriy etish kabi tadbirlar tijorat banklar amaliyotida samarali boshqarish tizimini qo'llashni dolzarb masala qilib qo'ymoqda.

O'zbekiston Respublikasida barcha sohalarda bo'lgani kabi moliya bozorida, shu jumladan, bank sektorida o'tkazilayotgan islohotlarda tufayli sohada sezilarli siljishlar va o'zgarishlar amalga oshirilmokda. Bu o'zgarishlar mustaqillik yillarida jahon andozalariga mos keladigan bank tizimini bosqichma- bosqich barpo etish bilan hamohang tarzda davom ettirilmokda. "Banklarning moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlash borasida amalga oshirilgan samarali chora-tadbirlar mamlakatimiz tijorat banklariga kreditga layoqatlilik bo'yicha taqdim etilgan xalqaro reytinglarini yaxshilashga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Bank tizimi va uning tuzilishi serqirrali va murakkab aloqalarga asoslangan tizimdir. Uning turli tamoyillarini ko'rish, turli holatlariga qarab guruhlash mumkin. Masalan, ularni tashkiliy tuzilishiga ko'ra intitutsional chizma ko'rinishida ko'rib chiqish mumkin. Bundan tashqari bank tizimini bajaradigan funksiyalari, o'zaro aloqadorligi, mavkei, maxsus yo'nalishi, bajaradigan operatsiyalariga va ularni tatbiq etilishiga qarab ham guruhlash mumkin.

Jumladan, ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda ta'kidlanganidek bank tizimi- mamlakatning yagona pul-kredit mexanizmi doirasida o'zaro bog'liqlikda faoliyat yurituvchi

moliya-kredit institutlari majmuasi deb yuritiladi¹. Ularning fikriga ko'ra bank tizimi-bu mamlakat xududida tarixan shakllangan va qonun bilan mustahkamlangan kredit tashkilotlarining faoliyat ko'rsatish shaklidir.

Aktivlar menejmentida banklar aktivlar tuzilishi, miqdorini kredit berish muddatlariga rezerv doirasida muvofiqlashtirishga e'tibor berganlar. Majburiyatlar menejmentida esa banklar yangi qo'shimcha pul mablag'larini topish (jumladan, banklararo bozordan qarz olish) va aktivlar chegarasini saqlashga e'tibor qaratmog'i lozim. Tijorat banklari faoliyatidagi vujudga keladigan risklarni boshqarish borasidagi siyosati uning aktivlari va passivlarini shakllantirishda o'zaro qarama-qarshi bo'lgan likvidlilik-foydalilik hamda risklilik ko'rsatkichlari o'rtasidagi oqilona nisbatni ta'minlashga qaratilishi lozim.

Rivojlangan mamlakatlarda banklarda majburiyatlar menejmentiga e'tibor kuchayishi va kredit berishda o'zgaruvchi foiz stavkasiga (LIBOR – London inter bank offer rate) o'tish natijasida banklarning buxgalteriya balansi ancha kengaydi. Banklar majburiyatlarini samarali boshqarib foiz stavkalarini o'zgartirib banklar aro bozorlaridan mablag'larini jalb qilgan holda bank kreditlariga bo'lgan talabni qondirishga erishmoqdalar.

Naqd pullar menejmentidagi texnologik yangiliklar yangi turdagi moliyaviy mahsulotlar: kredit kartalari, fondlarni elektron o'tkazish (EFT) vositalari, avtomatik kassir mashinalari (ATM), sotish manzilidagi mashinalari (POS) taklif etish natijasida boshqarish samaradorligini oshishiga va operatsion xarajatlarni pasaytirishga sabab bo'lmoqda.

Nazariy jihatdan banklarning globallashuvi uchta yo'nalishda amalga oshiriladi (Kanale 1997) birinchi yo'nalishi chet mamlakatlarda filial tarmoqlarini ochish. Misol uchun, SITI guruhi va BARKLEYSlarni olaylik. Ikkinchi yo'nalish – banklarni sotib olish va banklarning qo'shilishi; uchinchi banklar ishtirokida strategik alyanslar tuzish.1984 yil Doych bank Morgan Grinfeldni sotib olgan. XST banking GATS banki bilan qo'shilishi bunga misol bo'la oladi.

Globalizatsiya jarayoni banklar tomonidan "xavfsizlik" muammosini hal qilishga bo'lgan e'tiborini kuchaytirdi. Umuman olganda "xavfsizlik" muammosi ikkita jarayonni birlashtiradi:

¹ Банки и банковское дело. Учебник для вузов.2-е изд.-СПб: Лаврушин О.И. Банковское дело. Экспресс курс: Учеб. пособие. / Под ред. О.И.Лаврушина – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Кнорус, 2009. – 352 с.

1) banklar o'zlarining bozor aktivlarini – uy sotib olish va yengil mashina qarzlari – qimmatli qog'ozlar bozoriga yo'naltiradi. Chet el tajribasida buni Asset-backed securities (ABS) deb ataydi.

2) moliyaviy vositachilikka qarshi bo'lgan jarayon, ya'ni kapital bozorlaridan to'g'ridan-to'g'ri qarz olish hisoblanadi.

Banklarning kelgusidagi iqtisodiyotdagi roli haqida turli fikrlar bayon qilingan. Jumladan, xorij adabiyotlarini sharhlab XXI asrdagi banklarning quyidagi xususiyatlarini qayd etish lozim:

1. Banklarni qayta tuzish, uning funksiyalarini bir-biridan ajratish va ayrim hollarda narxlash va alohida xizmat ko'rsatish;

2. Kapitalni shakllantirish – ko'pgina banklarda ortiqcha kapitalning mavjudligi bank operatsiyalarini bajarishda va faoliyatini amalga oshirishda kapitaldan mohirona qo'llashni, kredit risklariga bardosh berishi uchun yangi ulushlarini qayta sotib olish operatsiyalarini bajarishni talab etadi;

3. Banklar o'zaro subsidiyalash funksiyalarini yo'qotib uning o'rmini bozorga kirib kelgan yangi banklar egallamoqda;

4. Banklar asosiy funksiyalarini (kredit berish va qimmatli qog'ozlar bozorida harakat qilish) kuchaytirishlari lozim. Ularning (banklarning) qiyosiy ustunliklari axborot yig'ishda, uni sir saqlashda, risk tahlilini bajarishda, bergan qarzlarni monitoring qilish, qarz kontraktlarini tuzish va brokerlik faoliyatini olib borishidir;

5. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi banklarning "xavfsizlik" muammosini nisbatan ikkinchi darajaga so'rib qo'ysada, u yanada banklar taraqqiyotida, defoltga uchramasligi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda;

6. Rivojlangan mamlakatlarda banklar daromadining katta qismi balansdan tashqaridagi biznes faoliyatidan shakllanadi.

Bank operatsiyalari va boshqaruvi samaradorligini oshirish, xizmatlar turini rivojlantirish uchun har tomonlama asoslangan va xorij mamlakatlarida keng qo'llaniladigan strategiyani amaliyotda joriy qilish korxonalar ustunlikka erishishining asosiy yo'lidir. Bank strategiyasi bank operatsiyalari va faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan missiya, uzoqni ko'ra bilish, maqsad va vazifalarni, bozorda faoliyat olib borish chora va tadbirlarni, amalga oshirayotgan ishlarning monitoringi va natijalar nazoratini qamrab oladi.

Keyingi yillar davomida respublikamiz iqtisodiyoti barqaror rivojlanmoqda. Mamlakat iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini hamda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, jumladan, inflyatsiyaning tasdiqlangan parametrlar doirasida bo'lishi va milliy valyuta barqarorligini ta'minlashda bank tizimi, pul-kredit siyosatining bozor instrumentlaridan keng foydalanish o'z natijasini bermoqda.

Bazel 3 tavsiyalariga binoan banklar likvidligini baxolash tizimiga quyidagi ikkita talab kiritildi.

1. Banklarning 30 kunga bo'lgan joriy majburiyatlarining likvid aktivlar bilan 100 foiz qoplanishi zarurligi;

2. Uzoq muddatli likvidlik me'yoriga qo'shimcha sifatida banklarning bir yilgacha bo'lgan aktivlari barqaror passivlari bilan 100 foizgacha ta'minlangan bo'lishi shart qilib qo'yildi. Moliya bozorlarida keskin raqobat kuchayotgan bir paytda risk menejmentini, bank aktivlari bilan bog'liq bo'lgan risk darajasini aniq o'lchash, zamoanaviy boshqarish usullarini qo'llash katta ahamiyatga ega.

Tijorat banklari menejmentida muqobil bank strategiyasini ishlab chiqishda asosiy e'tibor tashqi muhitni o'rganish, jahondagi va mamlakat ichkarisidagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va texnikaviy omillardagi o'zgarishlarni kuzatish va e'tirof etish zarur. Ikkinchi bosqichda tijorat banklarining ichki resurslari, imkoniyatlari va potentsiali tahlil etilib bankning afzalliklari va zaif jihatlari aniqlanadi va keyinchalik bankning rivojlanish va raqobat strategiyasi qabul qilinadi.

Bugun O'zbekistondagi ijtimoiy xayotning barcha jabhalarida o'tkazilayotgan tub o'zgarishlar o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tarildi. Yana shuni ta'kidlab o'tish mumkinki, bozor munosabatlari sharoitida Markaziy bank tijorat banklarining likvidlik darajasi yuqori o'rganilgan talab darajasida bo'lishini nazorat qiladi, ammo bizning fikrimizcha, xizmatlarning daromadlilikiga ham e'tibor berish zarur.

Bundan tashqari, bank xizmatlari yuqori daromad olishni emas, balki uning mijozlar oldidagi, qolaversa jamiyat oldidagi reputatsiyasini yanada oshirish maqsadida amalga oshirilishi ham mumkin. Mazkur vazifa hozirgi kunda bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda iqtisodiy o'sishga erishishning bir qator nazariy asoslari mavjud bo'lib, ular orasida eng asosiylaridan biri bank tizimini rivojlantirishdir. Banklar filiallari va bo'limlari sonini ko'payishi raqobatning kuchayishidan dalolat beradi.

Shu vazifalarni bajarish nuqtai nazaridan bank operatsiyalarini va xizmatlarini boshqarish funksiyalarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Ular quyidagilardan iborat:

1.Uzoq muddatli xizmatlarini boshqarish strategiyasini bozor talablarini va o'z potensialini hisobga olgan holda rejalashtirish;

2.Talab asosida yangi xizmatlarni joriy qilish va ularni sotish;

3.Bankning operatsiyalarini (aktiv va passivlarini) boshqarishni tashkil qilish va uning ustidan nazorat o'rnatish. Balansdan tashqari bo'lgan operatsiyalarni joriy etish uchun rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish;

4.Bozorni va mijozlarning hatti –harakatini segmentlarga bo'lgan holda o'rganish va istiqbolini belgilashdir.

Adabiyotlar:

1. Банки и банковское дело. Учебник для вузов.2-е изд.-СПб: Лаврушин О.И. Банковское дело. Экспресс курс: Учеб. пособие. / Под ред. О.И.Лаврушина – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Кнорус, 2009. – 352 с.

2. Бердияров Б.Т.Тижорат банклари актив операцияларининг даромадлилиги. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. - Тошкент.БМА. 2002. -21 б.;

3. Котов В.А. Организация рынка ценных бумаг. -Т. «Молия» 2007.; Бутиков ИЛ. Ринк ценных бумаг Узбекистана: проблемы формирования и развития. Т.: «KOK8A1L)1TSH0KM KA8HK» 2008.;

4. Сатторов О.Б. Тижорат банклари лавқддлигиш таъминлашни такомиллаштириш. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. - Тошкент, БМА, 2008. - 21 б.;

5. Тожиев Р.Р. Тижорат банклари ликвидлигини бошқаришнинг инновацион стратегияси.(“Агробанк”ОАТБ мисолида). Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация.-Т.: ТДИУ.2011.

6. <https://elibrary.ru/item.asp?id=35363676>.

NUTQ TOVUSHLARINING TASNIFI

Muxammadiyeva.Sh.B¹

Erkinova Barno A'zam qizi²

Shahrisabz davlat pedagogika institute asisstenti¹

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi² Shahrisabz davlat pedagogika instituti

ANNOTASIYA Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun unli va undosh tovushlarga xos ilmiy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tovush, unli, undosh, tasnif, til, so'z

ABSTRACT This article provides science information specific to vowels and consonants for elementary school students.

Key words: Sound, vowel, consonant, classification, language, word

Nutq tovushlari ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra ikkita katta guruhga ajratiladi: unli tovushlar va undosh tovushlar. Unli tovushlar talaffuz qilinayotganda o'pkadan chiqayotgan havo oqimi tarang tortilgan bo'lib, un paychasi tor oraliqdan o'tayotgan paytda un paychalarini tebratadi. O'sha joyda un (tovush, ovoz) paydo bo'ladi. Havo oqimi bilan aralash un og'iz bo'shlig'i, burun bo'shlig'i, bo'g'ish bo'shlig'i va lablarning to'siqqa uchramay chiqishidan hosil bo'ladi. Nutq a'zolari orqali to'siqqa uchramasdan chiqqan tovushlar inli tovushlar deyiladi. Unli tovushlar tarkibida mutlaqo shovqin bo'lmaydi.

Unli tovushlarni sof tovush ham deyish mumkin.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida 6 ta unli tovush mavjud: a, e, i, o, o', u

O'zbek tilida unli tovushlar uch xil yo'l bilan tasniflanadi:

1. Tilning gorizontaal (yotiq) harakatiga ko'ra:

- a) old qator unlilar: a, e, i;
- b) orqa qator unlilar: o, o', u.

Shunday bo'lishining asosiy sababi, til oldi qator unlilar (a,e,i) talaffuz qilinganda tilning oldingi qismi kamroq harakatga keladi. Til orqa unlilar (o,o',u) talaffuz qilinganda tilning orqa qismi harakatga kelib, ko'pincha yumshoq tanglay tomon yo'naladi.

2. Tilning vertikal (tik) harakatiga ko'ra:

- a) yuqori tor unlilar: i, u;
- b) o'rta keng unlilar: e, o';
- c) quyi keng unlilar: a, o.

Unlilar tor, o'rta keng, quyi keng bo'lishiga sabab shuki, ular talaffuz qilish vaqtida quyi jag'ning pastga tushishi, tilning qattiq tanglaydan uzoqligi har xil darajada bo'ladi.

3. Lablarning ishtirokiga ko'ra:

- 1) lablangan unlilar: u, o', o;
- 2) lablanmagan unlilar: i, e, a.

Lablangan unlilar (u,o',o) talaffuz qilinganda lablar oldinga cho'chchayadi va o'pkadan chiqayotgan havo cho'chchaygan lablar orasidan to'siqqa uchramay chiqadi. Lablanmagan unlilar (i,e,a) talaffuz qilinganda esa lablar ishtirok etsa ham ularning ishtiroki passiv bo'ladi, deyarli, sezilmaydi. Undosh tovushlari talaffuz qilinayotganda o'pkadan chiqayotgan havo oqimi ma'lum, to'siqqa uchraydigan shovqin ishtirok etadigan va bo'gin hosil qilmaydigan tuvushlarga undosh tuvushlar deyiladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida 24 ta undosh tovush mavjud: b, v, g, d, j, z, y, k, l, m, n, ng, p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, g', h.

1. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra:

- a) jarangli undoshlar: b, v, g, d, z, j, dj, g', y, l, m, n, ng, r;
- b) jarangsiz undoshlar: p, f, k, t, s, ch, sh, q, x, h.

Jarangli undoshlar talaffuz qilinganda tovush paychalari ishtirok etib taranglashadi va ular orasidagi tor oraliqda o'tayotgan havo oqimi tovush paychalarini titratib o'tadi. Jarangsiz undoshlar talaffuz qilinganda esa, ularda ovozdorlik sezilmaydi, chunki ular faqat shovqindan iborat bo'ladi. Tovush paychalari taranglashmaydi va ular orasidagi keng oraliqdan o'tayotgan havo oqimi tovush paychalarini deyarli titratmay o'tadi. Ular faqat tovushdan iborat bo'ladi. Shuningdek, ular tarkibiga ko'ra sof va qorishiq, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra sonorlar(ovozdorlar) va shovqinlilar deb ham tasniflanadi. **Sonorlar:** l, m, n, ng, r

Bularning ichidam, n, ng burun tovushi, l yon tovushi, r titroq tovushi. Sonorlar unilarga yaqin tovushlar.

2. Hosil bo'lish usuliga ko'ra:

- a) portlovchi undoshlar: b, p, d, t, g, k, j, q, m, n, ng;
- b) sirg'aluvchi undoshlar: v, f, z, s, y, r, l, sh, g', x, h, dj;
- c) qorishiq undoshlar: ch.

Portlovchi undoshlar talaffuz qilinganda havo yo'li birdaniga to'silib, birdaniga ochilishi natijasida portlash yuz beradi. Bu undoshlarning talaffuzida tilning uchi yuqori tishning milkiga borib tegishi yoki labning bir-biriga yopishuvi natijasida havo yo'li bekinib qoladi, to'siq hosil qiladi o'pkadan kelayotgan havoning kuchi to'siqni birdaniga ochishi natijasida portlash yuz beradi. Va portlovchilar hosil bo'ladi. Sirg'aluvchi tovushlar talaffuz qilinganda nutq a'zolari havo oqimi, yo'lini to'sadi-yu, lekin orada qolgan kichik tirqishdan havo sirg'alib chiqadi, natijada sirg'aluvchi tovushlar hosil bo'ladi. Qorishiq undoshining ya'ni ch undoshining qorishi deb atalishiga sabab shuki, u tarixan ikki tovushning (t va sh)birikivudan iborat bo'lib, biri portlovchi va biri sirg'aluvchi tovushni o'z ichiga oladi. Demak, u nutq a'zolarining bir yerda paydo bo'lgan, ajratilmay aytiladigan tovushni bildiradi.

3. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra:

1. Lab undoshlarini b, p, m, v, f undoshlari tashkil etadi. Lab undoshlarining ba'zilari ikki lab orasida paydo bo'ladi, ba'zilari esa pastki lab bilan ustki tishlar

orasida hosil bo'ladi. Shunga ko'ra lab undoshlarini ikki turga bo'lish mumkin: **a) lab-lab undoshlari:** b, m, p; **b) lab-tish undoshi:** v, f.

2. Til undoshlaribevosita til ishtirokida hosil bo'luvchi tovushlarhisoblanadi. Undoshlar tilning qaysi qismida hosil bo'lishiga ko'ra ham bir-biridan farq qiladiva 4 guruhga bo'linadi:**a)** til oldi undoshlari: dj,j, z, l, n, r, s, t, ch, sh; **b)** til o'rta undoshi: y; **c)** til orqa undoshlari: k, g, ng; **d)** chuqur til orqa undoshlari: q, g', x.

3. Bo'g'iz undoshi. Bo'g'iz undoshi faqat bitta htovushidan iborat bo'lib, u bo'g'iz bo'shlig'ida un paychalari orasidagi tor oraliqda hosil bo'ladi.

Xulosa:Umuman olganda, nutq tovushlarining tasnifi nutq tilini tashkil etuvchi turli elementlarni tushunish va tahlil qilishimizga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гуландом Мирханова. (2022). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУҒАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 1(2), 172–178. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/90>

2. Gulbahor, T. (2016). Adjusted Meanings of Moral-Spiritual Concept Defining Units. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 5(7), 40-45.

3. Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег гурухлари. Oriental Art and Culture, (III), 440-444.

4. Ergashevna, Y. N. (2021). ON METHODS OF RESEARCH OF UZBEK LANGUAGE SYNTAX. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(11), 22-28

5. Sh. Turniyozov . Tilshunoslikka kirish “ Ma’ruzalar matni”. Samarqand -2006

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASINING FUQAROLARNING PENSIYA TAMINOTI TIZIMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Ф.М. Пардаев

Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги бошқарма бошлиғи ўринбосари

Ўзбекистон Республикасининг пенсия тизими “Авлодлар бирдамлиги” тамойили асосида, кўплаб бошқа мамлакатларда бўлгани каби, мамлакатдаги меҳнатга лаёқатсиз аҳолининг турмуш даражасини таъминлаш ва қўллаб-қувватлашга қаратилган қатор чора-тадбирларни амалга оширишни назарда тутди.

Тизим **3,3 миллиондан ортиқ** фуқароларни ёки умумий аҳолининг **10 фоизини** қамраб олган.

Сўнги йилларда Ўзбекистон Республикасида давлат пенсия таъминоти тизимида пенсия суғуртаси тамойилларини киритилишига боғлиқ бўлган, модернизациялар амалга оширилган.

Бугунги кунда **иш ҳақлари таркибидан ҳисоблаб чиқилган суғурта бадалларини ҳисобга олиш бўйича ягона маълумотлар базаси** яратилган.

2011 йилдан бошлаб пенсияни ҳисоблаш учун олинадиган иш ҳақларини **замонавийлаштириш бўйича яқка тартибдаги коэффицентини ҳисоблаб чиқиш тартиби** жорий этилган.

2012 йилдан бошлаб пенсия ва ижтимоий нафақа олувчиларнинг **Ягона электрон маълумотлар базаси** фаолият кўрсатмоқда, **10 дан ортиқ бошқа вазирлик ва идораларнинг электрон маълумотлар базаси** билан интеграциялашган ҳолда пенсияларни ҳисоблаш ва тўлашнинг **автоматлаштирилган комплекси** яратилди.

2015 йилдан бошлаб эса **жисмоний шахсларнинг ҳисобланган суғурта бадалларини юритиш бўйича Ягона реестр тизими** жорий қилинди.

Шу билан бирга, Пенсия таъминоти тизимини ривожланиш ва билансига таъсир кўрсатадиган, бошқа давлатларга ҳам хос, **бир қатор салбий омиллар** мавжуд.


Ўтказилаган таҳлил натижаларга кўра, яқин келажакда қуйидаги омиллар пенсия ва бошқа ижтимоий нафақаларни молиялаштиришга салбий таъсир кўрсатиши мумкин:

1. Демографик ўзгаришларнинг пенсия таъминоти тизимига таъсири


Сўнги йилларда, Ўзбекистон Республикасида мамлакатнинг иқтисодий фаол аҳолисига пенсия тўловлари бўйича юки ошмоқда. Аҳолининг 2018-2025 йиллари учун

демографик прогнозларга кўра, пенсия ёшидаги аҳолининг улуши (1,2 млн. кишига) ошиши кутилмоқда, бу эса ўз навбатида Пенсия жамғармаси харажатларининг мутаносиб равишда ошишини кўрсатади.

Ёшга доир пенсия тайинлаш учун мурожаатларнинг асосий ўсиши, туғилиш даражаси юқори бўлган (“Беби-бум” 50 – 60-йиллар) даврда туғилган фуқароларни, умумий белгиланган пенсия ёшига етиши билан боғлиқ.




**2-расм. Ўзбекистон демографик кўрсаткичлари прогнози
(2010-2050 йй.)**



расм. Ўзбекистон аҳолиснинг ёш таркиби, 1991-2050 йй., %

3-

Шу билан бирга, ўтказилган таҳлиллар шуни кўрсатадики, дунёда эркак ва аёллар учун ўртача пенсия ёши 62 ёшни ташкил этса, Ўзбекистон Республикасида ушбу кўрсаткич 57,5 ёшни ташкил этади (аёллар учун – 55 ёш, эркаклар учун эса – 60 ёш).



4-расм. 2018 йил ҳолатига давлатларда умр кўриш давомийлиги ва ёшга доир пенсия чиқиш талаблари¹

2. Ижтимоий суғурта тизимини молиялаштиришда аҳолини мутаносиб иштирокини таъминлаш зарурияти

Фуқароларнинг ижтимоий суғурта тизимида узлуксиз ва узоқ муддат иштирокини рағбатлантириш механизми мураккаб ва шаффоф бўлмасдан қолмоқда, бунинг натижасида меҳнатга лаёқатли аҳолининг деярли 60% (қарийб 17 млн. киши), демак 10,2 млн. киши давлат ижтимоий суғуртаси билан қамраб олинмаган, яъни Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги бюджетдан ташқари Пенсия жамғармасига мажбурий ижтимоий тўловларни амалга оширмаяпти.

Ҳалқаро меҳнат ташкилотининг талабарига мувофиқ, фуқароларнинг пенсия таъминоти тизимини барқарор ривожланиши учун бадал тўловчилар сонининг пенсия олувчиларга ўзаро нисбати 1:4 даражада бўлиши керак. Бироқ, бугунги кунда Ўзбекистонда бу кўрсаткич ўртача 1:1,5га тенг. Шунини таъкидлаб ўтиш жоизки, пенсионерлар сонининг ишловчи аҳолига нисбати 2009 йилдаги 61 %дан 2017 йилда 66 %га ўсди.


1-жадвал

**Пенсия ёшидаги аҳолининг боғлиқлик коэффициенти
(65 ва ундан юқори ёшдагиларнинг 15-64 ёшдаги ишчи кучига нисбати)**

Давлатлар	2015 йил	2020 йил	2025 йил	2030 йил	2035 йил	2040 йил	2045 йил	2050 йил
Хитой	12,0	15,1	17,6	21,4	26,7	31,0	32,0	33,4
Жанубий Корея	16,3	19,6	25,7	32,6	39,6	46,1	50,3	54,7
Тайланд	11,2	13,7	17,0	20,5	23,6	25,8	27,1	28,4
Белоруссия	17,3	19,0	22,9	26,1	27,3	29,0	31,5	36,1
Грузия	19,7	21,9	25,9	30,6	32,1	33,4	34,7	37,6
Қозоғистон	9,1	10,6	12,6	14,4	15,2	16,4	17,8	19,9
Россия	17,5	20,1	24,0	26,6	26,9	27,9	29,9	34,2
Украина	20,8	22,5	25,6	28,1	28,9	30,3	32,6	36,9
Ўзбекистон	5,7	6,6	8,7	10,9	12,4	14,0	15,6	18,2
Австралия	21,2	23,5	26,2	28,5	29,9	31,2	31,4	32,0
Франция	26,4	28,9	31,5	33,8	35,5	36,7	36,5	36,9
Япония	38,7	41,9	43,2	44,4	47,2	53,5	57,6	59,7
Буюк Британия	24,9	25,8	27,2	29,7	32,1	33,2	33,0	33,5
АҚШ	19,3	21,9	24,8	27,1	27,9	28,1	28,2	28,9
Аргентина	15,1	16,0	17,0	18,0	19,1	20,8	23,7	26,1
Бразилия	10,2	11,9	14,2	17,2	20,0	22,8	26,3	30,7

3. Молиявий маблағларни тақсимлашдаги самарасиз инструментларнинг мавжудлиги ва ижтимоий суғуртадаги рағбатлантирувчи механизмларнинг заифлиги

Иш стажига нисбатан 7 йил давомийликдаги минимал талабнинг мавжудлиги фуқароларнинг давлат ижтимоий суғуртасидаги иштирокида салбий акс этади. Масалан, ҳозирги вақтда, иш ҳақининг ўртача даражасида 30 йил иш стажига (талаб этилган – 25 йил) эга бўлган эркак кишининг пенсия миқдори билан 10 йиллик иш стажига эга бўлган (минимал талаб этилган – 7 йил) эркак кишининг пенсия миқдори ўртасидаги фарқ тахминан 200 минг сўми ташкил этади.



5-расм. 2017-йилда айрим мамлакатларда пенсия олиш учун талаб этиладиган энг кам иш стажы, йил ҳисобида

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi
boshqarma boshlig‘i**

B.B. Khidirbaev

**KAMBAG‘ALIKNI QISQARTIRISH YO‘NALISHIDA YANGI
YONDASHUVLARNI JORIY QILISH**

KIRISH

Kambag‘allik masalasi zamonaviy dunyoning eng dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolaridan biridir. Aholi turmush darajasini yaxshilash, kambag‘al oilalar va mahallalarning iqtisodiy ahvolini yaxshilash iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadlaridan hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyati esa iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim vositadir. Ushbu tezisda tadbirkorlarni kambag‘al oila va mahallalarning rivojlanishiga jalb qilishning usullari, natijalari va istiqbollari ko‘rib chiqiladi.

ASOSIY QISM

1. Kambag‘allikni kamaytirishda tadbirkorlikning ahamiyati:

Yangi ish o‘rinlarini yaratish:

Tadbirkorlik faoliyati tufayli mahallalarda yangi ish o‘rinlari yaratiladi, bu esa kambag‘allikni kamaytirishda asosiy omil hisoblanadi.

Mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish:

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash orqali mahalliy ishlab chiqarish kengayadi, xizmat ko‘rsatish sohalari rivojlanadi.

Aholi daromadlarini oshirish:

Tadbirkorlik imkoniyatlari orqali mahalla aholisi doimiy daromad manbaiga ega bo‘ladi.

Innovatsiyalarni jalb qilish:

Tadbirkorlar tomonidan kiritilgan yangi texnologiyalar va ish uslublari mahalliy iqtisodiyotni samarador qiladi.

2. Kambag‘al oilalar va mahallalar bilan ishlashda tadbirkorlarni jalb qilish yo‘llari:

2.1. Moliyaviy yordam va rag‘batlantirish mexanizmlari:

Imtiyozli kreditlar va subsidiyalar:

Tadbirkorlar uchun davlat tomonidan past foizli kreditlar ajratilishi ular faoliyatini rivojlantirishga imkon beradi.

Davlat tomonidan grantlar berish:

Tadbirkorlik loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida grant dasturlarini kengaytirish.

Soliq imtiyozlari:

Kambag'al mahallalarda faoliyat yurituvchi tadbirkorlarga soliqlar bo'yicha yengilliklar yaratish.

2.2. Mahalliy imkoniyatlarni aniqlash va rivojlantirish:

Mahalla resurslarini tahlil qilish orqali qaysi sohalarni rivojlantirish samarali bo'lishini aniqlash.

Mahallalarda mavjud muammolarni aniqlab, ularga tadbirkorlik yechimlarini taklif etish.

2.3. Kambag'al oilalar uchun tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish:

O'quv dasturlari:

Kambag'al oila vakillariga tadbirkorlik va biznes yuritish bo'yicha bepul treninglar o'tkazish.

Kooperativlar tashkil etish:

Mahalliy tadbirkorlik loyihalarida kambag'al oilalar va mahalla vakillarining faol ishtirokini ta'minlash.

2.4. Tadbirkorlikka ijtimoiy mas'uliyat yuklash:

Tadbirkorlarning kambag'al oilalarga homiylik qilishlari uchun davlat tomonidan motivatsiya berish.

Mahallalardagi ijtimoiy loyihalarda tadbirkorlarni bevosita ishtirok ettirish.

3. Amaliyotdagi natijalar:

Misollar:

Samarqand viloyatida amalga oshirilgan loyihalarda kambag'al oilalarning daromad manbalari 30% ga oshgan.

Toshkent shahrida tadbirkorlar ishtirokida tashkil etilgan ishlab chiqarish korxonalarini minglab oilalarni ish bilan ta'minlagan.

Natijalar:

Mahallalarda iqtisodiy faollik oshgan.

Shu o'rinda savol tug'iladi. Globallasuv faqat tarixiy taraqqiyot mantig'i bilan bog'liq tabiiy jarayonmi yoki uni kinningdir irodasi ham boshqaryaptimi? Bugungi kunda kuchli, yetakchi davlatlar qatoriga asosan G'arb davlatlari kirishi hamda ikki qutbli dunyo barham topishi bilan G'arb yakka hukmronlikka intilayotgani ma'lum. Rus olimi V.L.Inozemsev bu borada shunday yozadi: "Globallasuv, aslini olganda, ko'klarga ko'tarib maqtalayotgan "umuminsoniy qadriyatlarga tayanuvchi yagona tamaddunning shakllanish jarayonini emas, balki mutlaqo o'zga holatni - jamiyatning "g'arbona" modelining ekspansiyasini va dunyoning ana shu modelga moslashishini ifodalaydi. Jahondagi ko'plab olimlar tomonidan "axborot neokolonializmi" "axborot urushlari", "madaniy imperializm" , "madaniy gegemoniya" , "axborot ekspansiyasi" kabi atamalarning tez-tez qo'llanilayotgani bejiz emas.

Shakllanib kelayotgan global madaniyatning o'z tarqalish vositalari mavjud. Mutaxassislar buning to'rt asosiy vositasini qayd etishadi. Birinchisini dunyoning etakchi ishbiarmon va siyosiy arboblar doirasining xalqaro madaniyati. Uni Semyuel Xantington "Davos madaniyati" deb ataydi. Bu global iqtisodiy tizimning ishtirokchisi bo'lishga, muvaffaqiyat qozonishga intilganlar doirasida shakllanayotgan madaniyatdir.

Ikkinchi doira sifatida g'arb ziyolilarining global madaniyati. Uni Piter L. Berger "intellektuallarning klub madaniyati" deb ataydi. Bu madaniyatning asosini g'arb, asosan Amerika intellektuallari ilgari surgan va ommalashtirishga harakat qilayotgan g'oya va xatti-harakat qoidalari (masalan, inson huquqlari to'g'risidagi g'arbona ta'limotlar, atrof muhitni

muhofaza qilish, feminizm, gender tenglik kabi g'oyalar hamda mazkur mafkuraviy tushunchalarga muvofiq keladigan yashash tarzi va siyosat yurgizish qoidalari) tashkil etadi.

Uchinchi - u yoki bu shakl va ko'rinishdagi ommaviy harakatlar (diniy-kanfessional harakatlar, Grinpis, feminizm harakati va h.k).

Va nihoyat, global madaniyatni nisbatan ayon ko'zga tashlanadigan va, aytish mumkinki, eng havfli tarqatish vositasi bo'lmish "ommaviy madaniyat". Global madaniyatni dunyoga yoyuvchi bu vosita va kanallar ko'p jihatdan bir-biri bilan o'zaro bog'liq hamda alohida tadqiqotni talab etadi. Shuning uchun mazkur maqolada ularga batafsil to'xtalishning imkoniyati yo'q.

Globalashuv jarayonlarining natijalaridan biri sifatidagi amerikacha andoza asosida madaniy unifikatsiyalash, turli xalqlarning rang-barang madaniyatini inkor etish asnosida yagona jahon madaniyatini shakllantirishga bo'lgan harakatlar muayyan darajada o'z hosilini bermoqda. Bu borada amerikalik siyosatshunos Z.Bzejnskiy shunday yozadi: 'Madaniy ustunlik Amerika global kuch-qudratining muhim jihati sanaladi. Ayrimlar o'zining estetik qadriyatlarini haqida qanday fikrda bo'lmasin, Amerika ommaviy madaniyati, ayniqsa, jahon yoshlarini ohangrabo kabi o'ziga tortadi. Uning jozibadorligi ehtimol shu madaniyat orqali targ'ib qilinayotgan hayotni sevish falsafasi, hayot sifati bilan bog'liqdir, lekin Amerika madaniyatining jozibadorligi shak-shubhasizdir. Amerika televizion dasturlari va filmlari jahon bozorining qariyb to'rtidan uch qismini egallagan. Amerikaning ommabop musiqasi ham ustuvor mavqega ega, shuningdek, amerikaliklarning qiziqishlari, ovqatlanishdagi odatlari, hattoki, kiyinishlariga butun dunyoda taqlid qiladilar. Internet ingliz tilida va kompyuterdagi so'zlarning aksariyat qismi Amerikadan bo'lib, global muloqotning mazmuniga ta'sir o'tkazadi. Va nihoyat, Amerika zamonaviy ta'lim olishga intilayotganlar uchun Makkaga aylangan...'

Shunga hamohang tarzda nemis olimi U.Bek "Globalashuv nima?" kitobida "Hozirgi dunyoni, uning inqiroz va olg'a siljishlarini "madaniy siyosat", "madaniy kapital", "madaniy o'ziga xoslik", "madaniy gomogenlik", etnik, irqiy va jinsiy mansublik kabi tayanch so'zlar bilan ifodalanadigan voqealarning mazmuniga e'tibor qilmasdan, tushunish mumkinligi" haqidagi fikr hamda qarashlarni bema'nilik deb ataydi.

Mazkur fikriga qo'shilgan holda aytish mumkinki, keng yoyilib borayotgan global madaniyat o'z kelib chiqishi va mazmuniga ko'ra amerikacha madaniyatdir. Bu hozirgi dunyoda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning kuchli bo'lsa-da, yagona yo'nalishi emas, albatta.

Ammo bu holatni e'tibordan qochirish jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Birgina madaniyatning tarqalish omili bo'lgan tilni olaylik. Bugungi kunda ingliz tili, aniqrog'i, amerika tili dunyoga kelayotgan global madaniyatning tiliga aylanmoqda.

Bugungi kunda ham qator olimlar tilning hokimiyatga erishishdagi o'rni masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda. Xususan, fransuz olimi Per Burde tilning siyosiy maqsadlarni amalga oshirish vositasiga aylanishini kuzatib, "legitim"(qonuniy) yoki "to'g'ri" til hodisasiga e'tibor qaratadi.

Til siyosiy qurolga aylangan ekan, bu "qurol"ni "ishlab chiqaruvchilar" hamda unga egalik qiluvchilarning bo'lishi tabiiy. Shu fikr asosida P.Burde "lingvistik bozor", "lingvistik kapital" va "lingvistik kapital egalari" tushunchalarini kiritadi. Ayni "lingvistik kapital egalari" "til bozori"da narx-navo belgilash qoidalarini joriy etadi. Ular, fransuz sotsiologining fikriga ko'ra, o'zlari ishlab chiqqan sanksiyalar tizimi orqali "rasmiy til"ni qonunlashtiradi, ya'ni qaysi so'zlar qadrlil va kerakli, uning ma'no ko'lami qanday ekanligini belgilaydi. Per Burde bu holatni "ramziy hokimiyat" hodisasi bilan bog'laydi. Ramziy hokimiyat, uning nazdida, «nutq orqali mavjud holatni qonunlashtiradi, odamlarni ko'rish va ishonishga majbur etadi, dunyoni muayyan idrok etish usulini tasdiqlaydi yoki o'zgartiradi va u orqali dunyoga ta'sir o'tkazadi. Bu odamlarni deyarli sehrlab qo'yuvchi hokimiyat bo'lib, u odatda, jismoniy yoki iqtisodiy kuch bilan erishiladigan natijalarga kuch ishlatmay ega bo'lish imkoniyatini beradi"

Globalashuvning zamonaviy "liberallari" "demokratiya", "inson huquqlari" kabi muqaddas qadriyatlarni niqob qilib olib, xalqlarni mahalliy manfaatlari, azaliy qadriyatlari, axloq normalari va an'analaridan izchillik bilan uzoqlashtirish siyosatini qo'llab-quvvatlamogda.

Turli millat va xalqlarning keng ma'nodagi ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy va estetik ideallari mavjud va ularni avaylab-asrash, ularga tayangan holda odamlar hayotini tartibga solish insonparvar jamiyatning asosiy belgilaridan birini tashkil etgan. Ayniqsa, bugungi kunda, etakchilikni da'vo qilayotgan davlatlar daromad olish va iste'molchilik kayfiyatiga qaratilgan tuban qadriyatlarni asl qadriyat sifatida dunyo xalqlariga taqdim etayotgan bir sharoitda unga qarshilik ko'rsatish hamda milliy madaniy-ma'naviy ildizlarni saqlashga intilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, globalashuvning eng dolzarb bo'lgan madaniyatlararo munosabatlardagi bu tendensiyalari bizning davrimizda ziddiyat ko'rinishini kasb etmogda.

Shunday ekan, unutmash lozimki, bugungi kundagi jahon tarixi -taqdiri umumiy bo'lgan er kurrasidagi barcha xalq, mamlakat va hududlarni o'z ichiga olgan umumtamaddun oqimdir. Bu oqimga ular o'z noyob madaniyati, an'analari, betakror tarixiy tajribasi bilan qo'shiladi.

Insoniyat dunyoning rang-barangligi asosidagi birligini anglasa, tan olsa, milliy va umuminsoniylikni optimal darajasida birlashtira olsa, integratsiyalashuv jarayonining zamini yashovchan va mustahkam bo'ladi. Olomon didiga mos "ommaviy madaniyat" esa kishini insonlik martabasidan mahrum etadigan va demak, insoniyat tamadduni zaminini o'ldiradigan zahri qotildir. Shunday ekan, bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri - fuqarolarimizni, avvalambor yoshlarimizni ana shundan mafkuraviy og'udan himoyalash, xalqimizning madaniy indentivligi saqlashdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Макбрайд У.Л.нинг юкррида тилга олинган макрлалари.
2. Почепцов Г.Г. Теория и практика коммуникации. - М., Центр, 1998. С. 304.
3. Бзежинский З. Великая шахматная доска. Господство Америка и геостратегические императивы - М., 1998. С. 38.
4. Бек У. Что такое глобализация? Ошибки глобализма - ответы на глобализацию. -М., Прогресс-Традиция,2001. С. 91-92.
5. Bourdieu P. The Production and Reproduction of Legitimate Language - language and Symbolic Power. Cambridge: Harvard University Press, 1991. P. 51.
6. P.J.Byukenenning mazkur kitobidan ayrim lavhalar B.Umarov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilindi va "Jahon adabiyoti" jurnalining 2007 yil 1-, 2-sonlarida chop etildi.
7. Kitob haqida yana qarang: Umarov B. "G'arb tamadduni: inqiroz alomatlari // "Tafakkur" jurnali 2007 yil 2-son. 12-23-betlar.

**“MATNLI HUJJAT BILAN ISHLASHNI BOSHLASH” MAVZUSINI DASTURIY
VOSITALAR ASOSIDA O‘QITISH**

Nazarov Bahodir Abdusamatovich

TATU Samarqand filiali “Kompyuter injiniringi” fakulteti dekani

Telefon:+998(97) 287 83 77

e-mail: nazarovbahodir82@gmail.com

Annotasiya

Ushbu maqolada bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida 5-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan “Matnli hujjat bilan ishlashni boshlash” mavzusini o'qitishda zamonaviy dasturiy vositalar asosida multimediali taqdimotlar yaratish va ulardan foydalanib dars mashg'ulotlarini tashkil qilish masalalari muhokoma qilingan.

Kalit so'zlar: *Informatika va axborot texnologiyalari, Matnli hujjat bilan ishlashni boshlash, dasturiy vosita, elektron qo'llanma, gipermatn, ovoz, grafika, video, test, multimedia, animasiya, imitasion model, umumiy o'rta ta'lim, dasturiy vosita.*


Kirish. Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish albatta o'z samarasini beradi. Ba'zi fikr-qarashlar zamonaviy axborot texnologiyalar yoshlar ongiga ta'siri borasida tanqidiy mulohaza yuritishi tabiiy hol sababi yoshlarning qiziquvchanligi internet va mobil aloqa vositalarga bog'lanib qolishi bilan izohlanadi. Muammoni mobil texnologiya va internetni cheklab qo'yish bilan yechib bo'lmasligini barchamiz bilamiz, lekin baribir yoshlar tanqid ostida qolaveradi. Hozirgi kunda barkamol avlodni tarbiyalarshda albatta internetdagi ma'lumotlardan foydalanish madaniyatini (informatsion immunitet) o'rgatish talab etiladi. Bu texnologiyalarga qiziqishni to'g'ri maqsadga yo'naltirish milliy ma'lumotlar ba'zasini ko'paytirish bilan bog'liq. Ayniqsa ta'lim tizimida elektron qo'llanmalar va virtual ta'lim tizimlardagi milliy ma'lumotlar ba'zasining ko'payishi yoshlarning ta'lim olishlari uchun samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki darsning odatiy – ana'naviy o'tilishi o'quvchilarning 25% ga yaqini o'zlashtirishi mumkinligi pedagog olimlar tomonida isbotlangan. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bir vaqtning o'zida ham ma'ruzani eshitish, ham materialni kompyuter ekranida ko'rish va uni ekranda chiqarishni aktiv boshqarish o'zlashtirish sifatini oshiradi.

Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular

ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbollidir. "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitishda pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta'minot, qo'shimcha va yordamchi vositalar kiradi.

Muqovada berilgan tugmalardan 1-siga murojaatni amalga oshirganimizda dasturda buni ochilishini animatsion ravishda ko'rishimiz mumkin bo'ladi (1-rasmga qarang).




2-rasm. Matnli hujjat bilan ishlashni boshlash oynasi

Matnli hujjat bilan ishlashni boshlash oynasida ham bir nechta tugmalar o'rnatilgan va bu tugmalar 2-rasmda qizil chiqizlar bilan chegaralab qo'yilgan. Bundan tashqari oynaning pastki qismida orqaga va oldinga tugmalari ham o'rnatilgan bo'lib ularga murojaat qilinganda oynalar navbati bilan almashinib keladi. Bu tugmalardan yuqorida joylashgan Word dasturi belgisi ustiga sichqoncha ko'rsatkichi bosilganda Microsoft Word dasturi haqida qisqacha ma'lumotlar bayon etilgan oyna ochiladi (3-rasmga qarang).

So'z yozish uchun shu so'zga kerakli bo'lgan harflar klaviaturadan topiladi va kerakli ketma-ketlikda bosiladi. Har bir harf so'z yasash uchun ekranda yozilishni boshlaydi. Shuningdek, harflar belgilar deb ham ataladi. Gap yozish uchun birinchi so'zni

kiritganingizda yoki bitta soʻz kiritganingizda, soʻzning birinchi harfi bosh harfga oʻzgarganini koʻrishingiz mumkin. Odatda Microsoft Word har bir gapning birinchi harfini bosh harfga avtomatik ravishda almashtiradigan qilib sozlangan boʻladi. Bosh harflarda yozish harfni bosh harf koʻrinishiga oʻtkazish uchun Shift tugmasini bosib ushlab turing, keyin bosh harfda yozmoqchi boʻlgan harfni kiriting. Harfni yozib boʻlganingizdan keyin shift tugmasini qoʻyib yuborasiz.



3-rasm. Microsoft Word dasturi imkoniyatlari oynasi

Word matn muharriri Windows sistemasi muhitida ishlaydigan matn muharriri boʻlib, oddiy va murakkab strukturali matnli hujjatlarni tashkil qilish va chop etish uchun xizmat qiladi. Word matn muharriri yordamida har qanday hujjatni tez va bosmaxona talabiga javob beradigan darajada tayyorlash mumkin. Word matn muharriri matnlar ustida bajariladigan hamma operatsiyalarni kerakli barcha bajarish imkoniyatlariga ega boʻlib, zamonaviy kompyuter texnologiyasining hamma talabini oʻz ichiga oladi.


Word matn muharriri ekranda “Microsoft office” da “W” belgisi bilan koʻrsatilgan boʻladi. Uni ishga tushirish sichqoncha koʻrsatkichini “W” belgisiga keltirib, sichqonchani oʻng tugmachasini bosish bilan bajariladi. Soʻng Word matn muharriri komp’yutyer

xotirasiga yuklanadi va oddiy strukturali matnlarni kiritish uchun “Документ 1” nomli yangi fayl hosil qiladi. Agar siz murakkab strukturali hujjat (masalan xat, faks orqali jo‘natiladigan xat, hisobotlar va hakoza) tayyorlamoqchi bo‘lsangiz u holda “Файл” menyusidan “Создать” menyu ostini ishlatasiz. U yerda bir necha murakkab strukturali hujjatlar shabloni berilgan. Siz ulardan o‘zingizga kerak bo‘lgan strukturali hujjat shablonini tanlab, o‘zingizni hujjatingizni tez va yuqori darajada tayyorlaysiz. Tayyor bo‘lgan hujjat “Файл” menyusining “Сохранить” yoki “Сохранить как” komandalaridan biri yordamida saqlanadi. Word sizning hamma fayllarinigizga “.doc” nomli kengaytma nom qo‘shib saqlaydi. Ishni tamomlash uchun saqlab qo‘yilgan hujjat “Файл” menyusining “Закрывать” komandasi bilan yopiladi va “Выход” komandasi bosiladi.

Word matn muhariri oynasining umumiy ko‘rinishi quyida keltirilgan. Oynaning eng yuqori satri, sarlavha satri bo‘lib, unda matn muharrirning belgisi va nomi ko‘rsatiladi. Shu satrning eng o‘ng qismida uchta kichik tugmacha ko‘rsatilgan bo‘lib, ular mos ravishda oynani ekrandan olish, oyna kattaligini ekran kattaligiga tenglashtirish va oynani yopish vazifalarini bajaradi. Oynaning ikkinchi satri WORDning asosiy menyular satri bo‘lib, har bir menyu o‘ziga xos funksiyalarni bajaradi. Oynaning keyingi ikki satrlarida instrumyentlar paneli joylashgan va ular bajaradigan funksiyasiga mos piktogrammalari tugmachalarda berilgan. Ularning funksiyalarini bilib olish uchun sichqoncha ko‘rsatkichini piktogrammalar ustiga keltirish kifoya. Instrumyentlar panelidan keyingi satr lineyka deb ataladi va oynaning matn yoziladigan qismi satrlarini kengaytirish va qisqartirish uchun xizmat qiladi.

Yuqorida 2-rasmda keltirilgan tugmalardan navbatdagi “ПУСК” tugmasi tanlanganda ekranda “ПУСК” tugmasi elementlari berilgan oyna ochiladi (4-rasmga qarang).


Kompyuterda Windows operatsion tizim ustidan va uning yordamida kompyuter va uning qurilmalar ustidan biror bir amal bajarmoqchi bo‘lsangiz, siz “ПУСК” menyusidan foydalanishingiz mumkin. Pusk tugmasini sichqonchani chap tugmasi bilan bossangiz WINDOWS ning menyusi ochiladi.



4-rasm. “ПУСК” tugmasi elementlari berilgan oyna

Agar paydo bo‘lgan oynada “Перезагрузить” bayroqchani tanlab OK tugmasini bossak u holda kompyuter uchirib qayta yoqiladi. Agar esa Priostanovit bayroqchani tanlab OK tugmasini bossak u holda kompyuter ishini tuxtatib turadi. Agar esa “Выключить компьютер” bayroqchani tanlab OK tugmasini bossak kompyuter uchiriladi. Kompyuterni o‘chirishdan avval hamma ochik oynalar va ishlab turgan dasturlarni berkitishimiz kerak, chunki kompyuter ular ichidagi ma‘lumotlarni saqlab qo‘yishi kerak.

Yuqorida berilgan Matnli hujjat bilan ishlashni boshlash oynasida keltirilgan dasturga kirish tugmasi bosilganda ekranda dasturni ishga tushirish oynasi ochiladi va bu oynada matn kiritish amalini bajarish imkoni ham mavjud (5-rasmga qarang).



5-rasm. Microsoft Word dasturi ishchi oynasi

Yuqorida berilgan oynaning pastki qismidagi o'tkazi tugmasi ketma-ket bosilganda ekranda dasturning menyulari haqida ma'lumotlar, matnlarni qalinlashtirish, yonboshchasiga, matnni tagiga chizish, hujjatlarni formatlash, mavzular bo'yicha o'quvchilar bilimni baholash uchun testni tanlash, testni yechish, natijani ko'rish oynalari animatsion ravishda ketma-ket ochiladi, bu jarayonni dasturiy vositadan ko'rish mumkin.

Xuddi shunday umumiy o'rta ta'lim maktablari 5-sinf "Informatika va axborot texnologiyalari" fanidagi qolgan bo'limlar va mavzularining elementlari hamda tegishli masalalarini yechish jarayoni va bajaradigan vazifalari birma-bir multimediali elektron qo'llanmada animatsion ishlanmalari yordamida yoritib berilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida 5-sinf "Informatika va axborot texnologiyalari" fanining barcha mavzularini o'rgatishda multimediali elektron qo'llanmadan foydalanish o'quvchilarning o'zlashtirish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, ularga mustaqil ishlash imkoniyatlarini ham oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Lutfullayev M.X. Multimediali didaktik vositalar asosida ta'lim tizimi samaradorligini oshirish //Ta'lim va tarbiya. –Toshkent: -2003-y. -№3-4. B. 55 - 57.
2. Fayziyev Nozim Asfandiyorovich, & Toxirqulov Zufar Jurabek o'g'li. (2023). Registering and Creating Presentations on prezi.com. *World of Semantics: Journal of Philosophy and Linguistics*, 1(1), 66–71. Retrieved from <http://wos.semanticjournals.org/index.php/JPL/article/view/11>
3. Fayziyev N. THE IMPORTANCE OF IMPLEMENTING DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL SYSTEM //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2024. – T. 4. – №. 10. – C. 172-175.
4. Asfandiyorovich F. N., O'g'li T. Z. J. ZAMONAVIY DASTURIY VOSITALAR ASOSIDA XORIJIY TILLARGA OID TAQDIMOTLAR YARATISH //Science and innovation. – 2024. – T. 3. – №. Special Issue 19. – C. 359-363.
5. Asfandiyorovich F. N. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA "INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI" FANINI TAKOMILLASHTIRILGAN METODIKA ASOSIDA O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2023. – T. 3. – №. 5. – C. 198-200.
6. Asfandiyorovich F. N. TARMOQLANUVCHI ALGORITMLAR MAVZUSINI MULTIMEDIALI ELEKTRON QO'LLANMALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH //ЎЗБЕКИСТОННИНГ МУСТАҚИЛЛИК ДАВРИДАГИ ЯНГИ ТАРИХИ ВА ФАЛСАФИЙ ТАФАККУРИНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ. – 2022.

IJTIMOYIY ADOLAT DIALEKTIKASI, INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARI

Teshaboev Muhiddin Marifovich,

Falsafa fanlari bo'yicha Falsafa doktori (PhD), TITU FF dotsenti.

[*muhiddinsifat82@gmail.com*](mailto:muhiddinsifat82@gmail.com)

Annotatsiya: Maqolada Ijtimoiy adolat dialektikasi haqiqatda, shaxsiy va umumiy huquqlarni saqlash va ta'minlashga qaratilgan mexanizmlar jamiyati va adolatlikni ta'minlash jarayonida kechadi. Ijtimoiy adolat dialektikasi o'zida bir nechta munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy adolat metafizikasi, maxsus adolat, umumiy adolat, ijtimoiy adolat dialektikasi, fuqarolik jamiyati, jamoaviy mentalitet.

Аннотация: В статье диалектика социальной справедливости имеет место в реальности, в процессе обеспечения общества механизмами, направленными на сохранение и обеспечение индивидуальных и общих прав и в процессе обеспечения справедливости. Диалектика социальной справедливости включает в себя несколько отношений.

Ключевые слова: метафизика социальной справедливости, особая справедливость, общая справедливость, диалектика социальной справедливости, гражданское общество, коллективный менталитет.

Abstract: In the article, the dialectic of social justice takes place in reality, in the process of ensuring the society of mechanisms aimed at preserving and ensuring individual and common rights and in the process of ensuring justice. The dialectic of social justice includes several relationships.

Key words: metaphysics of social justice, special justice, general justice, dialectics of social justice, civil society, collective mentality.

KIRISH

Ayni paytda ijtimoiy adolat metafizikasi degan tushuncha bo'lib, u ijtimoiy adolatni ta'minlash va uning prinsiplarini o'rganishda metafizik muammolardan foydalanilishni nazarda tutadi. Bu esa ijtimoiy falsafaning bir turidir, deyish mumkin. Metafizika boshqa

fanlarning yonida muammolarning asosiy va keng turidagi masalalari bilan shug'ullanib, ularning hal etilishiga yordam beradigan ahamiyatli savollarni o'rganishda foydalaniladi. Ijtimoiy adolat metafizikasida ushbu falsafaning muammolaridan foydalanish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va uning prinsiplarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan, ijtimoiy adolat metafizikasida, adolatlikni ta'minlash va adolatsizlikni bartaraf etish maqsadlariga ega bo'lib, ularning hal etilishi uchun shu yo'nalishdagi falsafaning muammolaridan foydalaniladi. "Umumiy adolat deganda, butun ijtimoiy tuzilmaning axloqiy qadriyatlarini, ijtimoiy tuzilishning tamoyillari yig'indisini, ijtimoiy institutlarning eng yuqori qonuniyligi tushuniladi. Maxsus yoki xususiy adolat deganda, tovarlarni taqsimlash, ularning o'zaro almashishi va jamiyatdagi ma'lum xususiyatlarning uning subektlari tomonidan namoyon bo'lishida "axloqiy jihatdan tasdiqlangan mutanosiblik" tushuniladi. Xususiy adolat jamiyat ichida integratsion funksiyani bajaradigan o'ziga xos normalar tizimidir. Umumiy va xususiy adolat bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, axloqiy qadriyatning ideali va baholovchi meyoridir".

Adolatni ta'minlash hamisha insoniylikning zarur shartidir. Shu boisdan ham S.S.Hamroyev "Jahonda kechayotgan murakkab geosiyosiy jarayonlar, global iqtisodiy inqiroz xatarlarining keskinlashishi sharoitida adolat tamoyillari jamiyat tinch-totuvligi, taraqqiyoti hamda qonun ustuvorligini ta'minlash va munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. Adolatga erishish va jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etishning innovatsion yo'llarini izlash xalqning turmush darajasini oshirishga va davlatning izchil rivojlanishiga, ijtimoiy munosabatlarda manfaatlarni himoya qilish va muvozanatni ta'minlashda, qonun ustuvorligiga erishish hamda madaniy rivojlanishga olib keladi. Shu sababli, adolatparvarlikni ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida tadqiq etish, uning funksional xususiyatlari va ustuvor yo'nalishlarini ochib berish, bu tamoyillarni barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg'unlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda" deb ta'kidlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ijtimoiy adolat dialektikasi haqiqatda, shaxsiy va umumiy huquqlarni saqlash va ta'minlashga qaratilgan mexanizmlar jamiyati va adolatlikni ta'minlash jarayonida kechadi. Ijtimoiy adolat dialektikasi o'zida bir nechta munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Birinchi, ijtimoiy adolat dialektikasi biror odamning shaxsiy huquqlarini saqlash va ta'minlashga qaratilgan mexanizmlar jamiyati sifatida ishonchli bo'lishi kerak. Bu

mexanizmlar jamiyati oliy sudlar, appelyatsiya mahkamalari va tuzatish mahkamalaridan iborat bo'lib, ularning ishonchli va effektiv ishlashi demokratik tizimning muvofiqligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchi, ijtimoiy adolat dialektikasi adolatlikni ta'minlash va huquqiy jinoyatlarga chora ko'rish, xalqaro huquqlarni ta'minlash va undagi shartlarga rioya etish, shaxsiy huquqlarni ta'minlash uchun meyorli yondashuvlarni tashkil etish tushuniladi.

Ijtimoiy adolat sinergetikasi ijtimoiy adolat dialektikasining bir turdagi fuqarolarning shaxsiy va umumiy huquqlarini saqlash va ta'minlashga qaratilgan mexanizmlar jamiyati, adolatlikni ta'minlash va adolatsizlikka qarshi kurash fonida ko'rinadi. Sinergetika bir nechta elementlarning bir-biri bilan yoki bir-biriga nisbatan aloqador bo'lishi orqali yaratilgan tizimni o'rganish, tahlil qilishda foydalaniladi. Ijtimoiy adolat sinergetikasi bu tushunchalar bir-biriga nisbatan aloqador bo'lib, ularning ishonchli va effektiv ishlashi uchun tizimning butunligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu shaxsiy va umumiy huquqlarni saqlash va ta'minlashga qaratilgan jarayondir.

O'zbekistonda adolatni o'rnatishdagi muammolar ko'pincha ularning boshlang'ich sabablari tarixiy, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy xususiyatlardan kelib chiqadi. Shuning uchun, ularni samarali hal etish yo'llari ham ko'plikda bo'ladi. Birinchi qadamda, O'zbekistonda adolatni o'rnatishdagi muammolarni to'liq aniqlash va tahlil qilish kerak. Unda, ularning turli turdagi sabablari, muhimlik darajasi, adolatlik bo'lishi, uning prinsiplari va boshqa muammolar ko'rsatiladi. Ikkinchi qadamda, O'zbekistonda adolatni o'rnatishdagi muammolarni hal etish uchun huquqiy mexanizmlarni rivojlantirish kerak. Bu mexanizmlarning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, ular adolatni o'rnatishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, huquqiy tizimning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, unda huquqiy meyorlarni ta'minlash, huquqiy jamoatning muhim ahamiyatga ega bo'lishini ta'minlash va boshqa muammolar ko'rsatiladi. Uchinchi qadamda, yurtimizda adolatni o'rnatishdagi muammolarni hal etish uchun ijtimoiy mexanizmlarni rivojlantirish kerak. Ularning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, unda jamoatning ijtimoiy faoliyatiga ta'sir etish va ularning adolatlik bo'lishiga yordam berish ko'rsatiladi. Masalan, mehnatkashlarni himoya qilish va ularning adolatli bo'lishiga yordam berish uchun, ijtimoiy mexanizmlarni rivojlantirish kerak. O'zbekistonda adolatni o'rnatishdagi muammolarni samarali hal etish yo'llari boshqa mamlakatlarda ham ko'rib chiqilgan. Shuning uchun ularni o'rganib, muammolarni hal etish uchun tajribalar o'rganib chiqiladi.

O'zbekistonda ijtimoiy adolatni qaror toptirishda birinchi navbatda, ularni to'liq aniqlash va tahlil qilish kerak. Unda, ularning sabablari, muhimlik darajasi, ularni bartaraf etish uchun kerakli mexanizmlar va boshqa muammolar ko'rsatiladi. Ikkinchi qadamda, to'siqlarni bartaraf etish uchun huquqiy mexanizmlarni rivojlantirish kerak. Bu mexanizmlarning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, ular to'siqlarni bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, to'siqlarni hali tezkor hal etish, to'siqlarni bartaraf etish uchun huquqiy narxlarni muayyanlash va boshqa muammolar ko'rsatiladi. Uchinchi qadamda, to'siqlarni bartaraf etish uchun ijtimoiy mexanizmlarni rivojlantirish kerak. Ularning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, unda jamoatning ijtimoiy faoliyatiga ta'sir etish va to'siqlarni bartaraf etish uchun yordam berish lozim bo'ladi. Masalan, to'siqlarni bartaraf etish uchun jamoatning ta'minoti va ta'sirchan yo'llarni qo'llash kerak. Shu boisdan ham S.S.Hamroyev "...ijtimoiy davlat va fuqarolik jamiyati sharoitida adolatparvarlikning bandlikni ta'minlash, moddiy boyliklarni byudjet asosida muvozanatlash va ijtimoiy faoliyatni olib borish kabi ustuvor yo'nalishlari, yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, aholi daromadlarini oshirish, tug'ilish va umr ko'rish, sog'liqni saqlash, ta'lim, atrofmuhitni muhofaza qilishga oid ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni ijtimoiy adolat bilan olib borish dolzarbligi, kambag'allikni kamaytirish, aholi turmush darajasini oshirish va ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish kabi ijtimoiy himoya siyosatini amalga oshirish zarur" deb hisoblaydi.

Mamlakatimizda ijtimoiy adolatni qaror toptirishdagi to'siqlarni bartaraf etish uchun undagi muammolarni to'liq aniqlash, huquqiy mexanizmlarni rivojlantirish va ijtimoiy mexanizmlarni rivojlantirish kerak. Bu yo'llar o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, ular adolatni o'rnatishda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy adolatni ta'minlashda fuqarolik jamiyatining yuqori qatlamini individual tanlov, guruhlar, siyosiy partiyalar, nodavlat tashkilotlar, harakatlar, klublar va boshqalarning siyosiy va madaniy farqlariga qaramay birdek harakat qilishi lozim. Shu tariqa madaniy-siyosiy plyuralizmga erishiladi. Bu esa, o'z navbatida, barcha fuqarolarning iroda erkinligini ta'minlaydi, mafkuraviy qoliplar yo'qoladi. Fuqarolik jamiyatining bu qatlamiga jamiyatning davlat-siyosiy tizimi bilan aloqada bo'lgan eng faol institutlar kiradi, ular asosan siyosiy partiyalar va nodavlat tashkilotlardir. Fuqarolik jamiyati institutlari va tashkilotlarining faoliyati hokimiyat taqsimotini o'zgartirishga qaratilgan va shuning uchun siyosiy xarakterga ega. Bu nafaqat siyosiy partiyalarga, balki ijtimoiy miqyosda o'z maqsadlariga yechim izlayotgan guruhlariga ham tegishli. Shunday qilib, fuqarolik jamiyatini siyosiy bo'lmagan ijtimoiy munosabatlar va institutlar tizimi

sifatida tavsiflash mumkin emas. Bu jamiyatning genezisi uni iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, diniy, ma'naviy, oilaviy va boshqa munosabatlarning silliq tizimiga aylantiradi, jamiyat fuqarolarining xohish-irodasini ifodalaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Fuqarolik jamiyatining mavjudligi va shakllanishi teng huquqli va muayyan fazilatlarga ega bo'lgan fuqarolarsiz mumkin emas. Inson yuksak ma'naviy-axloqiy ideallarga, ilg'or dunyoqarashga ega bo'lsagina uni fuqaro deyish mumkin. Bunday shaxslarning jamoat birlashmalari va muassasalari bilan munosabatlari butunlay boshqacha. Yetarli darajada rivojlangan fuqarolik jamiyatlarida inson jamoalarga jalb etilishi bilan o'zining individual fazilatlarini yo'qotmaydi, aksincha, yuksak ma'naviyatga ega bo'ladi. Shunday qilib, fuqarolik jamiyatining bir qator tamoyillarini qayd etish mumkin: siyosiy sohadagi barcha insonlarning huquq va erkinliklarining tengligi; butun dunyoda amaldagi qonunlar bilan fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishni ta'minlash; xususiy mulkka egalik qilish yoki mehnat uchun adolatli haq olish huquqiga asoslangan iqtisodiy mustaqillik; fuqarolarning partiyalar va fuqarolik harakatlari (nodavlat notijorat tashkilotlari) tuzish erkinligi; fan, madaniyat, ta'lim va fuqarolarning bilim olishi uchun zarur moddiy va boshqa shart-sharoitlarni ta'minlash; faqat qonun bilan tartibga solinadigan va davlat senzurasiga solinmaydigan ommaviy axborot vositalarini yaratish va faoliyat yuritish; davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi mexanizmning mavjudligi (konsensus mexanizmi). Jamiyatning demokratiya sari olg'a siljishi bilan uning har bir a'zosining qabul qilgan qarorlari uchun mas'uliyati bir necha barobar ortadi. Fuqarolik madaniyatisiz fuqarolik jamiyati haqida gapirish umuman o'rinsiz. Bu konsepsiya shaxsning ijtimoiy masalalarni idrok etish qobiliyatini belgilaydi, uning bu masalalarni amalga oshirishda qanchalik faolligini ko'rsatadi.

Muammo bo'yicha biz to'xtalgan g'oya va pozitsiyalarni umumlashtirib, fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasidagi munosabatlarga oid bir nechta pozitsiyalarni shakllantirishimiz mumkin:

1. "Fuqarolik jamiyati" va "davlat" tushunchalari global jamiyatning turli xil, ammo ichki o'zaro bog'liq elementlarini ifodalaydi.

2. Fuqarolik jamiyati va davlat funksiyalarini ajratish tabiiy va huquqiy jarayondir. U bir tomondan hayotning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy tomonlarini, ikkinchi tomondan hayotning siyosiy tomonlarini tavsiflaydi.

3. Fuqarolik jamiyati – siyosiy tizimning negizini tashkil qiladi, davlatni belgilaydi va shart qiladi.

4. Fuqarolik jamiyati hayot qonunlari anarxiyadan iborat bo'lgan avtonom shaxslar uyushmasi emas. Bu fuqarolarning moddiy va ma'naviy hayotini ta'minlovchi odamlar jamoasidir. Davlat fuqarolik jamiyatining rasmiy ko'rinishidir.

5. Fuqarolik jamiyati a'zolarining o'z-o'zini faolligi va birlashmalarning xilma-xilligi nuqtai nazaridan qanchalik rivojlangan bo'lsa, davlat shunchalik demokratik rivojlanadi. Bu fikrni boshqacha ifodalash ham mumkin. YA'ni, siyosiy tuzilma qanchalik demokratik bo'lsa, fuqarolik jamiyatining rivojlanishi shunchalik ta'minlanadi.

Fuqarolik jamiyati – insoniyat sivilizatsiyasining zamonaviy davrida shaxslar, guruhlar va birlashmalar o'rtasida iqtisodiy, madaniy, huquqiy va siyosiy munosabatlar rivojlangan jamiyatdir.

Hozirgi vaqtda fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o'z jamiyatlarida siyosiy qo'llab-quvvatlash, yangi tashabbuslarni kuzatish va hukumatlarning jamoatchilik oldida mas'uliyatini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Ular umumiy qadriyatlar, ya'ni demokratiya va inson huquqlarini hurmat qilish, qonun ustuvorligi, samarali boshqaruv, bozor iqtisodiyoti tamoyillari va barqaror rivojlanishga asoslangan demokratik va bozorga yo'naltirilgan islohotlarni ilgari surishning faol ishtirokchisi bo'lishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotlari butun dunyoda o'z faoliyatini yo'lga qo'ygan, desak xato bo'lmaydi. Bugungi kunda bunday tashkilotlar faoliyat ko'rsatmaydigan davlat deyarli yo'q. Davlatlar o'zlarining dolzarb muammolarini fuqarolarning ko'magi va bevosita ishtirokida hal etish zarurligini tushunadi. Shu bois barcha mamlakatlarda nodavlat notijorat tashkilotlarining erkin va samarali faoliyatini ta'minlashga harakat qilinmoqda.

XULOSA

Adolat tamoyillari va adolat g'oyalari ilmiy muammo sifatida olimlar tomonidan keng tadqiq qilingan bo'lib, inson huquqlarini himoya qilish tamoyillariga amal qilgan holda butun insoniyatni birdek qanoatlantiradigan davlat yoki boshqaruv shakli hali o'ylab topilmagan, degan umumiy fikrga kelgan. Bu e'tirof adolatni insoniyat ham, davlatlar ham erishishga intilishi kerak bo'lgan axloqiy ideal sifatida qo'yadi. Ushbu idealni amalga oshirish uchun qonunlarning rivojlanishi va ijtimoiy qarorlar qabul qilish har bir ijtimoiy-siyosiy shaxsning tarixiy va madaniy paradigmalari, mentalitetlari va kelajakka qarashlari bilan mos kelishi juda

muhimdir. Ushbu uyg'unlik adolat nafaqat universal tushuncha, balki turli jamiyatlarning o'ziga xos xususiyatlari va ehtiyojlariga moslashtirilgan tushuncha ekanligini ta'minlaydi. Adolat axloqiy ideal sifatida: adolat nafaqat huquqiy yoki siyosiy zarurat, balki oliy ma'naviy intilish sifatida qaraladi. Bu shuni anglatadiki, jamiyatlar doimiy ravishda adolatni yanada yuksaltirishga intilishlari kerak, bu rivojlanayotgan va dinamik maqsad ekanligini tan oladilar.

Qonunlar va qarorlar jamiyatlarning tarixiy va madaniy kelib chiqishini hisobga olishi kerak. Bir kontekstda bo'lishi mumkin bo'lgan narsa boshqasida bir xil tarzda qabul qilinmasligi mumkin. Ushbu nuanslarni tushunish adolatli va adolatli tizimlarni rivojlantirish uchun juda muhimdir. Jamoaviy mentalitet va ijtimoiy-siyosiy shaxs kelajagi haqidagi qarashlari uning adolat tizimini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Jamiyatlar adolat tamoyillarini shakllantirishda ularning intilishlari va jamoa ruhiyatini hisobga olishlari kerak.

Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish: har qanday odil sudlov tizimi inson huquq va erkinliklarini himoya qilishni birinchi o'ringa qo'yishi kerak. Bu global miqyosda adolatga intilishning asosiy tamoyilidir. Dinamik va uzluksiz jarayon: adolatga intilish statik emas. Jamiyatlar rivojlanib borar ekan, bu doimiy harakat, moslashish va qayta baholashni talab qiladi. Ushbu uzluksiz jarayon adolatning dolzarbligi va zamonaviy muammolar va muammolarni hal qilishda samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, adolat ilmiy muammo sifatida chuqur murakkab va serqirradir. Bu turli jamiyatlarning o'ziga xos kontekstlariga sezgir bo'lgan holda, axloqiy ideallarni amaliy mulohazalar bilan birlashtiradigan yaxlit yondashuvni talab qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Hamroyev S.S. O'zbekiston xalqining milliy yuksalishida adolatparvarlikni qaror toptirishning ijtimoiy qonuniyatlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro – 2023. B.15.
2. Hamroyev S.S. O'zbekiston xalqining milliy yuksalishida adolatparvarlikni qaror toptirishning ijtimoiy qonuniyatlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro – 2023. B.5.

3. Hamroyev S.S. O‘zbekiston xalqining milliy yuksalishida adolatparvarlikni qaror toptirishning ijtimoiy qonuniyatlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro – 2023. B.9.
4. Аль-Хорезми Мухаммед. Математические трактаты. –Тошкент: Фан, 1964. –362 с.
5. Аль-Фараби. Социально-этические трактаты. –Алма-Ата: Наука, 1973. –347 с.
6. Бабамуратов Э.Х. Духовное становление общества и изменение общественной психологии молодежи. –Тошкент: Фан, 1994. – 241 с.
7. Валиев А. Проблемы развития духовной культуры. –Тошкент: Фан, 1992. –154 с.
8. Арон Р. Введение в философию истории: Пер.с фр. –М.: ПЕР СЭ; СПб.: Университетская книга, 2000. –543 с.
9. Teshaboyev M.M “Principles of "religious culture" and principles of consequences of implementation” // International scientific journal «Theoretical & Applied Science» registered in France. p-ISSN: 2308-4944 (print), e-ISSN: 2409-0085(online), Vol.78, Issue 10, October 2019. -P 669-672.
10. Teshaboyev M.M “Jamiyatda ijtimoiy adolat va ijtimoiy tenglik” // FarDU. ILMIY XABARLAR-2023 yil 5 son// 128-132 bet
11. Teshaboyev M.M “O‘zbekistonda ijtimoiy adolatni ta’minlashda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni” // Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ- NamDU ilmiy axborotnomasi–2023-yil_12-son//260-265b
12. Teshaboyev M.M “O‘zbekistonda ijtimoiy adolatni qaror toptirishning strategik yo‘nalishlari” // Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy jurnali // 2023 1/11/1 // 256-259 bet

13. Teshaboyev M.M “Ijtimoiy davlatda ijtimoiy adolatni ta’minlash va ijtimoiy institutlarning maqsadi” // Scienceproblems.uz, ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари // jild 3, 11 son // 305-311

14. Teshaboyev M.M “Jamiyatda ijtimoiy adolatni ta’minlash mexanizmlari va prinsipial masalalari ” // Ilm Sarchashmalari научно-теоретический, методический журнал Издаётся с 2001 года Urganch – 2023 54-58 b.

15. Teshaboyev M.M “Huquqiy-falsafiy tafakkur tarixida ijtimoiy adolatga nisbatan turlicha yondashuvlar” // Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi–2023-yil_4-son

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJTIMOIIY FAOL
FUQAROLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTISH MUAMMOLARI**

Rustambekova Nigora Abduganisovna

Chirchiq Davlat Universiteti mustaqil izlanuvchisi nigoraru1982@gmail.com

tel:+99893 585 99 38

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari ko'rib chiqiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari yoshlik davrining dastlabki bosqichida ijtimoiy qadriyatlarni anglash va jamiyatga faol munosabat bildirish ko'nikmalarini egallaydi. Maqolada ta'lim jarayonida bu kompetensiyani rivojlantirishning usullari, pedagogik yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalar ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy faol fuqarolik, boshlang'ich ta'lim, kompetensiya, huquqiy ong, pedagogik metodlar, tarbiya.

Kirish. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi shaxsning ijtimoiy jarayonlarga mas'uliyatli munosabatini shakllantiradigan muhim ko'nikmalar majmuasidir. Boshlang'ich sinfda bu kompetensiyani rivojlantirish jamiyatdagi faollik va fuqarolik mas'uliyatining dastlabki tamoyillarini shakllantirishga zamin yaratadi. Bu jarayon o'quvchilarni kelajakda faol fuqarolikka tayyorlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida ro'y berayotgan o'zgarishlar o'qituvchiga yangi talablarni keltirib chiqardi. Bu keng ko'lamli umumiy madaniy, professional va maxsus vakolatlariga ega, yangi kasbiy talablar va mehnat sharoitlariga munosib javob bera oladigan mutaxassis bo'lishi kerak. Shiddat bilan o'zgarib borayotgan jamiyatda yashash va ishlashga tayyor bo'lgan professional o'qituvchini tayyorlash - bu kasbiy pedagogik ta'lim tizimi oldida turgan strategik vazifadir. Shuning uchun bugungi kunda ta'limning kompetensiya paradigmasiga o'tish dolzarblashmoqda. Bo'lajak mutaxassisning bilim, ko'nikma va malakalarini aniq amaliy vaziyatda amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning ustuvor maqsadidir. Shuning uchun ham bolajak o'qituvchining mutaxassis sifatida shakllanishida pedagogik amaliyot muhim sanaladi. Ushbu davrda talabaning tajriba to'plashi, yangi bilim va ko'nikmalarni egallashi, kasbiy vaziyatlarga

moslashuvi ortib boradi. Kasbiy kompetensiyani shakllantirish bosqichma-bosqich va doimiy tarzda amalga oshiriladigan jarayondir¹

Asosiy qism. Boshlang'ich sinf ta'limi bolaning shaxsiy rivojlanishidagi eng muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda:

1. **Axloqiy qadriyatlar** shakllanadi.
2. **Huquqiy ongning** dastlabki tushunchalari rivojlanadi.
3. Jamiyatda o'z o'rnini anglashga intilish paydo bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim-tarbiya jarayonida:

- Jamoaviy ishlarda ishtirok etish;
- To'g'ri va noto'g'rini farqlash;
- O'z fikrini bildirish va boshqalarni hurmat qilish kabi ko'nikmalarni egallaydi.

Boshlang'ich sinfda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish quyidagi nazariy yondashuvlarga asoslanadi:

1. **Gumanistik pedagogika:** bolani jamiyatning faol a'zosi sifatida shakllantirish.
2. **Faoliyatga asoslangan yondashuv:** bolalar amaliy mashg'ulotlar orqali ijtimoiy vazifalarni bajarish ko'nikmalarini o'rganadi.
3. **Interfaol metodlar:** jamoaviy muhokamalar, rolli o'yinlar orqali fuqarolik ko'nikmalarini shakllantirish.

Fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish usullari

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik usullar samarali hisoblanadi:

1. Rolli o'yinlar

O'quvchilar turli ijtimoiy vaziyatlarda o'zlarini sinab ko'radi va fuqarolik mas'uliyatini his qiladi. Masalan, "Yaxshi fuqarolik nima?" mavzusida sahnalashtirilgan mashg'ulotlar.

2. Muammoli vaziyatlar

¹Gulmira Rifovna Tojiboeva, Xolida Nigmatova BOSHLANG'ICH MAKTAB O'QUVCHILARINING IJTIMOIIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA MUALLIFLIK ERTAKLARIDAN FOYDALANISH // Academic research in educational sciences. 2021. №CSPI conference 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlangich-maktab-oquvchilarining-ijtimoiy-kompetensiyalarini-shakllantirishda-mualliflik-ertaklaridan-foydalanish> (дата обращения: 25.11.2024).

O'quvchilarga muayyan ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun savollar beriladi. Masalan, "O'rtoqlarga qanday yordam berish mumkin?"

3. Jamoaviy faoliyat

Guruhda ishlash orqali bolalar jamoaning bir qismi ekanligini his qiladi. Masalan, sinfni toza saqlash, ekologik aksiyalarda ishtirok etish.

4. Tarix va madaniyat darslari

Fuqarolik va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish uchun o'z xalqining tarixi va madaniyatini o'rganish muhim.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasini egallash ham boshlang'ich sinflarda muhim ahamiyatga ega. O'zini-o'zi anglashning rivojlanishi har bir bolada o'ziga xos tarzda kechadi. Dunyoning rivojlangan davlatlaridan biri bo'lgan AQSH pedagogikasidagi ta'limotda ham quyidagilarni ko'rish mumkin: -bolani o'z kuchi, imkoniyatiga ishonch ruhida tarbiyalash; - o'quvchining eng kichik shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun kurash; -bolani kamsitmaslik, insoniy qadriyatlarni va g'ururini erga urmaslik; -o'quvchining ilk davridanoq kasb-korga yo'naltirish, Vataniga faxr va iftixor ruhida tarbiyalash. Ma'lumki, bola bilimga qiziqmasdan turib, o'qishga intilmaydi, muvaffaqiyatli o'qiy olmaydi. Bolada o'z kuchiga va qobiliyatiga ishonch hosil etish, o'qishga jalb etish, ilk yutuqlari uchun rag'batlantirish, ayniqsa, ahamiyatlidir. Boladagi o'qishga qiziquvchanlik qiyinchiliklarni yengishga, faolligini oshirishga, ishonch uyg'otishga va mustaqilligi kamol topishiga olib keladi. Sinf rahbarlarining madaniyat darajasining kengligi, pedagogik odob talablariga rioya qilishi, har bir bola shaxsini inson sifatida hurmat qilishi bilan unga nisbatan talabchanlikni unutmaslik, tashkilotchilik malakalariga ega bo'lishi, o'z malakasini tinimsiz oshirib borish bilan ishga ijodiy yondashish talab qilinadi. O'zini-o'zi anglashning rivojlanishi bolaning bilish va motivatsion sohalari shakllanishi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Mana shu sohalarning rivojlanib borishi natijasida bola ham o'zini, ham o'zi egallab turgan vaziyatni anglashga qodir bo'la boshlaydi, ya'ni unda o'zining ijtimoiy "men"ini anglash shakllanadi. Bu hodisa bolaning keyingi yosh bosqichiga o'tishida muhim rol o'ynaydi. Bu davrda bolalarda ixtiyoriy harakatlar rivojlanishi bilan birga irodaviy jarayonlar ham ko'rina boshlaydi (maqsad qo'yish, yo'l-yo'riq hamda vositalarni belgilash, qarorga kelish va qarorni ijro etish). Bolalar irodaviy harakatlarini o'stirish va mustahkamlashda ularni mehnat mashg'ulotlariga jalb qilishning ham ahamiyati kattadir²

²<https://bestpublication.org/index.php/psj/article/download/11813/11724/10991>

Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar yordamida fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish uchun:

- **Interaktiv platformalar** orqali bolalarning faolligini oshirish;
- **Multimedial resurslar** yordamida huquqiy va axloqiy tushunchalarni vizual tarzda o'rgatish;
- **Onlayn loyihalarda** ishtirok etish imkoniyatlari.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish jamiyatdagi barqaror rivojlanish uchun muhim poydevor yaratadi. Ushbu kompetensiyani rivojlantirish orqali o'quvchilar jamiyatning mas'uliyatli va faol a'zolariga aylanishlari ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gulmira Rifovna Tojiboeva, Xolida Nigmatova BOSHLANG'ICH MAKTAB O'QUVCHILARINING IJTIMOYIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA MUALLIFLIK ERTAKLARIDAN FOYDALANISH // Academic research in educational sciences. 2021. №CSPI conference 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlangich-maktab-oquvchilarining-ijtimoiy-kompetensiyalarini-shakllantirishda-mualliflik-ertaklaridan-foydalanish> (дата обращения: 25.11.2024).
2. <https://bestpublication.org/index.php/psj/article/download/11813/11724/10991>.
3. www.ziyonet.uz.

КЛИНИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПАЦИЕНТОВ ПАЦИЕНТОВ С ПОВЫШЕННЫМ ВБД ПРИ ОСТРОЙ АБДОМИНАЛЬНОЙ ПАТОЛОГИИ В ВОЕННОЙ МЕДИЦИНЕ

Фарида Азизова

Центр профессионального развития медицинских работников, Ташкент,
Узбекистан

14 ming metr.kub suv beriladi. Ammo xalq xo'jaligida sug'orishning ekstensiv usulidan ko'proq foydalanilganligi sababli buning natijasida suvning xossa va miqdoriga putur yetmoqda, suv resurslari behuda sarflanmoqda, ortiqcha foydalanilmoqda. Bundan tashqari suv faqatgina sug'orishga emas yana bir qancha tarmoqlarda ham foydalaniladi. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda noto'g'ri tutilgan yo'l. Shu narsa regionning tabiiy sharoitiga, xo'jaligiga, ijtimoiy munosabatlariga uzoq vaqt davomida salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligi ekinlarini noto'g'ri joylashtirish. Bunda asosiy kamchilik suv talab, birinchi galda sholi maydonlarining kengaytirilishi, monokulturaga, ayniqsa, paxtaga keng yo'l berilishi. Kam hosil, melioratsiya ishlarini o'tkazish qiyin bo'lgan yerlarni o'zlashtirish (Farg'ona adirlarini, tog'oldi toshloq yerlari, suv oqimi bo'lmagan pastliklari). Sug'orish tizimlarini qurishda loyiha ishlarini olib borishning, ularni qurish va eksplattatsiya qilishning sifatsizligi. Sug'orish me'yorlarining balandligi. 1980-yilda Qozog'istonda normadagiga nisbatan sug'orishga sarf qilingan suv 201% ni, Qirg'izistonda 122% ni, O'zbekistonda 164%, Tojikistonda 158%, Turkmanistonda 167% ni tashkil etgan. Sug'orish me'yorlarining yetarli darajada ilmiy asoslanmaganligi qabul qilingan sug'orish normalarini belgilashda tuproqlarning va ekinlarning ko'p xususiyatlari inobatga olinmaganligi, sug'orish me'yorlari, asosan, eng ko'p suv talab qiladigan ekinga mo'ljallanganligi ham suv resurslarining kamayishiga sabab bo'lmoqda. O'lka xo'jaliklarining alternativ rivojlanishiga va uning tabiiy sharoitiga ta'siri bashoratining yo'qligi. Orol dengizi atrofida vujudga kelayotgan muammolarning yetarlicha muhokama qilinmaganligi. Ammo hozirgi kunda insonlarning suv resurslarida betartib foydalanishi oqibatida daryolarning suv hajmi kamayib ketmoqda. O'rta osiyoning yirik daryosi hisoblangan birgina Amudaryo daryosining suvlari to'laligicha sug'orish uchun sarflanadi. O'zbekiston hududida gi sug'oriladigan maydonlarda jahon paxta hosilining 10-20 foizini beradi. Ammo sug'orish tufayli yilning ko'p qismida suvlari yetib bormaydi, bu esa ikkinchi dengizning qurib ketishiga olib keldi. Dunyodagi eng yirik kanal – Qoraqum Amudaryo suvining 45% ga yaqinini oladi; Shuningdek, O'zbekiston hududini sug'oradigan Amu-Buxoro mashina kanali ham Amudaryodan chiqariladi. Bu kanallar va Amudaryo bo'ylab (Turkmanistonda) ulkan paxta va bug'doy maydonlari cho'zilgan. 1950-yillar boshida Nukus shahridan boshlanib, O'zboy kanalidan foydalanishga mo'ljallangan Bosh Turkman kanalini qurish ham ko'zda tutilgan edi, lekin bu reja amalga oshirilmagan. 2020-yildan daryoning Afg'oniston shimolidan o'tgan qismida ulkan Qo'shtepa kanali qurilmoqda; uning uzunligi 285 km, eni 100 m bo'lishi taxmin

qilinmoqda^[5]. Tojikiston eksport qiladigan elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun daryo va uning irmoqlarida (ayniqsa, Tojikistonda) ko'plab to'g'onlar qurilgan. Bundan tashqari Amudaryo havzasida joylashgan mamlakatlarning suvga bo'lgan talabini e'tiborga olgan holda mavjud suv boyliklarini o'zaro taqsimlaydi (chunki har yili havzalarda turli miqdorda suv resurslari vujudga keladi). O'rta Osiyo davlatlari va Qozog'iston suv xo'jaligini muvofiqlashtirish davlatlararo komissiyasi ham Amudaryodan foydalanish bilan shug'ullanadi. Bu daryodan faqatgina sug'orishda foydalaningina qolmay gidroenergetika resurslaridan ham keng miqyosda fodalaniadi. Daryoning umumiy gidroenergetika resurslari 63,2 mln. kVt ni tashkil qiladi. Havza bo'yicha mazkur gidroenergetika resurslarining 29,8% Panj, 38% Vaxsh, 5,6% Kofarnihon, 3,0% Surxondaryo, 1,0% Qashqadaryo, 5,4% Zarafshon, 17,1% Amudaryo havzalariga to'g'ri keladi. Hozirgacha Amudaryo havzasidagi gidroenergetika resurslarining faqat 2%dan ziyodroq qismi amadda foydalanilmoqda. Ishga tushirilgan gidroinshootlarning eng kattasi Vaxsh daryosining Pulisangin darasida qurilgan Norak suv ombori va GESdir. 60-yillargacha Amudaryoda suv transporti keng yo'lga qo'yilgan edi. Lekin, keyingi yillarda Chorjo'y – Qo'ng'iro't temir yo'lini qurish hamda avtomobil yo'llari tarmoqlarining rivojlanishi, ayni vaqtda daryoning sayozlanishi natijasida umumiy yuk tashishda Amudaryo suv transportining hissasi keskin kamayib ketdi. Turkmanoboddan muntazam yuk tashiladi.

Amudaryo yaqinida Urganch, Nukus, Termiz shaharlari, shuningdek, Amudaryo qo'riqxonasi joylashgan. Ikkinchi eng yirik daryo hisoblanib Sirdaryo havzasida obikor dehqonchilik juda qadimdan mavjud bo'lgan. Lekin, 20-asrning 2 o'n yilligigacha o'zlashtirilgan yerlar, asosan, Farg'ona vodiysi bilan Toshkent vohasida bo'lgan. Bu yerlar Sirdaryoning Farg'ona vodiysidagi irmok/shridan suv oladigan Andijonsoy, Shaqrixonsoy, Quvasoy, Marg'ilonsoy, Oltiariqsoy hamda Chirchiq va Oqangaron daryolaridan chiqarilgan Zahariq, Qorasuv, Bo'zsuv, Tanachibuqa va Yordon kabi qadimiy kanal va ariqlar orqali suv olgan. 1920-yilda Sirdaryo havzasida hammasi bo'lib 1200 ming ga chamasida yer sug'orilgan. Sug'oriladigan yerlar maydonini kengaytirish va ularning suv ta'minotini yaxshilash borasida keyingi 60 yil davomida katta suv xo'jalik qurilish ishlari amalga oshirildi. Andijonsoy, Shahrixonsoy, Qorasuv va Bo'zsuv singari qad. kanallarni yangilash va kengaytirish bilan birga Sirdaryo havzasida murakkab gidrotexnik inshootlar sistemasiga ega bo'lgan Katta Farg'ona, Shim. Farg'ona, Jan. Farg'ona, Katta Andijon

kanallari, Oxunboboyev nomli kanal kabi o'nlab yirik va yuzlab kichiroq ariqkanallar qazildi. Natijada Sirdaryo havzasidagi ariqkanallarning umumiy uzunligi qariyb 65 ming km ga yetib bordi. Bu kanallarga muttasil suv berib turish uchun Sirdaryo va uning irmoqlarida juda ko'p to'g'on va gidrotugunlar qurilgan. Norin daryosidagi Uchqo'rg'on, Qoradaryodagi Kampirravot, Teshiktosh, Kuyganyor, Sirdaryodagi Farhod Qizilo'rda va G'azali gidrouzullari shular jumlasidandir. Yildan yilga tobora ko'proq yerlar sug'orilishi natijasida ayrim pastqam joylarni sho'r va botqoq bosa boshladi. Ana shunday joylarning zaxini qochirish va yig'ilgan sizot suvlar bilan sug'orishdan ortgan partov suvlarni daryolarga tashlash maqsadida Sirdaryo havzasida 300 dan ortiq kollektor va zovurlar ham qazilgan (32 ming km). Eng yirik kollektorlar Shim. Bag'dod, So'xIsfara, Sarijo'ga, Sariqsuv, Yozyovon, Ulugnor, Zambarko'l, Sho'rko'l, Asaka, Sho'ro'zak, Markaziy Mirzacho'l va Qorasuv. Suv xo'jaligi sohasida amalga oshirilgan tadbirlar natijasida (1970-yillar oxirida) Sirdaryo havzasida sug'orilayotgan yerlar maydoni 2,4 mln.ga dan ortib ketdi (2001-yilda 2887 ming ga). Sirdaryo havzasidagi sug'oriladigan yerlarda, asosan, paxta ekiladi. Shuningdek, don, sabzavot, meva va poliz ekinlari ham yetishtiriladi. Norin daryosida ulkan To'xtag'ul suv ombori, Qoradaryoda Andijon suv ombori, Chirchiqda Chorvoq suv ombori, Sirdaryoda Qayroqqum suv ombori qurildi, Katta Namangan va Qizilqum kanallari kabi magistral sug'orish kanallari qazildi. Sirdaryo ayniqsa, uning baland tog'lardan oqib tushadigan irmoklari katta gidroenergetika zaxirasiga ega. Ularning umumiy potensial gidroenergetika zaxirasi kariyb 22 mln. kVt. Bu havzada 63 GES qurilgan. Ularning umumiy quvvati 2,8 mln. kVt. Sirdaryo va uning irmoqlari ko'plab qishloq va shaharlarni, Farg'ona vodiysi, Toshkent, Chirchiq, Bekobod va Kizilo'rda kabi shaharlardagi yirik zavod va fabrikalarni, ko'p sonli sanoat korxonalarini suv bilan ta'minlaydi. Daryoning uning qayirida qoldiq o'zanlar o'rnida hosil bo'lgan ko'pgina ko'llar bilan birgalikda O'zbekiston va Janubiy Qozog'istonda baliqchilikning rivojlanishidagi ahamiyati ham katta. Bu sohada, ayniqsa, Sirdaryoning quyi oqimi va, shuningdek, Bekobod, Dalvarzin va Arnasoy atrofidagi ko'llar muhim, Sirdaryoning quyi qismi baliqchilikda alohida o'rin tutadi, u ilgari Orol dengizida ovlanadigan osyotr, moybaliq, so'vyan, to'rtta baliq, sazan va vobla kabi qimmatbaho baliklarning asosiy urchish joylaridan biri edi. Sirdaryoda 40 dan ortiq baliq turi yashaydi.

Xulosa: Bugungi kunda suv resurslaridan foydalanish eng dolzarb mavzulardan biri hisoblanmoqda. Hozirda suvdan nafaqat sug'orishda balki boshqa tarmoqlarda ham foydalanilayotganligi hisobga olinib barcha tarmoqlarda optimal foydalanish talab etilmoqda. Atrof muhitning ifloslanishi va sanoat korxonalarida chiqayotgan turli xildagi gazlar havoning isishiga bu esa suv manbai bo'lgan baland tog'lardagi qorlarning erta erib ketishiga sabab bolmoqda. Shu sababli sev resurslaridan samarali foydalanish talab etilmoqda. Sug'orish masalalarida zamonaviy intensiv tomchilatib sug'orish, sanoat korxonalarida ham optimal miqdorda foydalanish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Valiyev X. I. Va boshqalar. Suv resurslaridan mukammal foydalanish. Toshkent 2008y
2. Saloxiddinov A.T., Ashirova O.A. Suv resurslarini havzaviy rejalashtirish va boshqarish. Toshkent 2020y.
3. Shuls V. L., Mashrapov R., o'rta Osiyo gidrografiyasi, T., 1969;
4. P. Baratov, M. Mamatqulov, A. Rafiqov o'rta osiyo tabiiy geografiyasi
5. Barayev. F. A., Serikbayev B.S., Bazargov R.X, G'ulomov S.B, Shaymanov N.O., Mamasoliyev A.B. Suv resurslari va suvdan tejamli foydalanish

SO'JAK (PAULITA OVCZINNIKOVII) KOROVINNING MORFOLOGIYASI VA BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Aslanova Xolida Gafurovna

xolida.aslanova@mail.ru

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Kirish. Hozirgi kunda davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilinayotgan ko'plab me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi tufayli ilm-fan va innovatsiya faoliyati sohasidagi asosiy yo'nalishlar rivojlanish yo'liga tushib oldi.

Paulita ovczinnikovii (Korovin) So'jak turkumi turlarining respublikamiz sharoitidagi o'sishi va rivojlanishini asoslash, ko'paytirish yo'llarini ishlab chiqish, keng maydonlarni tashkil etish uchun tavsiyalar berish, muhofazaga muhtoj turlarini saqlab qolish borasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari muhim ahamiyatga ega. [1].

Shunday o'simliklar qatoriga kiruvchi Paulita ovczinnikovii (Korovin) So'jakning kelgusida mamlakatimiz xalq xo'jaligida, jumladan, aholi sog'lig'ini saqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lishi aniq.

O'rganishimiz ob'ekti bo'lgan So'jakning turli damlamalari tinchlantiruvchi va ziravorlik hususiyati, kosmetologiya sohasida keng qo'llanilishi, ovqat hazm qilish sistemasiga tasir etuvchi xususiyatga ega. Paulita ovczinnikovii (Korovin) So'jak o'simligining biologik faolligini hisobga olgan holda, o'simlikni morfologiyasini va bioekologiyasini o'rganish imkoniyatini yaratadi [2].

So'jak Janubi-g'arbiy Pomir-Oloyning endemik o'simligi hisoblanib balandligi 50-100 sm bo'lgan ko'p yillik monokarp o'simlik. Ildizi tugunaksimon, barmoqsimon tarmoqlangan. Poyalari yakka-yakka holatda, ichi g'ovak o'rtasidan boshlab yuqoriroqda shoxlanadi. Ildizoldi barglari tez quriydi; yaproqlari keng uchburchaksimon, ikki, uch karra patsimon qirqilgan; asos qismidagi bo'laklarining bandchalari bor; uchki bo'laklari keng, rombsimon, yirik tishchali. Gultojibargi oq, kosachasining tishchalari yo'q. Mevasi 2,5mm uzunlikkacha, tuxumsimon, bir-biriga teng bo'lgan qovurg'alari tufayli sal g'adir budur. May oyida gullab, iyun-iyul mevalaydi. Tarqalishi. Surxondaryo viloyati: Hisor tizmasi, g'arbda Machaydaryogacha, Bobotog', Tojikistonda ham uchraydi. O'sish sharoiti. Tosh-shag'alli, soz tuproqli yonbag'irligida o'sadi (d.c.b.900-2000 m) balandlikkacha

bo‘lgan joylarda uchraydi. Ularning aniq soni hali aniqlanmagan. O‘simlik urug‘i orqali ko‘padi [3].

O‘simliklardan noo‘rin foydalanish tufayli ularning tabiiy zahiralarning qisqarib ketishi, ayrimlarining esa tur sifatida yo‘qolib ketishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli foydali o‘simliklarning istiqbolli turlarini ekib o‘stirish zaruratga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Н.Х.Холматов. Z.H.Habibov. O‘zbekistonning shifobaxsh o‘simliklari.Toshkent. Mehnat, 1990. 98-99 betlar.
2. Хожиматов К.Х., Хожиматов О.К. Собиров У.А. Сборник правил пользования объектами лекарственных, пищевых и технических растений. Ташкент: «Янгиасравлоди», 2009. – 171 б.
3. Набиев Н. Шальник В., Иброхимов А. Шифобахш ньматлар. Тошкент. Меҳнат, 1989. 86-88 бетлар.
4. Hayitov A. E., Aslanova X. G. USE OF STUDENTS' LOGICAL THINKING ELEMENTS IN TEACHING ZOOLOGY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS //Journal of Universal Science Research. – 2023. – Т. 1. – №. 10. – С. 166-169 betlar.
5. Abdullaeva G. K., Tojiboyev S. J. ANALYSIS OF BIOMORPHS OF CYANOPKARYOTES AND ALGAE. – 2023.

HOW THE NEW UZBEKISTAN CONSTITUTION ENSURES A FREE AND PROSPEROUS LIFE

A. E.Eshmamatov¹

B. azamateshmamatov5@gmail.com

A.A.Bolto'rayeva²

boltoraevaasilabonu@gmail.com

¹ 1st year master's student of the Department of Mathematics and Informatics of TerDPI

² 1st year student of the Termez branch of the Tashkent Medical Academy

Constitutional reforms often seem distant from our daily lives, but the new constitution of Uzbekistan marks a turning point that directly impacts every citizen. As we embrace the concept of "yangi o'zbekiston" (New Uzbekistan), we're witnessing a fundamental transformation in how our nation protects and empowers its people.

The new constitutional framework, detailed in yangi konstitutsiya kitobi, represents more than just legal amendments. It embodies our nation's commitment to progress through the yangi o'zbekiston taraqqiyot strategiyasi, ensuring fundamental rights and creating opportunities for all citizens. In this article, we'll explore how these constitutional changes affect our daily lives and examine the mechanisms that guarantee their implementation.

Understanding Key Constitutional Changes for Citizens

Let's explore the trans-formative changes in our new constitution that directly affect us as citizens. At the heart of these reforms lies the noble principle "Human interests are above all" [1], which fundamentally reshapes how our government serves its people.

We're witnessing a historic shift as more than half of the new constitutional norms focus on strengthening human rights and freedoms [2]. The constitution introduces several groundbreaking protections for citizens, including:

- Protection against housing deprivation without court decision [2] • Guaranteed medical care regardless of financial status [2] • Prohibition of discrimination against pregnant women in employment [2] • Special provisions for persons with disabilities [2]

One of the most significant changes is the introduction of the social state concept [2], which ensures fair distribution of material wealth and decent living standards for every citizen. This includes systematic social protection through innovative systems like the "Iron Register," "Women's Register," and "Youth Register" [2].

Our new constitution places special emphasis on labor rights and social justice. It's now constitutionally forbidden to refuse employment to women, terminate their employment, or reduce their wages based on pregnancy or having children [1]. For educators, a dedicated article establishes their status in society, benefiting more than 685,000 teaching professionals across our nation [2].

The reforms also strengthen environmental rights, recognizing the rights of current and future generations to a favorable environment [3]. This forward-thinking approach ensures that our yangi o'zbekiston protects not just our present needs but also our future well-being.

Practical Benefits in Daily Life

The constitutional reforms are already transforming how we access government services and receive social support in our daily lives. Through the implementation of the Social Protection Single Registry (SPSR), more than 1.6 million families have received social allowances over the past three years [4], making financial assistance more accessible than ever before.

We're witnessing a remarkable shift in how public services are delivered. The new system has eliminated unnecessary bureaucracy, requiring only basic documents like birth certificates, passport copies, and marriage certificates [5]. This streamlined approach represents a significant improvement from the previous complex procedures.

The practical benefits of these reforms include: • Equal access to public services without discrimination [6] • Simplified criteria for determining low-income status [4] •

Automated assignment of social benefits [4] • Real-time data exchange between 50 government agencies [4]

For vulnerable members of our society, the reforms have introduced professional social workers who create tailored support plans. In a successful pilot program, this personalized approach helped 106 families, including 192 children and 12 children with disabilities [5]. The state now guarantees improved quality of life for vulnerable populations, ensuring their full participation in social and public life [7].

Perhaps most importantly, these changes have created a powerful safety net during challenging times. During the COVID-19 pandemic, this enhanced social protection system proved invaluable in preserving incomes and employment opportunities [5]. As we continue building our yangi o'zbekiston, these practical improvements demonstrate how constitutional reforms directly enhance our daily lives.

Implementation and Enforcement Mechanisms

To ensure our new constitution delivers on its promises, we've established robust implementation and enforcement mechanisms. The cornerstone of this system is our Constitutional Commission, comprising 46 members including deputies, senators, and representatives from all regions of Uzbekistan [3].

Our implementation strategy operates through several key bodies: • The Anti-Corruption Agency (established 2020) • The Monitoring Center within the Organizational Control Department • The Assets Accounting and Management Department • Regional enforcement branches across Karakalpakstan and Tashkent [8]

We're embracing digital transformation in our yangi o'zbekiston journey. Starting December 1, 2024, we'll introduce the "Register of Obligations" system to ensure unwavering execution of court documents [9]. This digital approach extends to property sales, which will be conducted through an electronic monitoring system from April 1, 2024 [9].

Public participation remains central to our enforcement strategy. Citizens can now submit petitions with 100,000 signatures [8], representing a significant step toward

democratic engagement. We've also established social oversight mechanisms for state budget formation and implementation [1].

The implementation process has been remarkably inclusive, with over 20,000 events organized across ministries and departments [10]. Our commitment to transparency is evident in the extensive public discussion phase, which gathered 222,715 proposals for the new Constitution [10]. To ensure widespread understanding, we've launched a comprehensive education campaign, including 10,000 outreach activities and a free online course [10].

Conclusion

Our new constitution stands as more than just a legal document - it represents a transformative vision for yangi o'zbekiston that touches every aspect of our lives. Through comprehensive reforms focusing on human rights, social protection, and digital transformation, we've built a framework that truly puts people first.

These changes have already shown real results, from streamlined government services to enhanced social support systems. The successful implementation of digital registries, public participation mechanisms, and transparent enforcement strategies proves our nation's commitment to meaningful reform. Most importantly, our new constitution safeguards these improvements for future generations, ensuring that every citizen can participate in building a prosperous Uzbekistan.

The path ahead looks bright as we continue strengthening these constitutional guarantees through public engagement and technological advancement. With robust implementation mechanisms and unwavering dedication to transparency, we're creating a society where every citizen can thrive. Our new constitution serves as both our foundation and our roadmap, guiding us toward a future where human dignity, social justice, and economic prosperity become everyday realities for all Uzbeks.

References

[1] - <https://silkroadstudies.org/resources/pdf/SilkRoadPapers/2212Uzbek.pdf>

[2]

- https://uzbekembassy.com.my/eng/news_press/constitutional_reform/the_renewed_constit

[tion of uzbekistan ensures the accountability of public officials and social protection of citizens.html](#)

[3] - <https://www.uzbekistan.org.ua/en/news/5865-constitutional-reforms-%E2%80%93-will-of-the-electorate-and-requirement-of-new-era.html>

[4] - <https://www.unicef.org/uzbekistan/en/social-protection-system-digitalized>

[5] - <https://unsdg.un.org/latest/stories/uzbekistans-invigorated-social-system-powerful-buffer-support-most-vulnerable>

[6] - <https://www.uzbekistan.org.ua/en/news/7226-in-new-uzbekistan,-the-rights-of-citizens-are-protected-by-the-constitution.html>

[7] - <https://constitution.uz/en/clause/index>

[8] - <https://www.osw.waw.pl/en/publikacje/analyzes/2023-05-10/a-constitution-new-uzbekistan>

[9] - <https://daryo.uz/en/2024/01/04/presidential-decree-propels-legal-reforms-and-digitalization-in-uzbekistan>

[10] - <https://www.uzbekistan.org.ua/en/news/7410-the-constitution-of-new-uzbekistan-creation,-adoption,-and-implementation.html>

O'RTA OSIYO QO'RIXONALARIGA TAVSIF

Umaraliyeva Ziyodaxon Abdujabbor qizi

Andijon davlat pedagogika instituti tabiiy
fanlar fakulteti geografiya va iqtisodiy bilim
asoslari yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rta Osiyoda joylashgan qo'riqxonalariga umumiy tavsif, ularning ahamiyati va ularda qo'riqlanadigan hayvon va o'simliklar haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Qo'riqxonalar, Orolpayg'ambar, to'qayzorlar, xongul, oq dumli dengiz burguti, Boday-To'qay.

Kirish: Tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabatlarning borgan sari jiddiylashuvi, joylarda xatto tang vaziyat mavjudligi tufayli atrof-muhit katta miqyosda shikastlanmoqda. Bu borada tabiatning eng nozik komponentlari — o'simlik va hayvonot olami zarar ko'rmoqda. Keyingi 2000 yillik insoniyat tarixida jami bo'lib sutemizuvchilarning 106 turi butunlay yo'qoldi. Birinchi 33 turdagi sutemizuvchilarning yer yuzasida yo'qolishi uchun 1800 yil kerak bo'lgan bo'lsa, undan keyingi 33 turga 100 yil va so'nggi 40 tur uchun esa faqat yarim asr kifoya qildi. Darvoqe, keyingi vaqtlarda qisqa muddatda ko'plab hayvonlarning qirilishi borgan sari tezlashmoqda. Chunonchi, Uzbekistonda keyingi 50 yil mobaynida giyena, turon yo'lbarsi, sirtlon, gepard tur sifatida yo'qoldi, ba'zi hayvon turlari esa miqdor jihatdan juda ham kamayib ketdi.

Noqulay ekologik sharoitda biosferaning ayrim go'shalarini saqlab qolish, ularda kamayib ketayotgan hayvonlar va o'simliklarni ko'paytirish yo'li bilan ularni butunlay yo'qolib ketish xavfidan qutqarib qolish eng dolzarb masala. Shuning uchun ham sayyoramizning turli burchaklarida qo'riqlanadigan maxsus hududlar tashkil qilingan. O'rta Osiyo va Qozog'istonda jami bo'lib 30 dan ziyod qo'riqxonalar bo'lib, ularning jami maydoni 2,3 mln ga yoki o'lka huududinng 1 % qismini egallaydi. Qo'riqlanadigan hududlar odatda qo'riqxonalar, milliy yoki tabiiy bog'lar, buyurtma, tabiatning noyob yodgorliklaridan iborat

bo'ladi. Qo'riqxonalar — tabiat komplekslarining shunday qismiki, unda barcha tabiiy komponentlar inson tomonidan deyarli o'zgartirilmagan, ya'ni tabiiy holda bo'lishligi bilan ajralib turadi. Qo'riqxonalar uchun ajratiladigan hudud mazkur landshaft uchun xarakterli va uning barcha xususiyatlarini aks ettirishi lozim.

Qo'riqxonada jiddiy muhofaza rejimi tashkil qilinadi, unda daraxt yoki butalarni ekish, gul, o't, qo'ziqorin terish, pichan o'rish, mol boqish qat'iyan man etiladi. U yerga sayyohlar, ilmiy xodimlar va boshqa mutaxassislar qo'riqxonalar rahbariyati tomonidan olingan ruxsatdan so'ng kirishlari mumkin.

Qo'riqxonalar — tabiatning tabiiy andozalaridir. Ulardagi o'simlik olami va xayvonlari mazkur mintaqalar uchun tipik bo'ladi. Qo'riqxonalar atrofida qo'shni hududlarga o'tish uchun oraliq mintaqalar mavjud bo'lib, unda ham ov qilish taqiqlanadi, faqat pichan o'rish, ba'zan kasal daraxtlarni qirqishga ruxsat beriladi.

O'zbekistondagi qo'riqlanadigan hududlar — respublikada uch xil — tog-archa, to'qay va qum-cho'l landshaft turiga oid.

To'qay landshaftlarida joylashgan qo'riqxonalar — Boday-To'qay, Qizilum, Zarafshon, Orolpayg'ambar — asosan daryo qayirlari va deltalaridagi o'simlik va hayvonot olamini muhofaza qilishga xizmat qiladi. To'qayzorlarda daraxt turlaridan; ko'k(uzunchok) bargli turangil, jiyda, jung'or va Vilgelm tollari; butalardan: yulg'un, chinnigul, quyi yarusda turli o'tlar tartsalgan. Qo'riqxonalarda nomlari «Qizil kitob» ga kiritilgan hayvonlardan; maxaon (qora xolli katta sariq kapalak), turkman palagi; hasharotlardan — bolivariya, sora sanotli chittak, asal-ari-duradgor; baliqlardan — baxra baliq, suzanbaliq, soxta-patanos; qushlardan — ilon burgut, uzun dumli dengiz burguti, lochin; sutemizuvchilardan — xongul (Boday-To'qay).

Qizilqum qo'riqxonasida, shuningdek Orol losos baliq'i, cho'rtanbaliqqa o'xshash jerex, sovutli gekoncha, kulrang echkamar; qushlardan — pushti saqoqqush, birqozon, flamingo, marmar churrak, skopa, ilon burgut, cho'l burguti, burgut, uzun dumli dengiz burguti, to'xtatuvaloq qora boshli xoxotun, kolpitsa; sutemizuvchilardan — qoraquloq Zarafshon qo'riqxonasida yuqoridagilardan tashqari qirg'ovulni muhofaza qilishga katta ahamiyat berilmoqda, 1996 yildan boshlab xongul ko'paytirish boshlandi. O'simliklar orasida

oblepixa (chakanda) o'ziga xos o'rn egallaydi. Orolpayg'ambarda yuqoridagi xayvonlardan tashqari O'rta Osiyo kobrasi, qora laylak, turkiston oq laylagi, oq qorinli chil keng tarqalgan.

Xulosa: Qòriqxonalar tabiiy resurslarni, o'simlik va hayvonot dunyosini saqlab qolish va himoya qilish uchun tashkil etiladi. Bu o'z ichiga turli ekotizimlar, noyob va yo'qolib borayotgan turlarni saqlashni oladi. Qòriqxonalar ilmiy tadqiqotlar uchun ideal muhit yaratadi. Bu yerda biologlar, ekologlar va boshqa mutaxassislar tabiiy jarayonlarni, turlarning hayot faoliyatini, ularning ekologik munosabatlarini o'rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baratov.P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi 1996
2. Mamatqulov.M, Rafiqov A.A, O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi
3. O'.Abdunazarov, Sh. Sharipov, M.Mirkamolov, R.Ibragimova Umumiy tabiiy geografiya

**BOSHLANG’ICH MAKTABLARDA O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHI
MUNOSABATLARIGA IKKI TOMONLAMA YONDOSHUV**

Xayitova Zilola Maxmudjonovna

Zilolahayitova16@gmail.com

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti
“Umumiy psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi

Mavlonova Jasmina

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarini ham o'qituvchi ham o'quvchi nuqtai nazaridan o'rganib chiqdi. Tadqiqot tomonlardan to'plangan ma'lumotlarga asoslangan holda o'qituvchi va o'quvchi munosabatlariga ta'sir qiluvchi uchta asosiy ijtimoiy va hissiy jihatni aniqladi, ya'ni, bog'liqlik, mavjudlik va muloqot qobiliyatlari. Ma'lumotlar Rasch o'lchov modeli bilan tahlil qilindi va osondan qiyingacha tartiblangan elementlardan iborat bir o'lchovli, chiziqli shkala yaratildi.

Elementlarning qiyinchiliklari o'zgaruvchining kontseptuallashtirilgan tuzilishini kuchli qo'llab-quvvatladi. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarini o'rganish zamonaviy o'lchash usullaridan foydalangan holda va boshlang'ich sinf o'quvchilarining nuqtai nazarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi mumkin.

Tayanch so'z va tushunchalar: Bog'liqlik, mavjudlik, strukturaviy model, Rasch o'lchovi, chiziqli o'lchov, ijobiy munosabat.

Абстрактный

В этом исследовании изучались отношения между учителем и учеником как с точки зрения учителя, так и с точки зрения ученика. На основе данных, собранных от сторон, исследование выявило три основных социальных и эмоциональных аспекта,

которые влияют на отношения учителя и ученика, а именно родство, присутствие и коммуникативные навыки. Данные были проанализированы с помощью модели измерения Раша, и была создана одномерная линейная шкала с элементами, ранжированными от простого к сложному.

Трудности с заданием обеспечили убедительную поддержку концептуальной структуры переменной. Данное исследование показывает, что изучение взаимоотношений учитель-ученик может проводиться с использованием современных методов измерения и с учетом точки зрения учащихся начальной школы.

Ключевые слова и понятия: Зависимость, доступность, структурная модель, шкала Раша, линейная шкала, положительная связь.

Abstract

This study examined teacher-student relationships from both teacher and student perspectives. Based on the data collected from the parties, the study identified three main social and emotional aspects that influence the teacher-student relationship, namely relatedness, availability and communication skills. Data were analyzed with a Rasch measurement model and a unidimensional, linear scale was created with items ranked from easy to difficult.

Item difficulties provided strong support for the conceptualized structure of the variable. This study shows that the study of teacher-student relationships can be done using modern measurement methods and taking into account the perspective of elementary school students.

Key words and concepts: Dependence, availability, structural model, Rasch scale, linear scale, positive relationship.

Kirish

O'qituvchilik - bu shaxsiy muloqotga ko'p vaqt ajratishni talab qiladigan kasbdir. O'qituvchi va o'quvchining ijobiy munosabatlari samarali o'qitish va o'rganish uchun zarur deb hisoblanadi. Samarali o'qituvchilar - bu o'qitishda malakali bo'lishdan tashqari, sinf

hayotining insoniy o'lchoviga mos keladigan va ijobiy munosabatlarni rivojlantirishga qodir bo'lganlardir. Lekin ijobiy o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari deganda nimani anglatadi? O'qituvchi va o'quvchi munosabatlari nima uchun muhim va ularni qanday o'lchanish kerak? kabi savollar ushbu tadqiqot uchun asos sifatida olingan.

O'qituvchi va o'quvchining ijobiy munosabatlari o'zaro qabul qilish, tushunish, iliqlik, yaqinlik, ishonch, hurmat, g'amxo'rlik va hamkorlik bilan yanada mustahkamlanadi. Har qanday shaxslararo munosabatlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ikkala tomonning fikriga bog'liq. O'z o'quvchilarini qabul qilish, tushunish, iliqlik, yaqinlik, ishonch, hurmat, g'amxo'rlik va hamkorlikni namoyish etishda faol bo'lgan o'qituvchi nafaqat ijobiy o'qituvchi va shogird munosabatlarini boshlashga harakat qiladi, balki o'quvchilar bilan keyinchalik kuchli munosabatlar o'rnatish ehtimolini oshiradi.

Mavzuning dolzarbligi

O'qituvchi va o'quvchi munosabatlariga oid o'tmishdagi tadqiqotlar asosan munosabatlarning ta'lim jihatlariga e'tibor qaratdi va asosan o'qituvchi va talaba munosabatlarining ijtimoiy va hissiy jihatlarini e'tiborsiz qoldirdi (Baker, 1999; Birch & Ladd, 1996; Pianta, 1999). Shunday qilib, o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarining ijtimoiy va hissiy jihatlarini o'rganish nisbatan yangi. G'arbiy adabiyotlardan o'qituvchi va talaba munosabatlarining asosiy ijtimoiy va hissiy jihatlarini aniqlash va to'plangan ma'lumotlar bilan batafsilroq o'rganish orqali tadqiqotdagi ba'zi bo'shliqlarni bartaraf etishga harakat qilindi.

Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar ijtimoiy va hissiy o'sishni ta'minlaydi va ularning aqliy farovonligini oshiradi (Brazelton & Greenspan, 2000; Lynch & Cicchetti, 1992; Pianta, 1999; Weare, 2000). Barqaror o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari o'quvchining o'zini o'zi his qilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ulardagi chidamlilikni oshiradi (Pianta & Walsh, 1996; Rutter, 1979). Bundan tashqari, ijobiy o'qituvchi va talaba munosabatlarining afzalliklari o'qituvchilarga taalluqli bo'lib, ishdan qoniqish hissini yaxshilashga yordam beradi (L. Goldstein & Lake, 2000). G'arbiy tajribadan kelib chiqqan holda ushbu tadqiqotga kiritish uchun aniqlangan munosabatlar bog'liqlik, mavjudlik va aloqadir.

Bog'liqlik o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida mavjud bo'lgan aloqani anglatadi va adabiyotda ko'rsatilganidek, o'qituvchilarning sinfda o'quvchilar bilan munosabatlarini rivojlantirishning muhim jihati hisoblanadi (Fox, 1993; Howes, 2000).

Bog'liqlik o'qituvchining talaba bilan qanday "o'zaro" bo'lishi mumkinligini o'z ichiga oladi va munosabatlarning hissiy ohangiga taalluqlidir (Lynch va Cicchetti, 1992). O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ishonchli aloqa har bir talabaning akademik muvaffaqiyatiga, o'quvchining o'z xatti-harakatlarini tartibga solish qobiliyatiga va o'quvchining boshqalar bilan ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish qobiliyatiga yordam beradi (Entwisle & Hayduk, 1988; Shields va boshq., 2001; Tompson & Lamb, 1984; Valeski & Stipek, 2001). O'qituvchilar o'z talabalari bilan qanchalik yaxshi aloqada bo'lishlari muhim deb hisoblanadi

Boshlang'ich maktabda o'qituvchilarning o'quvchilar bilan munosabatlarini ko'rib chiqishda o'rganish uchun aspekt, o'qituvchilar o'z o'quvchilari bilan qanchalik yaxshi aloqada bo'lishlari muhim deb hisoblanadi. Chunki ijobiy aloqalar o'quvchining tegishliligi va o'zini qadrlash hissini oshiradi (Slater, 2004).

Mavjudlik adabiyotda ko'rsatilganidek, o'qituvchilarning o'quvchilar bilan munosabatlariga ta'sir qiluvchi muhim jihatdir (Good & Brophy, 2000; Pianta, 1999). Mavjudlik o'quvchining o'qituvchiga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun o'qituvchining doimo tayyor bo'lishini o'z ichiga oladi, xoh u akademik ehtiyoj (masalan, maktab ishida yordam berish) yoki ijtimoiy yoki hissiy ehtiyoj (masalan, do'stingiz tomonidan rad etilganligi haqida gapirish). Mavjud bo'lish va o'quvchilar bilan vaqt o'tkazish orqali o'qituvchilar va o'quvchilar bir-birlarini yaxshiroq bilib olishlari mumkin (Good & Brophy, 2000; Pianta, 1999). Bundan tashqari, g'amxo'r o'qituvchi bilan doimiy aloqa, bolalarda himoya mexanizmini rivojlantirishga yordam beradi va shu bilan psixo-ijtimoiy xavf omillarini kamaytiradi (Vaysberg, Kaplan va Xarvud, 1991).

Nazariy modelga qo'shimcha ravishda tadqiqotda foydalanish uchun so'rovnomalar uchun tizimli model tuzilgan. Strukturaviy model ushbu tadqiqot uchun ishlab chiqilgan anketalarni tuzishning nazariy asoslarini taqdim etadi. Bu munosabat xulq-atvorga ta'sir qilishini kutishga asoslanadi (Ajzen, 1989; Clark & Peterson, 1986). Aniqroq aytganda, asosli harakat nazariyasi e'tiqodlar munosabatga, munosabat niyatlarga va niyatlar xatti-harakatlarga ta'sir qiladi (Ajzen, 1989).

Maqolaning ilmiy yangiligi

O'quvchilar nuqtai nazaridan chiziqli o'lchovni ishlab chiqish bu tadqiqotning muhim jihatidir. Chunki Rasch o'lchov modelidan foydalangan holda o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarning chiziqli o'lchovlari ilgari yaratilmagan. Bundan tashqari, tadqiqotning nazariy modeli, o'qituvchilarning o'quvchilar bilan munosabatlari analizi uchun strukturaviy model yaratilgan. Shunday qilib, ushbu tadqiqot o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni va bu munosabatlarning rolini yaxshiroq tushunish uchun mutlaqo yangi yondashuvni taklif qiladi.

Tadqiqodning maqsadi

Ushbu maqola chiziqli shkalalar va munozara ma'lumotlaridan foydalangan holda o'qituvchilarning qarashlari va o'quvchilarning o'qituvchi va talaba munosabatlariga qarashlarini o'rgangan kengroq tadqiqotning faqat bir qismi haqida xabar beradi. Shunday qilib, tadqiqotning ushbu qismida ikkita asosiy maqsad bor. Birinchi maqsad, o'qituvchi-shogird munosabatlariga nisbatan ikki nuqtai nazardan (ideal va dolzarb) o'quvchilarning o'z-o'ziga hisobotlarini aniqlash uchun uchta jihatni (bog'liqlik, mavjudlik va muloqot qobiliyatlari) o'z ichiga olgan nazariy modelni yaratish va ikkinchi maqsad, o'qituvchi va talaba munosabatlarning chiziqli shkalasini yaratish.

Tadqiqotning obyekti

Tadqiqodning obyekti sifatida Toshkent shahri, Yunusobod tumanidagi, 239-sonli ayrim fanlari chuqur o'qitiladigan umumiy o'rta ta'lim maktabidagi o'qituvchi va o'quvchilar tanlandi.

Tadqiqodda qiyosiy tahlil va savolnomadan foydalanildi.

Tadqiqodning emperik manbaini anketa so'rovnomalari natijalari **tashkil etadi.**

Asosiy qism

O'qituvchi va o'quvchi munosabatlari ko'p sabablarga ko'ra muhimdir. O'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar o'quvchining maktabga moslashishi, maktabda yaxshi ishlashi va tengdoshlari bilan munosabatda bo'lish qobiliyatiga katta ta'sir. O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi munosabatlar sinfni boshqarishga va o'quv jarayoniga ta'sir qiladi.

Rivojlanish nuqtai nazaridan, ijobiy o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarning o'rnatilishi talabning kognitiv rivojlanishiga yordam beradi, Rivojlanish nuqtai nazaridan, ijobiy o'qituvchi va talaba munosabatlarning o'rnatilishi talabning kognitiv rivojlanishiga yordam beradi,

Shaxsiy munosabatlarning sifati va xarakteriga, xususan, ushbu tadqiqotda boshlang'ich maktabda o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir qiluvchi ko'plab jihatlar mavjud. Ushbu jihatlar o'qituvchilarning talabalar bilan munosabatlariga qanday ta'sir qilishini to'liq tushunish juda murakkab bo'lishi mumkin. Barcha mumkin bo'lgan jihatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni to'liq tushunish juda muhim. Biroq, bularni soddalashtirish mumkin. Soddalashtirilgan model tanlangan jihatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunishni ta'minlaydi, ma'lumotlarni to'plashda tadqiqotga yo'nalish beradi va ma'lumotlarni tahlil qilish va sharhlash bo'yicha ko'rsatmalar beradi. O'qituvchilar va talabalar o'rtasida mustahkam, sog'lom munosabatlarni rivojlantirish uchun zarur deb topilgan uchta jihatdan foydalangan holda soddalashtirilgan model yaratildi.

Experiment

Strukturaviy model ushbu bosqichlarning har biri bilan bog'liq qiyinchilik darajasini ko'rsatadi. Strukturaviy modelda chapdan o'ngga qiyinchilik namunasi paydo bo'ladi. Bundan tashqari, strukturaviy modelda yuqoridan pastgacha qiyinchilik namunasi paydo bo'ladi, chunki har bir asosiy jihatdagi elementlar qiyinlik tartibida keltirilgan.

Qiyinchilik darajasini belgilashda turli darajadagi qiyinchilikni ifodalash uchun har ikki tarafdan ishtirokchilar soni 100 nafardan bo'lganligi sababli 100 gacha bo'lgan raqamlar proporsiyasi intensivligi ishlatilgan. Raqamlarning kichik ko'rinishi oson bo'lgan munosabatni ifodalaydi. Raqamlarning o'rta ko'rinishi javob berish qiyinroq, bo'lgan munosabatni, Raqamlarning katta ko'rinishi o'rtadagi javob berish qiyin bo'lgan xatti-harakatlarni va yakuniy savollarga javob berish qiyinligini bu esa o'zaro munosabatning yomonligini anglatadi.

O'qituvchilarning o'quvchilar bilan munosabatlarning tizimli modeli -



O'quvchilarning o'qituvchilar bilan munosabatlarning tizimli modeli -



	Oson				Qiyinroq				O'ta qiyin			
	Munosabatlar				Niyatlar				Xulq-atvor			
Oson	50		30		58		40		70		25	
Qiyinroq	40		50		37		28		15		55	
O'ta qiyin	10		20		5		32		15		20	

Strukturaviy model chapdan o'ngga, ya'ni munosabatlar, niyatlar va xulq-atvorning uchta qiyinchilik darajasini o'z ichiga olsa ham, o'quvchilarning davom etayotgan kontsepsiyasini hisobga olgan holda ushbu modelning soddalashtirilgan shakli tadqiqot uchun ishlatilgan. O'quvchilardan javob berish oson (men nima bo'lishini xohlardim) va javob berish qiyinroq bo'lgan xatti-harakatlar haqida fikrlari so'ralgan. Shunday qilib, ishlab chiqilgan anketa o'qituvchilarning o'quvchilar bilan hamda o'quvchilarning o'qituvchilar bilan munosabatlarining tarkibiy modelida mavjud bo'lgan qiyinchilik namunasini aks ettirish uchun tuzilgan.

Strukturaviy model ushbu tadqiqotda foydalanilgan Rasch o'lchovi bilan chambarchas bog'liq. Rasch o'lchovi ob'ektning qiyinchiliklarini o'lchovlar bilan bir xil shkalada hisoblab chiqadi va standart birliklar bilan haqiqiy chiziqli o'lchovni yaratish uchun foydalanilgan. Shu tarzda, Rasch o'lchovi strukturani sinab ko'rish uchun vositani taqdim etadi

O'qituvchi va talaba munosabatlarining ijtimoiy va hissiy jihatlarini o'rganish nisbatan yangi tadqiqot yo'nalishi ekanligini hisobga olsak, manbaa va vositalarning kamligi tushunarli. Ushbu tadqiqot insoniy fanlarda o'lchash bo'yicha dunyoning eng yaxshi amaliyotidan (Rasch o'lchovi) foydalanish orqali ko'plab talablarga javob beradi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning o'qituvchilar bilan munosabatlari haqidagi fikrlarini yaxshiroq tushunish uchun uchta jihatni o'z ichiga olgan model asosida o'qituvchi va talaba munosabatlarining chiziqli o'lchovini yaratish mumkin. O'quvchining

o'qituvchilari bilan munosabatlari haqida hisobot bergan 100 nafar o'quvchilarning ma'lumotlari bilan Rasch o'lchov modeli yordamida yaratilgan chiziqli o'lchovni tashkil etuvchi 3 ta element nuqtai nazaridan aniqlandi. O'qituvchi va shogird o'rtasidagi munosabatlar o'lchovlari osondan qiyinga sozlangan element qiyinchiliklari bilan bir xil shkalada berilgan. Chiziqli o'lchov o'qituvchilarning o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarning nazariy modelini qo'llab-quvvatlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Brophy, J., & Evertson, C. (1976). Learning from teaching: A developmental perspective. Boston: Allyn & Bacon.
2. Hamre, B. K., Pianta, R. C., Burchinal, M., Field, S., Locasale-Crouch, J. L., Downer, J. T., . . . Scott-Little, C. (2012). A course on effective teacher-child interactions: Effects on teacher beliefs, knowledge, and observed practice. American Education Research Journal, 49(1), 88–123.
3. Hanushek, E. A. (2002). The long-run importance of school quality. NBER Working Paper 9071, National Bureau of Economic Research
4. Jo'rayeva S.N. O'qituvchi imidji mas'uliyati bilan o'zaro aloqadorlik uyg'unligi // «Psixologiya». 2021. №2. B. 65-69.
5. <http://innosci.org/index.php/jarsp/article/view/262>.

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITUVCHI - O'QUVCHI
MUNOSABATINING MUHIMLILIG DARAJASI**

Хайитова Зилола Махмуджоновна

Zilolahayitova16@gmail.com

Низомий номли ТДПУ

“Умумий психология” кафедраси ўқитувчиси

Abdullayev Ziyodulla

Fizika va Astronomiya fakulteti talabasi

Har bir inson o'z hayotini o'zgartirgan o'qituvchini, shuningdek, qisqa vaqt ichida hayotini baxtsiz qilgan kishini juda yaxshi eslab qoladi. Negaki o'qituvchi-shogird munosabatlari doimo o'qitishning zamirida turadi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijobiy munosabatlar ijtimoiy va hissiy rivojlanishga yordam beradi. Biroq, o'quvchi va o'qituvchilar o'rtasidagi qarama-qarshilik bilan tavsiflangan munosabatlar muqarrar ravishda tashvish, norozilikka olib kelishi mumkin.

Yuqori o'quvchi va o'qituvchi munosabatlari o'quvchilarni boshlang'ich maktabda xulq-atvor muammolarini boshdan kechirish xavfidan himoya qiladi. Bundan tashqari, o'quvchilar o'qituvchilar bilan yuqori sifatli munosabatlarga ega bo'lish orqali o'zlari haqida ijobiy nuqtai nazarga ega bo'lgan o'quvchilarga nisbatan, o'qituvchilar bilan past sifatli munosabatlarga ega bo'lgan o'quvchilar o'zlariga nisbatan salbiy qarashlarini namoyish etishlari haqida ko'proq dalillar mavjud, bu esa xatti-harakatlar bilan bog'liq muammolarga olib keladi. Shunday qilib, o'qituvchilarning kundalik o'zaro ta'siri va sifatini oshirish juda muhimdir. O'qituvchilarning his-tuyg'ulari o'z o'quvchilariga bo'lgan e'tiqodlarining asosi va psixologik jihatdan xavfsiz bo'lish qobiliyati sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Shu bilan birga, o'qituvchilarning o'quvchilar va o'qituvchi munosabatlariga bo'lgan e'tiqodlari ularning o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich o'quvchilarining maktabga moslashishiga ta'sir qiluvchi omil dastlab o'qituvchi va sinf muhitidir. Maktab o'qituvchilari boshlang'ich o'quvchilariga his-tuyg'ularini engishga yordam beradigan bilim, munosabat va ko'nikmalarga ega bo'lishlari juda muhimdir. Boshlang'ich maktabda o'quvchi va o'qituvchi munosabatlarini rivojlantirish o'quvchilarning xulq-atvor muammolarini tuzatish uchun juda muhimdir. O'qituvchilar xulq-

atvori muammosi bo'lgan o'quvchilarni rivojlanish traektoriyalarining to'g'ri yo'lga yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilar bilan ijobiy munosabatlar o'rnatishdagi roli va o'qituvchilarga qanday qilib ma'lumot berishlari haqida xabardorligi o'quvchilarni ta'limiga muhim ta'sir ko'rsatishi va talaba-o'qituvchi munosabatlari alohida ko'rib chiqiladi. Shu sababli, o'quvchi va o'qituvchi munosabatlari va xatti-harakatlari muammolarini yaxshiroq tushunish uchun qo'shimcha tadqiqotlar talab etiladi. Darhaqiqat, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlar o'quvchining sinfga bo'lgan hissiy munosabati bilan bog'liq, shuning uchun o'qituvchilar o'quvchilarning sinfda o'rganish bilan shug'ullanishi uchun ijobiy sinf muhitini ta'minlashi kerak.

Talaba va o'qituvchi munosabatlari ziddiyat va yaqinlik bilan tavsiflanadi. Konflikt darajalari bilan tavsiflangan munosabat salbiy munosabatlarni tavsiflaydi. Biroq, yaqinlik "ishonch, iliqlik va kam ziddiyat" bilan tavsiflangan munosabat ijobiy munosabatlari ko'rsatadi va o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi bunday munosabatlar ishonch, iliqlik, yaqinlik, g'amxo'rlik, tushunish, o'zaro tan olish, ochiq muloqot va hamkorlik bilan tavsiflanadi.

Bundan tashqari, boshlang'ich maktabda o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi ziddiyat ko'plab xulq-atvor muammolarining asosiy sababidir. O'qituvchilar odatda e'tibor bermaslik xulq-atvori bilan bog'liq muammolarni ko'rsatadigan, so'ngra ijtimoiy qobiliyat va o'zaro munosabatlarni xavf ostiga qo'yadigan, maktabning yaxshi ishlashiga to'sqinlik qiladigan, maktab ishiga ijobiy munosabatning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan va maktabdan qolib ketish xavfini oshiradigan o'quvchilar bilan qiyinchilik va nizolarga duch kelishadi. Ijobiy o'quvchi va o'qituvchi munosabatlari esa o'quvchilarga hayotiy ijtimoiy va akademik ko'nikmalarni rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni ta'minlash orqali maktabdagi ta'lim muhitida psixologik jihatdan xavfsiz his qilishlariga imkon beradi.

O'qituvchilar bilan ijobiy munosabatlarni rivojlantirishda talabalar to'g'ri xulq-atvorni, jamiyat tomonidan qabul qilingan tegishli qoidalarni o'rganadilar. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ziddiyat tashqi xulq-atvor bilan sezilarli darajada bog'liq. Shu sababli, o'qituvchilar mazmunli o'rganishga ijobiy ta'lim muhitini yaratish uchun ijobiy o'quvchi va o'qituvchi munosabatlarini rivojlantirishga vaqt ajratishlari kerak.

Boshlang'ich maktab o'qituvchilarini tayyorlash asosan samarali o'qitish strategiyalariga qaratilgan, lekin o'quvchi va o'qituvchi munosabatlariga emas (O'Conner va boshqalar, 2011).

Boshlang'ich maktabda o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish o'quvchilarning xatti-harakatlaridagi muammolarni hal qilish va tuzatishda muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda o'qituvchilar xulq-atvori muammolari bo'lgan o'quvchilarni rivojlanish traektoriyalarining to'g'ri yo'nalishlariga yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, maktab maslahatchilari va o'qituvchilari to'g'ri bilim, munosabat va ko'nikmalarga ega bo'lishlari juda muhimdir.

Adabiyotlar ijobiy ta'lim yutuqlariga hissa qo'shadigan ijobiy o'quvchi va o'qituvchi munosabatlarning muhimligini ko'rsatadi, lekin o'qituvchilar yaxshi munosabatlarni rivojlantirish uchun aynan nima qilishlari mumkinligini bilishlari kerak. Xavf ostida bo'lgan o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha munosabatlar o'quvchining boshlang'ich maktabda yuqori darajadagi xatti-harakatlar muammolarini rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun juda muhimdir. O'qituvchilar maktab kuni davomida shaxslararo va o'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lim o'zaro ta'siri orqali o'quvchilarda ko'nikmalarni rivojlantirish mumkin. O'zaro ta'sirlar ijobiy o'quvchi va o'qituvchi munosabatlariga olib kelganda ijtimoiy hissiy ta'limni qo'llab-quvvatlaydi, o'qituvchilarga talabalar uchun ijtimoiy hissiy kompetentsiyalarni o'rgatish imkonini beradi va xatti-harakatlar muammolarini yaxshilaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlar bevosita akademik natijalar bilan bog'liq, chunki ko'plab tadqiqotlar ijobiy o'quvchi va o'qituvchi munosabatlari akademik muvaffaqiyat uchun muhimligini tasdiqlaydi. Xuddi shunday, ijobiy o'quvchi va o'qituvchi munosabatlari talabaning ijtimoiy, hissiy va akademik muvaffaqiyatga erishish qobiliyati uchun muhimdir. Binobarin, talaba va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlar munosabatlarning xulq-atvor rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini tushunishga yordam beradi, bunda o'quvchi va o'qituvchining ijobiy munosabatlari talabalarning akademik, xulq-atvori va ijtimoiy vakolatlari bilan ijobiy bog'liqdir. Shunga ko'ra, ijobiy o'quvchi va o'qituvchi munosabatlari muhim himoya choralari sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шевандрин Н.И. Психодиагностика, коррекция и развитие личности. -- Москва: Гуман. Владос., 1999. - 512 с.
2. Jo'rayeva S.N. O'qituvchi imidji mas'uliyati bilan o'zaro aloqadorlik uyg'unligi // «Psixologiya». 2021. №2. B. 65-69.
3. <http://innosci.org/index.php/jarsp/article/view/262>.

**"YANGI O‘ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**

Volume 2, Issue 11, 2024

4. Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress (JARSP) Volume: 01
Issue: 04 | 2022 ISSN: 2751-7551 <http://innosci.org>

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TANA IMO-ISHORALARI ORQALI MULOQOT QILISH

Majidova Maftuna Samad qizi

maftunamajidova98@mail.ru

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu tezisda o‘zbek tilshunosligida tana imo-ishoralari orqali muloqot qilish fenomeni o‘rganiladi. Tana imo-ishoralari, ya’ni noverbal muloqot unsurlari, o‘zbek madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, ular so‘zlar bilan birgalikda yoki mustaqil ravishda muloqot jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotda imo-ishoralar orqali ifodalanadigan ma’no va mazmunlar, ularning lingvistik va madaniy xususiyatlari hamda turli ijtimoiy vaziyatlardagi qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Tezisda tana imo-ishoralari va nutqning uyg‘unligi, ularning milliy xususiyatlari va muloqot samaradorligidagi ahamiyati haqida muhim xulosalar berilgan. Ushbu maqola o‘zbek tilshunosligida noverbal (ing: nonverbal) muloqotni chuqur o‘rganish uchun ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Tana imo-ishoralari, noverbal muloqot, o‘zbek madaniyati, lingvistika, nutq, muloqot samaradorligi, madaniy xususiyatlar, ijtimoiy vaziyatlar, kommunikatsiya, milliy xususiyatlar.

Kirish

Muloqot inson faoliyatining eng muhim jihatlaridan biri bo‘lib, u faqat so‘zlashuv orqali emas, balki noverbal vositalar yordamida ham amalga oshiriladi. Tana imo-ishoralari – muloqotning ajralmas qismi bo‘lib, ular inson fikrlarini, hissiyotlarini va munosabatlarini ifodalashda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek madaniyatida tana imo-ishoralari o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ular milliy an’analarga mos ravishda shakllangan va madaniy, ijtimoiy hamda lingvistik xususiyatlar bilan boyitilgan.

Ilmiy adabiyotlarda tana imo-ishoralari va neverbal kommunikatsiya keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, o‘zbek tilshunosligida ushbu masala hali to‘liq yoritilmagan. Xususan, imo-

ishoralarning lingvistik jihatlari, ularning turli ijtimoiy vaziyatlarda qo'llanilishi va milliy xususiyatlari borasida yetarli tadqiqotlar mavjud emas.

Mazkur tezis tana imo-ishoralari orqali muloqot qilishning o'zbek tilidagi xususiyatlarini o'rganish, ularning lingvistik va madaniy jihatlari tahlil qilish hamda bu boradagi ilmiy bo'shliqlarni to'ldirishga qaratilgan. Shu orqali o'zbek madaniyati va tilining neverbal muloqotdagi o'ziga xos jihatlari chuqurroq o'rganiladi.

Asosiy qism

Tana imo-ishoralari – insonlar o'rtasidagi noverbal muloqot vositalaridan biri bo'lib, ular madaniyat va tilga qarab turlicha shakllanadi. O'zbek madaniyati va tilida imo-ishoralar muloqot jarayonida so'zlar bilan uyg'unlikda yoki mustaqil ravishda qo'llaniladi.



1-rasm. Noverbal muloqot ko'rinishlari

O'zbek tilida imo-ishoralardan quyidagi maqsadlarda foydalanish mumkin: salomlashish (qo'l ko'tarmoq, bosh egish), xayrlashish (qo'l siltash), his-tuyg'ularni ifodalash (yelkani qisish, qosh chimirish) va buyruq yoki ta'qiqni ko'rsatish (barmoq silkitish, qo'lni ko'krakka qo'yish). Ushbu imo-ishoralar madaniy jihatdan o'ziga xos bo'lib, xalqning urf-odatlarini va qadriyatlarini bilan bog'liq.

Imo-ishoralarning kommunikativ roli:

O‘zbek tilida imo-ishoralar nutqni to‘ldiruvchi, kuchaytiruvchi va ba‘zan so‘zlarni almashtiruvchi vazifani bajaradi. Misol uchun, “xo‘p” so‘zining o‘rnini boshni qimirlatish egallashi yoki qo‘l bilan ishora qilish orqali biror narsaga e‘tibor qaratish hollari.

Lingvistik va madaniy xususiyatlar:

Tana imo-ishoralari turli madaniyatlarda bir xil ko‘rinishda bo‘lsa-da, ularning ma‘nosi turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘zbek madaniyatida boshni ko‘tarish hurmatning belgisi sifatida qabul qilinadi, boshqa madaniyatlarda esa bu takabburlik deb talqin qilinishi mumkin.

Noverbal muloqot va ijtimoiy vaziyatlar:

Rasmiy va norasmiy muloqotlarda imo-ishoralarning qo‘llanilishi turlicha. Rasmiy muhitda cheklangan imo-ishoralar ishlatilsa, norasmiy muhitda ular yanada erkin va kengroq qo‘llaniladi.

Xulosa

O‘zbek tilshunosligida tana imo-ishoralari orqali muloqot qilishning o‘ziga xos jihatlari mavjud bo‘lib, ular milliy madaniyat va tilning ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, imo-ishoralar so‘zlashuv jarayonini boyitish, fikrni ifodalash va tushunishni osonlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, imo-ishoralarning lingvistik va madaniy xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish, ularning turli ijtimoiy vaziyatlarda qo‘llanilishini tahlil qilish o‘zbek tilshunosligining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu tezis orqali imo-ishoralarning kommunikativ va lingvistik ahamiyatini tushunish o‘zbek tilini va madaniyatini o‘rganishda yangi imkoniyatlar ochib beradi. Tana imo-ishoralari muloqotni yanada samarali va mazmunli qilish uchun kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek imo-ishoralar tili paydo bo‘ladi (mi)?
<https://www.gazeta.uz/oz/2020/09/24/sign-language/>
2. Harakat muloqoti (tana tili) https://uz.wikipedia.org/wiki/Harakat_muloqoti,_tana_tili
3. “Nonverbal communication and social cognition”. Salem Press Encyclopedia of Health. 4-jild. 2018. 4-bet.

4. Mandal, Fatik Baran (2014-05-19). „[Nonverbal Communication in Humans](#)“
5. 9 Types of Nonverbal Communication <https://www.verywellmind.com/types-of-nonverbal-communication-2795397>

**AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA VOSITALARINING TA'LIM
JARAYONIGA INTEGRATSIYASI**

Abduraximov Sirotillo Ulug'bek o'g'li

sirotillo2258@gmail.com

Muhammad al-Xorazmiy omidagi TATU Farg'ona filiali talabasi

Bugungi kunda yuqori malakali pedagog kadrlarga talab ortib borayotgan hozirgi sharoitda oqituvchilarni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni yaxshi o'zlashtirib olgan kadrlar sifatida shakllantirish talab etiladi. Bunday vazifalarni amalga oshirish mavjud xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish tizimini mukammallashtirish, uni elektron ta'lim talablariga mos rivojlantirish, xalq ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid fundamental bilimlarni mustahkam egallash, malaka oshirishning turli shakllarini yo'lga qo'yish, "Hayot davomida o'qish" tamoyili asosida ta'lim olishga yo'naltirishni taqozo etadi. Shu ma'noda, xalq ta'limi xodimlarining kasbiy malakalarini oshirish va qayta tayyorlash respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimida o'zining alohida o'rniga ega. Bundan ko'zda tutilgan asosiy maqsad pedagog kadrlarning umumiy dunyoqarashi va kasbiy mahoratini uzluksiz oshirish va takomillashtirishdan iboratdir.

Bugun kunda ko'plab o'qituvchilar tomonidan interfaol metodlar, innovasion pedagogik va axborot texnologiyalar dars jarayonlarida bevosita qo'llanmoqda. Bu orqali o'qituvchi dars jarayonida kamroq energiya sarflab, ko'proq ma'lumot berish orqali samaradorlikka erishadi hamda o'qituvchilar ko'zlari bilan ko'rishlari orqali ma'lumotlarni uzoq vaqt davomida xotiralarida saqlab qoladilar.

Yangi mavzu bayoni elektron darslik yoki elektron fil'm, taqdimot vositasida amalga oshirilsa, ma'lumotni eslab qolish imkoniyati kengayadi. Chunki ko'rish organlarining axborotni o'tkazish qobiliyati eshitish organlariga ko'ra yuqori bo'ladi. Bu esa o'z navbatida ko'rish tizimiga o'quvchi qabul qiladigan axborotlarning qariyb 90% ini yetkazish imkonini beradi va natijada bilish faoliyati tezlashadi. O'rganishning dastlabki 20 daqiqasi eng samarali, 30 daqiqadan keyin esa o'rganishni davom ettirish motivatsiyasi tezda pasaya boshlaydi.

Idrok qilish paytida qancha ko'p sensorik (sezgi) kanallardan foydalanilsa, esda olib qolingan bilimlarning miqdori va sifati shunchalik yuqori bo'ladi. Agar bilimlar faqat

ma'ruzalar orqali (passiv tinglash yo'lida) berilgan bo'lsa, unda 3 kundan so'ng ularning faqat 25%ni eslash mumkin xolos. Agar ma'ruzalar o'qish (tinglash), namoyish va ko'rgazmali qilish (ko'rish, ushlab ko'rish va shu kabilar) orqali berilsa va shu to'g'risida bahslashilsa, unda 3 kundan so'ng 75% ini esga tushirish mumkin. Agar bilimlarni idrok qilishda bir necha sensorik kanallar birgalikda ishga solingan bo'lsa, ma'lumotlarning qisqa xotiradan uzoq xotiraga o'tish jarayoni tezlashadi, bu esa bilishning asosi bo'lib hisoblanadi.

O'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga o'qitish metodlarining ta'sir darajasi:

1. Ma'ruza - eshitganimizning 5%.
2. O'qish - o'qiganimizning 10%.
3. Videousul, namoyish - ko'rganimizning 20%.
4. Tajribani namoyish qilish - ko'rgan va eshitganimizning 30%.
5. Bahs-munozara - muhokama qilganimizning 40%.
6. Mashqlar - o'qigan, yozgan, gapirganimizning 50%.
7. Ishbop o'yin, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash - mustaqil o'qiganimizning, tahlil va muhokama qilganimizning, himoya va namoyish qilganimizning 75%.
8. Yo'naltiruvchi matn, muammoli vaziyat, boshqalarni o'qitish - mustaqil o'rganimizning, tahlil va muhokama qilganimizning, boshqalarni o'qitgan narsalarimizning 90% xotirada saqlanib qoladi.

XXI asr axborot texnologiyalar asri sifatida yildan-yilga bu asrga bejiz shunday nom berilmaganligini namoyon etmoqda. Bunday o'zgarishlar ta'lim jarayonlarini tashkillashtirish va olib borishda ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Shunday o'zgarishlardan biri mul'timedial darslarni ta'lim tizimiga shiddat bilan kirib borayotganligidir. Mul'timedialning o'zi nima:

Mul'timedia - axborotni (matn, rasm, animasiya, audio, video) tasvirlashning ko'p kanallik usuli. Ya'ni, dars davomida berilayotgan ma'lumotlarni texnik vositalar asosida o'quvchiga sifatli taqdim etishdir. Mul'timedialarni quyidagicha izohlash mumkin.

Mul'timedia lavhalari – kompakt disklar yoki ma'lumotlarni boshqa komp'yuter tashuvchilarida, shuningdek, foydalanuvchilarga ixtiyoriy vaqtda kirish imkoniyatini beradigan qurilmalarga joylashtirilgan nashrlar, namoyish, ko'rgazmali, animasiyalangan va ovozli lavhalarning yig'indisi.

Mul'timedia muhiti – tasvir (shu jumladan, animasiya-harakat), nutq, ovoz va hujjatlarni birgalikda qayta ishlashni ta'minlaydigan ixtiyoriy turdagi ma'umotlarni har tomonlama (kompleks) tasvirlaydigan texnologiya.

Mul'timedia darslarini tushunish va o'tishning asosiy sharti texnik vositalardan foydalana olish, ayniqsa, komp'yuter bilan ishlashni yaxshi bilishi kerak. Power Point dasturi bilan ishlashni, slaydlar yaratishni, ularni animasiyalashni bilishlari zarur bo'ladi. Mul'timedia slaydlarini yaratishda quyidagilarga e'tibor berish kerak: slaydda beriladigan fikr olti qatordan oshmasligi. Ko'pincha butun bir varaq matnni ekranga ko'rsatishga harakat qilamiz. Vaholanki, bunday slaydlarni ko'pchilik o'qimaydi. Iloji boricha metama'lumotlardan kengroq foydalanish kerak.

Metama'lumotlar - axborot ma'lumotlarini (matn, rasm, jadval va boshqalar) ma'nosini tavsiflash uchun mo'ljallangan qisqa axborot identifikatorlari (indekslar, kalit so'zlar).

Ma'lumotlarni joylashtirayotganda haddan ziyod ko'zni charchatadigan ranglar va animasiyalardan foydalanish tavsiya etilmaydi;

Mativasiyani inobatga olgan holda slaydlarda mavzuga oid video, musiqalar, rasmlardan foydalanish tavsiya etiladi;

Demak, bugun biz yuksak texnologiyalar zamonida yashayotganimiz bilan faxrlansakda, ushbu texnologiyalar ayrim yovuz kuchlar tomonidan nomaqsad ishlatilishi oqibatida axborot xurujlari kuchayotganini e'tirof etishimiz lozim. Jamiyatimizni vayronkorlik va buzg'unchilik mazmunidagi axborot oqimidan himoyalashimiz, ayniqsa, yoshlarimizni ma'naviy olamining daxlsizligini asrashimiz yo'lida Internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish faoliyatimiz davlat organlari, jamoat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini- o'zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyatining barcha institutlari, ota-onalar, pedagoglarni va mutaxassislarni uzoq muddatli uzluksiz va tizimli hamkorlikka chaqiradi, albatta.

qitish jarayonlarini qurish muhim ahamiyatga egadir. Zamonaviy axborot va kommunikasiya texnologiyalari vositalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi o'qitish shakli – masofaviy o'qitishning vujudga kelishiga omil bo'ldi. Nima uchun bugungi kunda ta'limda axborot texnologiyalarini joriy etishning nazariy asosini yaratish, masofaviy ta'lim kurslarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish zaruriya-ti paydo bo'ldi? Birinchidan, o'qituvchining o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki bilimlarni egallash manbalaridan biriga aylanib qolayotganligi bo'lsa, ikkinchidan, ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanayotgan bosqichida axborotlarning keskin ortib borayotganligi va ulardan o'qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, shuningdek, talabalarni kasbiy faoliyatga mukammal tayyorlash

talablari ta'lim tizimiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Mamlakatimizda ta'lim sohasida ro'y berayotgan tub yangilanishlar har bir ta'lim muassasasida o'quv jarayoni metodik ta'minotini rivojlantirishni talab etadi.

REFERENCES

1. Saminjonova Z. I. Q., Abduvositov X. Yolg'izlik hodisasining nazariy tahlili //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. №. 10-2. – С. 368-375.
2. Юлдашев Ф. А., Юлдашева М. Б. Гносеологические аспекты концепции познания аль-Фараби в формировании ответственности личности //Социальная, профессиональная и персональная ответственность личности в современном обществе. – 2020. – С. 63-67.
3. Юлдашев Ф. А. Концепция познания аль-Фараби в истории философии // Философия инноваций и социология будущего в пространстве культуры: научный диалог. – 2020. – С. 389-393.
4. Temirxon E. et al. Yuzni Aniqlash Algoritmilarini Qiyosiy Tahlil Qilish //Intellectual Education

**AQLIY RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR
PSIXOLOGIYASINING O'ZIGA XOSLIGI.**

Djurayeva Sohiba Barat qizi

JDPU Maxsus pedagogika kafedra o'qituvchisi

Xusanova Lobar Shuxrat qizi

lobarx460@gmail.com

JDPU Surdopedagogika yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologiyasi va ularning xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Aqliy rivojlanish nuqsonlari — bu bolalarning intellektual faoliyatini, o'rganish qobiliyatini va ijtimoiy moslashuvchanligiga ta'sir qiluvchi holatlar. Ushbu tadqiqotda nuqsonlarning turli shakllari, ularning belgilari, shuningdek, ta'lim va tarbiya jarayonidagi ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Nuqson, aql, rivojlanish, maxsus pedagogika, faoliyat, intellekt.

Annotation: This article aims to study the classification of children with intellectual disabilities and their characteristics. Mental retardation is a condition that affects children's intellectual functioning, learning ability, and social adaptability. This study examines different forms of disabilities, their symptoms, as well as their importance in the process of education and upbringing.

Key words: Defect, mind, development, special pedagogy, activity, intellect.

Аннотация: Целью данной статьи является изучение классификации детей с нарушениями умственного развития и их особенностей. Умственная отсталость – это состояние, которое влияет на интеллектуальное функционирование детей, способность к обучению и социальную адаптацию. В данном исследовании рассматриваются

различные формы инвалидности, их симптомы, а также их значение в процессе обучения и воспитания.

Ключевые слова: Дефект, ум, развитие, специальная педагогика, активность, интеллект.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan ishlarning muhim bir qismi sifatida alohida yordamga muhtoj bolalami qo'llab quvvatlash va Ularni bilimini oshirish uchun qilinayotgan ishlar ham taxsinga sazovor. O'zbekistonda birinchi maxsus maktablar uchun oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash maqsadida 1967-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida alohida yo'nalish ochilgan. Hozirgi kunda yordamga muhtoj bolalar ta'lim tarbiyasi va rehabilitatsiyast jarayonlari butun dunyoda ilmiy nuqtai nazardan juda ko'p o'rganilayotgan masalalardan biriga aylangan. Bunday bolalami korreksiyalash va erta tashhis qo'yish ularning ijtimoiylashuvi hamda kelajakda jamiyatda o'z o'mini topa olishi uchun muhim hisoblanadi. Bunday bolalar qatoriga aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalami ham kiritishimiz mumkin. Aqliy zaiflik - bu aqliy, hissiy sohaning rivojlanmaganligi, xotira va e'tibor darajasining ma'lum bir yosh toifasi uchun me'yoriy ko'rsatkichlardan kechikishi bilan namoyon bo'ladigan bola psixikasining normal shakllanishi tezligining buzilishi. Qoidaga ko'ra, aqliy zaiflik tashxisi 5-6 yoshda, asosan maktabning boshlang'ich sinflarida, faol ta'limning boshlanishi davrida qo'yiladi. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar pedagogikasi va psixologiyasi asosan XVII asming oxiri, XIX asming boshlaridan rivojlana boshlagan. Bu sohada 1858 yil rus pedagogi N.A.Dobrolyubov tomonidan ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lib, taniqli rus pedagogi G.Y.Troshin hamda yetuk psixolog L.S.Vigotskiylar ham shu soha rivojlanishiga katta hissa qo'shishgan. XX asrning 90-yillaridan boshlab aqLi zaiflarning xalqaro tasnifidan foydalana boshlandi, unga binoan bolalami 4 guruhga: yengil, o'rtacha, og'ir va chuqur darajadagi aqli zaiflik bolalar toifasiga ajratildi. Aqli zaif o'quvchilar alohida

toifa bolalarni tashkil etadi. Ular boshqa turdagi maxsus maktab o'quvchilaridan farq qiladilar. Aqliy zaiflikning belgilari va klinik ko'rinishi. Aqliy zaiflikning namoyon bo'lishi barcha intellektual jarayonlarga taalluqlidir. Aqli zaif bola tomonidan tashqi dunyodan olingan ma'lumotni idrok etish sekin va parcha-parcha bo'lib, buning natijasida u atrofdagi dunyo haqida to'liq tasavvurga ega emas. Aqliy zaiflik belgilari, shuningdek, eshitishdan ko'ra ko'rish qobiliyatining yaxshi rivojlanishini o'z ichiga oladi.

Bunday bolalarning e'tibori beqaror, ular doimo begona narsalar va odamlar tomonidan chalg'itiladi. Qiyinchilik ma'lum bir faoliyat turiga e'tibor qaratish, sodir bo'layotgan voqealarning mantiqiy zanjirini tiklash zaruratini keltirib chiqaradi. Aqli zaif bolalarning ko'p qismini oligofrenlar tashkil qiladilar (grekcha oligof - kam, phrenos - aql). M.S. Pevzner oligofreniyaning 5 ta asosiy turini ajratadi:

- Oligofreniyaning murakkab bo'lmagan turi.
- Neyrodinamikasi buzilgan oligofrenlar.
- Ma'lum analizatorlari buzilgan oligofrenlar.
- Shaxsi qo'pol buzilgan oligofrenlar.
- Telbanamo xulqli oligofrenlar.
- Bu beshta turdan birinchi ikkinchis juda keng tarqalgan.

Aqli zaif bolalarning dunyoga kelish sabablari turlicha. Odatda, endogen (ichki) va ekzogen (tashqi muhit) omillarini ajratish mumkin. Aniqlanishicha, aqli zaiflikning genetik shakllari ustun tursa, ular tug'ma aqli zaiflar soniga kiradi. Biroq buzilishlarning yuzaga kelishida onaning yuqumli kasalliklari (masalan: qizilcha, homilaning alkogol bilan zaharlanishi, narkotiklar, dorilami haddan ziyod iste'mol qilish, onaning endokrin kasalliklari, xromosoma buzilishlari) muhim rol o'ynaydi. Ona qornida rivojlanish davrida,

tug'ruq paytida va bir-bir yarim yoshida olingan miya shikastlanishlari malum ahamiyatga ega, shu bilan bir qatorda hozirgi iqtisodiy va ekologik vaziyat ham katta rol o'ynaydi.

Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasi sog'lom rivojlanayotgan bolalar psixologiyasidan farq qiladi. Aqli zaif bolalarning diqqati tarqoq va idrok qilish qobiliyati juda sust bo'ladi. Idrok - bu inson analizatorlariga ta'sir etuvchi, narsa va hodisalarning butunligicha yoki ularning turli xususiyatlari o'zaro aloqasining shakllanish jarayonidir. Aqli zaiflikni butunlay bartaraf etib bo'lmaydi. Bunday nuqsonga ega bo'lgan bolalarni erta aniqlash va ular bilan korreksion hamda pedagogik mashg'ulotlarni olib borish natijasida ulardagi ikkilamchi hamda mujassamlashgan nuqsonlarning oldi olinadi. Ularni ijtimoiy hayotga moslashtirib o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalari shakllantirib boriladi.

Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar tasnifi, ularning turli xususiyatlari va ehtiyojlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ushbu tasnif orqali bolalar intellektual rivojlanish, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlari va kommunikatsiya ko'nikmalari bo'yicha guruhlariga ajratiladi. Har bir guruh o'ziga xos muammolar va qiyinchiliklar bilan shug'ullanishni talab qiladi, shuning uchun pedagogik yondashuvlar va ta'lim metodlarini moslashtirish zarur. Aqliy rivojlanish nuqsonlari bilan bog'liq holatlarni tushunish nafaqat ta'lim beruvchilar, balki oilalar va jamiyat uchun ham muhimdir. Bu bolalarning individual ehtiyojlarini inobatga olib, ularning rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga yordam beradi.

Natijada, aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mos ta'lim va tarbiya tizimini yaratish, ularning ijtimoiy moslashuvchanligini oshirish va farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu jarayon, bolalarning to'liq rivojlanishi va hayot sifatini yaxshilashga imkon yaratadi.

Hammaga ma'lumki aqli zaif bolalar tafakkurining rivojlanmay qolishiga asosiy sabab bosh miya po'stloq qismi faoliyatining buzilishidir. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan

bolalar turli xildagi intellektual yoki rivojlanish cheklovlariga ega bo'lib, bu ularning bilim olish, ijtimoiy muhitda o'zini tutish va kundalik hayot faoliyatida ma'lum qiyinchiliklarga olib keladi. Bu bolalar har xil sabablarga ko'ra intellektual rivojlanishda ortda qolishlari mumkin. Ularni tasniflashda ko'pincha quyidagi mezonlar asosida ajratiladi. Pedagoglar aqli zaif bola umri davomida nazariy bilimlarni egallab boradi, lekin bolaning aqliy koeffitsenti o'zgarmaydi. Bola ruhiyati og'ir nuqsonda ham rivojlanib boradi degan fikmi ilgari surishadi. Bu to'g'risida J.I.Snif shunday degan "Aqli zaif bola ruhiyati, normal bola ruhiyati kabi rivojlanish davrlarini boshidan kechiradi".

Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni hayotdan, jamiyatdan ajralib qolishlariga beparvo qarab bo'lmaydi. Buning uchun pedagoglar, psixologlar va ota-onalar birga hamkorlikda ish olib borishlari lozim. Bu nuqsonlarni qancha erta aniqlansa, ularga to'g'ri yondashilsa, Ularni bartaraf etish shuncha samarali bo'ladi. Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimida ham bu masalaga alohida e'tibor qartilgan. Ta'lim to'g'risidagi qonunning 20-moddasi inklyuziv ta'limga bag'ishlangan bo'lib, ularning o'z tengqurlari bilan birga tehsil olishlari, chetda qolib ketmasliklari inobatga olingan. Bunday nuqsonli bolalar har doim e'tiborga, mehrga muhtoj bo'lishadi. Ularni doimo qo'llab-quvvatlash hamda inklyuziv ta'limni amalga oshirish orqali ularni jamiyatda ijtimoiylashuviga yordamlashish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akramova, H. (2018). Didactic Foundations of Labor Activity for Children with Intellectual Disabilities. Eastem European Scientific Journal, (6).

2. Akramova, X. (2020). Методика формирования общих трудовых навыков у умственно отсталых учеников через компьютерные мультимедийные программы. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-7.

3. Abdunazarov, A. (2020). Imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy moslashuvini o‘rganishning innovatsion usullari.

4. Nazarova D.A. Eshitishida muammosi bo‘lgan bolalar ta‘limini takomil lashtirish. // Bolani maktabga tayyorlash sifat va samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy yechimlari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2017. – B.

5. P.Po‘latova, Z.Mamarajabova L.Nurmuxamedova. Maxsus pedagogika. Darslik “Fan va texnologiyalar” nashriyoti. T.: 2015

O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA AMINOKISLOTALAR MAVZUSINI
O'QITISHDA AXBOROT- TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI
O'QUVCHILARNING KREATIV MEZONINI SHAKLLANTIRISH

Nurmurodova Munisa Azamat qizi

Buxoro davlat pedagogika institute,

Kimyo kafedrası o'qituvchisi

Email: munisa.nurmuradovaa@gmail.com

Raxmatilloeva Shahzoda Hikmat qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti,

Kimyo yo'nalishi 4-kurs talabasi

Email: shahkzoda3644@gmail.com

Annotatsiya: Maktab ta'lim jarayonida o'quvchilarning kreativ mezonlarini shakllantirishda: axborot-texnologiyalar, interaktiv taqdimotlar, virtual laboratoriyalar, video darslar, guruh ishlari, kreativ loyihalar kabi usullarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Aminokislotalar mavzusini axborot-texnologiyalar bilan tashkil etish, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, tushunish darajalarini yaxshilaydi, kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Аннотация: В формировании творческих критериев учащихся в процессе школьного образования уместно использовать такие методы, как информационные технологии, интерактивные презентации, виртуальные лаборатории, видеоуроки, групповая работа, творческие проекты. Организация темы аминокислот с помощью информационных технологий повышает интерес учащихся к уроку, повышает уровень понимания, способствует развитию способности творчески мыслить.


Annotation: It is appropriate to use such methods as information technologies, interactive presentations, virtual laboratories, video lessons, group work, creative projects in the formation of creative criteria of students in the process of school education. Organizing the topic of amino acids with information technologies increases the interest of students in the lesson, improves the level of understanding, and helps to develop the ability to think creatively.

Kalit so'zlar: Aminokislotalar, glutamin kislota, peptid, fermentlar, funksiya, miozin, keto-yenol, xelat, "ha- yo'q" metodi, kimning fikri muhim metodi, sirli quti, rebus metodi.

Ключевые слова: Аминокислоты, глутаминовая кислота, пептид, ферменты, функция, миозин, кето-енол, хелат, метод «да-нет», чье мнение важно, метод, тайный ящик, метод ребуса.

Key words: Amino acids, glutamic acid, peptide, enzymes, function, myosin, keto-enol, chelate, "yes-no" method, whose opinion is important method, mystery box, rebus method.


Molekulasida amino-NH₂ va karboksil-COOH gruppalari bor organik birikmalarga **Aminokislotalar** deyiladi. Ular quyidagi formula bilan ifodalanadi(1-rasm.):



1-rasm. Aminokislotalarning Chem3D dasturidagi 3D ko‘rinishi.


Aminokislotalar amin va karboksil gruppalariga qarab uch guruhga bo‘linadi.

1. Tarkibida bitta amino va bitta karboksil guruh tutgan aminokislotalar **monoamino monokarbon kislotalar** deyiladi (2-rasm).




2-rasm. Alaninning Chem3D dasturidagi 3D ko‘rinishi.

2. Molekulasida ikkita amin va bitta karboksil gruppalari bo‘lgan aminokislotalar **diamino monokarbon kislotalar** deyiladi (3-rasm).



3-rasm. Lizinning Chem3D dasturidagi 3D ko‘rinishi.

3. Molekulasida ikkita karboksil va bitta amino guruhlar bo‘lsa, **monoamino dikarbon kislotalar** deyiladi (4-rasm).




4-rasm. Glutamin kislotaning Chem3D dasturidagi 3D ko‘rinishi.

Yuqoridagilarning formulasini Gauss View Chemoffice dasturida ko‘rib chiqdik.

Bu sinf vakillari ham o‘ziga xos nomenklaturaga, fizik va kimyoviy xossalarga egadir. Kimyoviy xossalarga: Aminokislotalarning nitrit kislotalar bilan ta’siri, formaldegid ishtirokida ta’siri, nitrokislotalar va oksimlar orqali, oddiy tuzlardan tashqari maxsus sharoitlarda og‘ir metallar bilan ichki kompleks tuz yoki xelat hosil qilishini ham ko‘rish mumkin. Bundan tashqari aminokislotalar indikatorlar orqali rangining o‘zgartirishini ham bilish mumkin. [1.178]

Aminokislotalar turli sohalarda va turli maqsadlarda ishlatiladi. Aminokislotalar oqsillar bilan uzviy bog‘liqdir. Bu moddalar insonlar va hayvonlar iste’mol qiladigan ozuqalar tarkibida uchraydi. Bundan tashqari aminokislotalar ba’zi kasalliklarni davolovchi sifatida ham ishlatiladi. Masalan: glutamin kislota asab kasalligini, gistidin oshqozon yarasi kasalligini davolashda, qishloq xo‘jaligida hayvonlarning o‘shini normallashtirish va boshqa maqsadlarda ishlatiladi.

Aminokislotalar molekulari orasida keto-yenol tautomeriyasi ham mavjud. (5-rasm)
[2.189]



5-rasm. Alaninga glitsin ta'siri natijasida peptid bog'ining hosil bo'lishi va keto-yenol tautomeriyasi tasviri


O'quvchilarga **aminokislotalar** mavzusini o'qitishda axborot- texnologiyalardan foydalanib, kreativ mezonini shakllantirish orqali o'rgatish mumkin. Dars jarayoni bu tarzda tashkil etilganda, o'quvchilardan mavzuga oid bo'lgan tushunchalar shakllanadi, darsni tushuna bilish darajasi oshadi, dars juda ham qiziqarli bo'ladi, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlari va individuallik ko'nikmalari shakllanadi.

Dars jarayonini qiziqarli va tushunarli tashkil etish uchun turli xildagi kreativ metodlardan foydalanish mumkin, bularga: "Ha- yo'q" metodi, "Kimning fikri muhim" metodi, "Sirli quti" metodi, "Rebus" metodlari.

"Ha- yo'q" metodi

Bu metod orqali har bir o'tilgan va yangi mavzularni mustahkamlash jarayonida foydalanish mumkin. Bunda o'qituvchi tomonidan yangi mavzu, masalan: "Inson organizmida aminokislotalarning asosiy vazifalari va funksiyalari" mavzusiga doir bir nechta to'g'ri yoki noto'g'ri javoblar o'qib eshittiriladi. Agar o'qituvchi tomonidan to'g'ri javob aytilsa "Ha", noto'g'ri javob aytilsa

"Yo'q" degan javobni yozishlari kerak bo'ladi. Ushbu metodni guruhlar bilan musobaqa tarzida yoki har bir o'quvchi bilan individual tarzda o'tkazish mumkin.



1. Aminokislotalar tarkibida amino va keton gruppaga tutuvchi organik birikmalardir.

Yo'q

2. Aminokislotalar qishloq xo'jaligida hayvonlarning o'sishini normallashtiradi.

Ha

3. Glutamin kislota asab kasalligini tezlashtiradi.

Yo'q

4. Gistidin kislota oshqozon yarasi kasalligini davolashda

ishlatiladi.


Ha

5. Aminokislota va oqsilga bo'lgan ehtiyoj ozuqa va sut mahsulotlari orqali o'zlashtiriladi.

Ha

"Kimning fikri muhim" metodi

Bu metod ko'p tarmoqli bo'lib, muammoli mavzularni o'rgatishda qo'llaniladi. Ya'ni, mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir to'la axborot beriladi va axborotlarning har biri alohida muhokama qilinadi. Masalan: gemogloblin tarkibidagi temirning ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari ko'rsatiladi. Bu enterfaol metod o'quvchilarni tanqidiy, tahliliy va mantiqiy fikrlashga o'rgatadi. O'quvchilar bu metod orqali o'zining fikr va mulohazalarini qog'ozga tushurib, himoya qilib berishlari kerak.



“Sirli quti” metodi

Bu metodni har bir o‘tilgan va yangi mavzularni mustahkamlash jarayonida qo‘llash mumkin. Masalan, “Aminokislotalarning sinflanishi va funksiyasi” mavzusi yuzasidan o‘qituvchi tomonidan bir nechta ketma- ket aminokislotalarning organizmdagi ahamiyati kabi savollar beriladi. O‘quvchilar berilgan savollar va ta’riflardan kelib qutida yashiringan aminokislotalarning birikmasini topishlari Quti ichida aminokislotalarning qaysidir birikmasi yoki birorta bo‘lishi mumkin.



chiqib
kerak.
tuzi

“Rebus” metodi- rasmlardan foydalanib, quyida berilgan yacheykalar ichidagi tegishli so‘zlarda qatnashgan harflarni topib so‘z yasash:

AMINOKISLOTA



??XXXX



???XXX



??XXX




????X XXXX



??XXX

Aminokislotalar mavzusini o‘qitishda axborot-texnologiya vositalaridan foydalanish orqali biogen moddalarning 3D va fazoviy strukturalarini o‘quvchilarga yaxshiroq va tushunarli bo‘lishi

uchun ko'rsatib berish mumkin. Albatta, o'quvchilarning eshitish qobiliyatidan ko'ra ko'rish qobiliyatining yuqori bo'lishi yaqqol misol bo'ladi.



Yuqorida Gauss View dasturida fenilalaninning fazoviy strukturasi ko'rish mumkin. An'anaviy o'qitishdan ko'ra zamonaviy axborot- texnologiya vositalaridan foydalanish dars jarayonining sifatini va o'quvchilarning bilim salohiyatini oshiradi.

Xulosa

Shuni aytish lozimki, hozirgi zamonda texnika juda jadal rivojlanib bormoqda. Pedagogik kadrlar o'quvchilarning salohiyatini oshirishlari uchun zamon bilan hamnafas yashashlari lozim. Dars jarayonini texnik vositalar, axborot- texnologiya vositalaridan foydalanib dars jarayonini o'quvchilarning mavzuni tushunishlariga oson va qulay tashkil etishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A. Abdusamatov, Organik kimyo. Toshkent 2004. "Talqin" nashriyot.
2. N.G'.Rahmatullayev, H.T.Omonov, SH.M.Mirkomilov. Kimyo o'qitish metodikasi: darslik.– Toshkent: "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, – 2013.
3. Raxmatullayev N.G. Kimyo o'qitish metodikasi fanidan ma'ruzalar matni. T. TDPU 2007.
4. Nishonov M., Mamajonov Sh., Xo'jayev V. Kimyo o'qitish metodikasi. T., "O'qituvchi", 2002.
5. Shoymardonov R.A, Abdusamadov A.A, Sodiqov B, Iskandarov S.I. Organik kimyodan praktika. – T.: O'qituvchi – 1982.
6. Qosimov A.K, Qo'chqorov K.K, Muborakova D.X, Biokimyodan amaliy mashg'ulotlar. – Toshkent "O'qituvchi" 1989

7. Umarov M, Omonov X, Yo‘ldoshev O, Organik va biologik kimyodan amaliy ishlar.
– Toshkent 1994.

**«YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR» RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**
2-TOM, 11-SON (30-NOYABR)

MUNDARIJA

1	ЖАМИЯТ АЪЗОЛАРИ ОНГИДА ЭКОЛОГИК ТАФАККУРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ Мингбаев Рахим	5-8
2	CHET TILI O'QITUVCHILARINING EMOTSIONAL SOTSIAL KOMPETENTLIGI OLIY TA'LIM MUHITI ZARURIY OMILI SIFATIDA Ataxo'jayeva Shaxlo	9-11
3	OILADA MEHNAT MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI TARBIYALASH METODIKASI Jamaldinov Sarvar	12-14
4	Narkotik moddalar bo'yicha Birlashgan Millatlar tashkilotining 1961, 1971 va 1988-yilgi konvensiyalari: xalqaro huquqiy asos sifatida Abdusattorov Shahzod	15-19
5	PSYCHOLOGICAL IMPACTS IN INCLUSIVE EDUCATION Nodira Himmatova	20-22
6	IMPLEMENTING PRAGMATIC TRANSLATION TECHNIQUES TO ENHANCE PROFESSIONAL COMPETENCE IN ENGLISH-UZBEK TRANSLATION STUDENTS Karina Khusainova	23-29
7	TIJORAT BANKLARI XAVFSIZLIGIGA TAHDIDLARNING IQTISODIY MAZMUNI-MOHIIYATI Akbarov Behzodhon	30-34
8	Особенности ресоциализации несовершеннолетних Дилрабо Абдусамиева	35-38
9	Yoshlar huquqiy madaniyatining ilmiy- nazariy va metodologik asoslari Shodiyev Ma'rufjon	39-43
10	ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI Abdukarimov Abdujalil	44-48
11	TRANZIT MIYA QON AYLANISHINING BUZILISHINI ANIQLASH MEZONLARI N.A. Xodjayeva, N.S.Aliyeva, J.A. Nazarova	49-51
12	Инсон капиталини ривожлантиришда уй-жой билан таъминлашнинг ўзига хослиги Ханнаров Комилжон	52-56

**"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**
Volume 2, Issue 11, 30-NOYABR 2024

13	ЭКСКУРС В ЛИТЕРАТУРНЫЙ МИР КОРЕИ ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ ХХ ВЕКА Шин Виктория	57-63
14	ЛИ МУНЁЛ ҲИКОЯЛАРИДА ФУҚАРОЛАР УРУШИ АКС-САДОСИ Каримов Нодирбек	64-68
15	O'zbekistonda ipoteka qaltisliklarini sug'urtalash va uni rivojlantirish istiqbollari Fatullayev Elyor	69-72
16	ХОМИЛАДОР АЁЛЛАРДА ГЕСТАЦИОН ҚАНДЛИ ДИАБЕТ АСОРАТЛАРИ Комилова И.А, Шаймуродова М.У	73-74
17	INTERNAL IDENTITY ISSUES AFFECTING PAKISTAN'S FOREIGN POLICY. Sirojiddin Mamatkulov	75-80
18	ТИЈОРАТ BANKLARI BARQARORLIGINI SAMARALI BOSHQARISH МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАСHTIRISH MASALALARI Axmedov Samandar	81-85
19	NUTQ TOVUSHLARINING TASNIFI Muxammadiyeva.Sh.B , Erkinova Barno	86-89
20	ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ ФУҚАРОЛАРНИНГ ПЕНСИЯ ТАЪМИНОТИ ТИЗИМИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР Ф.М. Пардаев	90-96
21	КАМБАГ'АЛИКНИ ҚИСҚАRTIRISH YO'NALISHIDA YANGI YONDASHUVLARNI JORIY QILISH B.B. Khidirbaev	97-99
22	REASONS BEHIND DISTINCTION IN LIFE EXPECTANCY OF DEVELOPED COUNTRIES AND DEVELOPING COUNTRIES Abduvohidov N.Z, Ro'ziyeva G.T	100-106
23	Oziq-ovqat sanoatida qo'llanilayotgan fermentlarni sintezlovchi mikroorganizmlarning biologik tasnifi	107-111
24	BUDJET CHEGARASI XUSUSIYATLARI VA BUDJET CHIZIG'INING O'ZGARISHI Olloqulova Feruza , Choriyurov Behruz	112-116
25	MONETAR SIYOSAT VA MARKAZIY BANK Olloqulova Feruza , Boborahmatova Shohsanam	117-121
26	THE USE OF PROVERBS IN ENHANCING PAREMIOLOGICAL COMPETENCE Eshonkulova Gulrukh	122-128

27	BUDJET CHEGARASI XUSUSIYATLARI VA BUDJET CHIZIG'INING O'ZGARISHI Olloqulova Feruza , Choriyorov Behruz	129-133
28	MONETAR SIYOSAT VA MARKAZIY BANK Olloqulova Feruza , Boborahmatova Shohsanam	134-138
29	THE USE OF PROVERBS IN ENHANCING PAREMIOLOGICAL COMPETENCE Eshonkulova Gulrukh	139-144
30	GLOBALLASHUV JARAYONLARI Alijonova Yodgoroy	145-149
31	“MATNLI HUJJAT BILAN ISHLASHNI BOSHLASH” MAVZUSINI DASTURIY VOSITALAR ASOSIDA O'QITISH Nazarov Bahodir	150-156
31	IJTIMOIIY ADOLAT DIALEKTIKASI, INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARI Teshaboev Muhiddin	157-165
33	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJTIMOIIY FAOL FUQAROLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTISH MUAMMOLARI Rustambekova Nigora	166-169
34	КЛИНИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПАЦИЕНТОВ С ПОВЫШЕННЫМ ВБД ПРИ ОСТРОЙ АБДОМИНАЛЬНОЙ ПАТОЛОГИИ В ВОЕННОЙ МЕДИЦИНЕ Фарида Азизова	170-173
35	РОЛЬ БАНКОВСКОГО НАДЗОРА ПО УКРЕПЛЕНИЮ УСТОЙЧИВОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ Шарайов Ислам	174-178
36	МЕТОДИКА ПРИМЕНЕНИЯ ИДЕОМОТОРНОЙ ТРЕНИРОВКИ ПРИ РАБОТЕ С ЮНЫМИ ГИМНАСТКАМИ Мустафаева Азиза Низомиддиновна	179-182
37	СТРУКТУРА НЕЙРОВЕГЕТАТИВНЫХ РАССТРОЙСТВ У ЛИЦ ПОЖИЛОГО ВОЗРАСТА В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ПОЛА Назарова Ж.А, Абдужамилова Р.М, Аббосова И.А.	183-190
38	GISTOLOGIK KASALLIKLAR VA ULARNING PATOGENEZIGA UMUMIY TUSHUNCHA Qahhorov Bunyod, Yodgor Kenjayev	191-196
39	O'RTA OSIYO DARYOLARINING XO'JALIKDAGI AHAMIYATI Hakimov Muhammadali	197-201
40	SO'JAK (PAULITA OVCZINNIKOVII) KOROVINNING MORFOLOGIYASI VA BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI Aslanova Xolida Gafurovna	202-203

**"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**
Volume 2, Issue 11, 30-Noyabr 2024

41	HOW THE NEW UZBEKISTAN CONSTITUTION ENSURES A FREE AND PROSPEROUS LIFE A.E.Eshmamatov, A.A.Bolto'rayeva2	204-208
42	O'RTA OSIYO QO'RIXONALARIGA TAVSIF Umaraliyeva Ziyodaxon Abdujabbor qizi	209-211
43	BOSHLANG'ICH MAKTABLARDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHI MUNOSABATLARIGA IKKI TOMONLAMA YONDOSHUV Hayitova Zilola Maxmudjonovna, Mavlonova Jasmina	212-219
44	BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITUVCHI - O'QUVCHI MUNOSABATINING MUHIMLILIG DARAJASI Хайитова Зилола Махмуджоновна, Abdullayev Ziyodulla	220-223
45	O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TANA IMO-ISHORALARI ORQALI MULOQOT QILISH Majidova Maftuna Samad qizi	224-227
46	AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA VOSITALARINING TA'LIM JARAYONIGA INTEGRATSIYASI Abduraximov Sirotillo Ulug'bek o'g'li	228-231
47	AQLIY RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR PSIXOLOGIYASINING O'ZIGA XOSLIGI Djurayeva Sohiba Barat qizi, Xusanova Lobar Shuxrat qizi	232-237
48	O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA AMINOKISLOTALAR MAVZUSINI O'QITISHDA AXBOROT- TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI O'QUVCHILARNING KREATIV MEZONINI SHAKLLANTIRISH Nurmurodova Munisa Azamat qizi, Raxmatilloeva Shahzoda Hikmat qizi	238-245
	OUTLINE	246-249